

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

*Qo‘lyozma huquqida*

*UDK:811.512.133;81.373:008*

**NURBOYEVA GULSHANNING**

**OILADA OTA-ONANING MULOQOT XULQI  
(LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI)**

**70230101** – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha Magistr akademik  
darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**f.f.f.d. (PhD), dots. Z. Umurqulov**

**Termiz – 2023**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil \_\_\_-martdagi №\_\_-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manziling QR-kodi:**



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( 43 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

**Ilmiy rahbar:** \_\_\_\_\_

**f.f.f.d. (PhD), dots. Umurqulov Z.**

**Kafedra mudiri:** \_\_\_\_\_

**f.f.f.d. (PhD) Amonturdiyev N.**

**Magistratura bo‘limi boshlig‘i:** \_\_\_\_\_

**(PhD) Narbayev A.**

**70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili ) mutaxassisligi magistranti Nurboyeva Gulshanning “Oilada ota-onaning muloqot xulqi (lingvokulturologik xususiyati)” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

**ANNOTATSIYASI**

**Tayanch so‘zlar:** muloqot xulqi, nutq madaniyati, sotsiolingvistika, gender lingvistika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, psixolingvistika, stilistika.

**Tadqiqot obyektlari:** sifatida oilada ota-ona nutqiga xos bo‘lgan leksik birliklar va ularning lingvistik tadqiqi belgilandi.

**Ishning maqsadi:** O‘zbek oilalarida ota-ona muloqot xulqiga xos bo‘lgan leksik birliklarni lingvokulturologik, etnolingvistik, psixolingvistik, stilistik va gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tahlil etish va o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish.

**Tadqiqot metodlari:** Asosan, lingvokulturologik, sotsiolingvistik va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- Ota-ona muloqot xulqi individualligini ta‘minlovchi vositalar leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi;

- Ota-ona muloqot jarayonida qo‘llaniladigan tasviriy vositalarni belgilandi va ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil etildi;

- Ota-ona muloqot xulqining fonetik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlari tahlili asosida idiolektik farqlar tasniflandi.

**Amaliy ahamiyati:** Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va psixolingvistikaga oid izlanishlarni nazariy ma‘lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika va gender tilshunoslikning tahlillari jarayonida foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvokulturologik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadbiq etish darajasi:** Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika va gender tilshunoslikda nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

**Qo‘llanilish sohasi:** Oliy ta‘lim va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari.

## ANNATATION

### "Communication behavior of parents in the family (linguistic and cultural characteristics)" master's dissertation on the topic

**Key words:** communication behavior, speech culture, sociolinguistics, gender linguistics, linguoculturology, ethnoinguistics, psycholinguistics, stylistics.

**Research objects:** lexical units characteristic of parents' speech in the family and their linguistic research were determined.

**The purpose of the work:** to analyze the lexical units characteristic of parent-parent communication behavior in Uzbek families from the point of view of linguocultural, ethnoinguistic, psycholinguistic, stylistic and gender linguistics and to show their peculiarities.

**Research methods:** Mainly, linguocultural, sociolinguistic and comparative analysis and classification methods were widely used.

The results obtained and their novelty:

- The tools that ensure the individuality of parental communication behavior were lexically-semantically analyzed;
- Visual means used in the process of parent communication were defined and analyzed from a linguistic and cultural point of view;
- Idiolectic differences were classified based on the analysis of phonetic, lexical-semantic, syntactic features of parental communication behavior.

**Practical significance:** The results of the research will enrich the research of linguocultural and psycholinguistics with theoretical information. The practical importance of the research is that the results of the research can be used in the analysis of linguistics, linguoculturalism, psycholinguistics and gender linguistics. Collected evidence, performed analyzes serve as important material for studying linguistic and cultural analysis.

**Application level:** The practical significance of the research is that the results of the research can be used as a theoretical resource in linguistics, linguocultural science, psycholinguistics and gender linguistics.

**Field of application:** Higher education and general secondary schools.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>I BOB. OILADA MULOQOT XULQI MUAMMOSINING NAZARIY MASALALARI</b> .....	
1.1-§. Oilada muloqot xulqi va unga yondosh tushunchalar .....	
1.2-§. Oilada milliy xarakter va muloqot xulqi.....	
1.3-§. Oilada ota-ona muloqotida so'zning belgilik va semantik tabiatiga munosabat.....	
1.4-§. Oilada muloqot xulqining o'rganilishiga oid tadqiqotlar.....	
I bobga doir xulosalar.....	
<b>II BOB. OILADA OTA-ONA MULOQOTINING LINGVO-KULTUROLOGIK JIHATI</b> .....	
2.1-§. O'zbek milliy qadriyatlarining oiladan shakllanishi.....	
2.2-§. Turkiy xalqlar madaniyatida “ota” va “ona” tushunchalari.....	
2.3-§. “Oila tili” ning ayrim iboralari .....	
II bobga doir xulosalar.....	
<b>III BOB. O'ZBEK MULOQOT XULQINING JINS JIHATDAN XOSLANISHI</b> .....	
3.1-§. O'zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari.....	
3.2-§. O'zbek erkak va ayollari muloqot xulqiga xos bo'lgan farqli xususiyatlar.....	
3.3-§. Ota muloqot xulqining ba'zi xususiyatlari .....	
3.4-§. Ona muloqot xulqining ba'zi xususiyatlari .....	
III bobga doir xulosalar.....	
<b>XULOSA</b> .....	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Hozirgi ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o'zgarishlar, tub islohatlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda har bir shaxs buyuk o'tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo'llardan borish talab qilinadi.

Mashhur faylasuf V.Gyugo aytganidek, "oila jamiyatning duru gavharidir". Shuningdek, "Oila tabiatning shox asarlaridan biridir". Xuddi shox asar hisoblangan oilani o'rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etib borish bugungi kunning ham eng dolzarb masalalaridan bo'lib, hozirgi davrda mustaqil O'zbekistonda bu borada juda katta ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar olib borilmoqda. "Oila" haqida gapirar ekanmiz, avvalom bor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak avlodlar qanday inson bo'lib yetishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini deb bilamiz. Har bir oilaning kelajagi va istiqboli, uning mustahkamligiga, sog'lom turmush tarziga bog'liqdir. Bu o'z navbatida xalqning, jamiyatning istiqbolini belgilaydi. Shu tufayli oilaviy munosabatlarning huquqiy asoslari mamlakat, jamiyat manfaati yo'lida amalga oshiriladigan eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

"Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir, hamda jamiyat va davlat muxofazasida bo'lish huquqiga ega", deyilgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida<sup>1</sup>. 1998 yila "Oila yili"da "Oila kodeksining" qabul qilingan va bu hujjat "Oila" so'zining "Nikoh" so'ziga nisbatan kengroq ma'no anglatishi hisobga olinib, amalda qo'llanib kelingan "Oila va nikoh" kodeksi yangilanngan va to'ldirilgan. "Oila" kodeksi 238-moddadan tarkib topgan sakkiz bo'limdan iborat<sup>2</sup>. "Umumiy qoidalar" deb ataluvchi bo'limning sakkiz moddasi "oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an'alarining qo'llanishi" haqida bo'lib, jumladan, bu masala shunday ifodalangan: "Qonun hujjatlarida oilaviy

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2016

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – Toshkent: Adolat, 2018

munosabatlarni tartibga solishga oid tegishli №2 2022 136 normalar bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari tamoyillariga zid bo‘lmagan mahalliy urf – odat va an‘analar qo‘llaniladi”. Bunda o‘zbek xalqida kelin - kuyovga eskicha nikoh o‘qitish, shuningdek Respublikamizda yashovchi boshqa xalqlar, jumladan, ruslarda cherkovda nikoh o‘qitish, turklarda esa nikoh to‘yidan keyin hurmat belgisi sifatida kelin-kuyovni ma’lum muddat davomida oila a‘zolari bilan gaplashmay yurishlari singari an‘anaviy udumlar ko‘zda tutilgan. “Oila ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqib, unga quyidagicha ta’rif berish mumkin: oila - bu uyushgan ijtimoiy guruh bo‘lib, uning a‘zolari umumiy hayot, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari bilan, shuningdek, jamiyatning jismoniy ehtiyojlari tufayli ma’naviy javobgarlik bilan bog‘lanadi”<sup>3</sup>.

“...Sharq donishmandlari aytganidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o‘zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo‘lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”<sup>4</sup>.

Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o‘rganuvchi sohasi sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika shu fan sohasidagi o‘ta nazariylik, noaniqlik va aynan shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko‘rsatib bermoqda. Zero, an‘anaviy tilshunoslik tilda har biri o‘ziga xos takrorlanmas olam bo‘lgan insonlar muloqot jarayonining ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy xususiyatlariga e’tibor qaratmadi. Bunga muloqot jarayonining o‘ta murakkab va serqirra ekanligini va xuddi shuning uchun ham alohida bir fanning o‘zi bu muammoni yaxlit tadqiq etishga ojizlik qilganligini sabab qilib ko‘rsatish mumkin. Shuning uchun bo‘lsa kerak, asrimiz boshlarida aniq va tabiiy fanlarning, asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab esa ijtimoiy fanlarning ham muayyan jabhada o‘zaro yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Natijada, sotsiolingvistika,

---

<sup>3</sup> Ganieva M.X, Latipova N.M., Karamyan M. Ijtimoiy ish asoslari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: 2010

<sup>4</sup> Ўзбекистон Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга муурожаатномасидан. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил, 25 январь сони.

etnolingvistika, psixolingvistika kabi “tutash” fanlar, etnopsixolingvistika, sotsiopsixolingvistika kabi yangi soha va yo‘nalishlar yuzaga keldiki, inson nutqini aynan fanlarning mana shunday *tutash nuqtasida* tadqiq etish o‘ta murakkab jarayon bo‘lgan muloqotning asl mohiyatini, uning o‘ziga xos.

Oila muloqot xulqining lingvistik, lingvokulturologik jihatdan tadqiq etishga doir ishlar o‘zbek tilshunosligida hali amalga oshirilmagan, bu esa tadqiqot mavzuumizning dolzarbligini ifoda etadi.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida oila muloqot xulqiga xos individuallikni ta‘minlovchi omillar: muloqot vositalari, frazeologik birliklar, o‘xshatish kabi vositalarning qo‘llanishi tadqiq etildi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti** sifatida oilada ota-ona nutqiga xos bo‘lgan leksik birliklar va ularning lingvistik tadqiqi belgilandi.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari:** O‘zbek oilalarida ota-ona muloqot xulqiga xos bo‘lgan leksik birliklarni lingvokulturologik, etnolingvistik, psixolingvistik, stilistik va gender lingvistikasi nuqtai nazaridan tahlil etish va o‘ziga xosliklarini ko‘rsatish.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

- Oilada ota-ona muloqot xulqining lingvokulturologik jihatdan o‘rganishning dolzarbligini asoslash;
- Oilada ota-ona muloqot xulqining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish holatini ilmiy-tanqidiy baholash;
- Oilada ota-ona muloqot xulqida qo‘llanilgan muayyan til birliklarini belgilash va ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil etish;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

- Oilada ota-ona muloqot xulqining individualligini ta‘minlovchi vositalar leksik-semantik jihatdan tahlil qilindi;
- Oilada ota-ona muloqot jarayonida qo‘llaniladigan til vositalarni belgilandi va ularni lingvokulturologik jihatdan tahlil etildi;



- Oilada ota-ona muloqot xulqining fonetik, leksik-semantik, sintaktik xususiyatlari tahlili asosida idiolektik farqlar tasniflandi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** Ilmiy tadqiqot ishida oilada ota-ona muloqot xulqining lingvokulturologik xususiyatlari yoritildi va mazkur nutqqa xos bo'lgan vositalar haqida aniq xulosalar berildi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi:** G'arb mamlakatlarida nutqiy muloqot, uning sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmatik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab maxsus jurnallar chiqq boshladi ("Communication", "Discourse and Society", "Cultural Anthropology", "Journal of Pragmatics", "Language and Communication", "Pragmatics" va boshqalar). So'nggi yillar AQSH olimlari nutqiy muloqot sohasida juda katta tadqiqotlarni olib borayotganlarini aytib o'tish kerak. AQShda muloqot va ritorika bilan mashg'ul ko'plab ilmiy jamiyatlar va assotsiatsiyalar tashkil topganini va ular o'z ilmiy izlanishlarini chop etib borayotganliklarini eslatish zarurdir<sup>5</sup>.

Bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganishga rus tilshunosligida 20 – 30-yillarda kirishildi.

1977-yilda Moskvada "Национально-культурная специфика речевого поведения"<sup>6</sup> nomli, sal keyinroq "Национально-культурная специфика речевого обучения народов СССР"<sup>7</sup> nomi bilan mualliflar hamkorligidagi monografiyalarning chop etilganligi, shuningdek, A.A.Leontpev, N.V.Ufimseva, Y.A.Sorokin, L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, A.N.Gvozdev, A.I.Yefimov, Y.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, S.I.Ojegov, Y.F.Tarasov, A.M.Shaxnarovich, V.D.Bondaletov, V.M.Alpatov, N.I.Formanovskaya, V.V.Kolesov, Y.D.Desheriyev, G.V.Kolshanskiy, G.A.Zolotova, Y.S.Kubryakova, V.V.Veselitskiy, M.I.Chijevskaya, B.N.Golovin, G.Tits, L.M.Ryazanova, V.P.Trofimenko va boshqalarning bu muammoga oid qator monografik

---

<sup>5</sup> Қаранг: Rhetoric Society Quarterly. Vol, 24. № 1/2. 1994.

<sup>6</sup> Национально - культурная специфика речевого поведения - Москва: Наука, 1977.

<sup>7</sup> Национально - культурная специфика речевого обучения народов СССР. - М.: Наука, 1982.

tadqiqotlarining yuzaga kelganligi nutqiy faoliyat muammosini tobora dolzarb masalaga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

Turkologiyada ham insonlarning o‘zaro muloqotga kirishish jarayoni tilshunoslarning diqqatini anchadan beri o‘ziga jalb etib keladi. Jumladan, F.F.Sultonov, N.Djunusov, A.B.Medjidova, T.Aydarov, T.Karakeyeva, D.Sodiqbekova kabi olimlar bu masala ustida maxsus izlanishlar olib borganlar<sup>8</sup>.

O‘zbek tilshunosligida bu masala bilan jiddiy shug‘ullanish endigina boshlandi, deyish mumkin. Bu holni o‘zbek tilshunos olimlari S.Ibrohimov, O.Usmonov, E.Begmatov va boshqalar 1969-yili Toshkentda nutqimiz rivoji masalalari mavzuida o‘tkazilgan I Respublika konferensiyasida qilgan ma’ruzalarida alohida ta’kidlaydilar. Jumladan: “...Masalaning bunday qo‘yilishidan o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi, umuman, o‘rtaga qo‘yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Nutq odobi deb yuritib kelingan qoidalarning o‘ziyoq, bu masalaning ko‘hna tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, 20-30-yillarda til qurilishi, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarning o‘sha vaqtda til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash g‘oyat muhimdir”<sup>9</sup>, deb yozadi E.Begmatov. Afsuski, o‘zbek tili nutq madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o‘rganish o‘rtaga jiddiy qo‘yilgan emas<sup>10</sup>. O‘zbek tilshunoslaridan S.Ibrohimov, E.Begmatov, L.Xo‘jayeva, I.Ibrohimov, B.O‘rinboyev, S.Inomxo‘jayev, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov.

---

<sup>8</sup> Каранг: Султонов Ф.Ф. Некоторые особенности коммуникативного поведение татар и башкир //Национально - культурная специфика речевого обьения народов СССР. - М: Наука, 1982, с. 93-101; Джунусов Н. Казахский переходный говор на территории каракалпакской АССР. - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Алма-ата, 1965; Меджидова А. Б. Ленкорский говор Азербайджанского язкка. - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Баку, 1970. Айдеров Т. Язкковке особенности казахов Тамдинского раёна Узбекской ССР. - Автореф. дис. .... канд. филол. Наук.-Ташкент - Алма-ата, 1967; Каракеева Т. О типологии коммуникации // Знак и обьение. - Фрунзе: Илим, 1974, с. 88-101; Скджкбекова Д. Особенности коммуникативного поведения киргизов // Национально-культурная специфика речевого обьения народов СССР. - М.: Наука, 1982, с. 132-141.

<sup>9</sup> Бегматов Э. Нутк маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асосланиши // Нутк маданиятига оид масалалар. - Тошкент: Фан, 1973, 166-167-б.

<sup>10</sup> Яна каранг: Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутк маданияти ва услубияти асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 10-б.

T.Qurbonov, A.Rustamov, A.Abdurahmonov, N.Mahmudov, T.Qudratov, Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo‘ldosheva, B.X.Rahmatullayeva, Sh.Iskandarovalarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan<sup>11</sup>.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.** Asosan, lingvokulturologik, sotsiolingvistik va qiyosiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va psixolingvistikaga oid izlanishlarni nazariy ma’lumotlar bilan boyitadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, lingvokulturologiya, psixolingvistika va gender tilshunoslikning tahlillari jarayonida foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvokulturologik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

**Ishning tuzilmasi tavsifi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, o‘n bir fasl, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 95 sahifadan iborat.

---

<sup>11</sup> Қаранг: Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, 5-сон; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-с; Хўжаева Л. Нотиклик саноати. - Тошкент, 1967; Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. - Тошкент: Фан, 1972; Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. - Тошкент: Фан, 1979; Иномхўжаев С. Нотиклик саноати асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982; Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асос-лари. - Самарқанд, 1985; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. - Тошкент, 1981; Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Тожиев Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асос-лари. - Тошкент, 1994; Раҳматуллаева Б. Х. Этикетке формқ обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Тошкент, 1992; Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф. - Самарқанд, 1993.

## **I BOB. OILADA MULOQOT XULQI MUAMMOSINING NAZARIY MASALALARI**

### **1.1-§. Oilada muloqot xulqi va unga yondosh tushunchalar**

“Til madaniyati”, “so‘zlash madaniyati” (“культура говорения”) atamalarini tilshunoslarning 20-30-yillardagi yozgan asarlarida ham uchratish mumkin. Keltirilgan atamalar ishlatilishida muayyan izchillik bo‘lishiga qaramasdan, ular anglatadigan tushuncha tilshunoslar tomonidan turlicha talqin qilib kelindi. Nutq madaniyati tushunchasining lisoniy, ilmiy, ilmiy-amaliy mundarijasi hozir ham izchil belgilangan emas. Shu sababli nutq madaniyati deganda nimani anglamoq kerak?

Til madaniyati deyish to‘g‘rimi yoki nutq madaniyati deyish o‘rinlimi? Balki ba‘zi tilshunoslar taklif qilayotganlaridek, nutq odobi va so‘z odobi atamalarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir?

Nutq madaniyati tushunchasi, uning asosiy mohiyati, ushbu tushunchaning yuzaga kelish davri, tadqiqot obyekti, boshqa lisoniy kategoriyalardan chegarasi hamda ish ko‘rish tarzi haqida fanda turli-tuman qarashlar, biri ikkinchisini inkor qiladigan fikrlar anchaginadir. Shu sababli juda ko‘pchilik tadqiqotchilarning haqli ravishda qayd etishlaricha, nutq madaniyati muammosini nazariy jihatdan asoslamasdan turib, bu sohada biror ilmiy muvaffaqiyatga erishish qiyin.

Xo‘sh, 20-30-yillarda “til madaniyati” deb atalgan, bugungi kunda “nutq madaniyati” deb yuritilayotgan atamalar qanday tushunchalarni ifodalaydi? Boshqa tillarda bu atamalarning qanday variantlari mavjud va bu atamalar orqali nimalar nazarda tutilmoqda?

Rus olimlaridan S.I.Ojegov bu haqda shunday yozadi: “Nutqiy odat tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutq egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birga, o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri, aniq va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham bo‘lishi kerak”.

O‘zbek tilshunosligida bu mavzu bo‘yicha izlanish olib borgan Sh.Iskandarova jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanilishi zarur bo‘lgan yoki talab etiladigan, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish va uni kerakli ohangda olib borish uchun ishlatiladigan turg‘un muloqot qoliplarining maxsus milliy kichik tizimlarini *nutqiy odat* deb va uni nutq madaniyatidan farqlash lozimligini ta’kidlab, shunday yozadi: “Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig‘indisi bo‘lsa, nut-qiy odat ma’lum millat vakillarining atrof-muhit, sharoitlar, urf-odatlar ta’sirida shakllangan bo‘ladi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun shaxs o‘z fikrini to‘g‘ri, ifodali va ta’sirchan holda yetkazish mahoratiga – san’atiga ega bo‘lmog‘i talab qilinsa, nutqiy odat birliklarini o‘rinli qo‘llash uchun o‘zaro muloqot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo‘lishi muhim emas.

Ishimizga nazariy jihatdan asos bo‘layotgan eng muhim ilmiy manbalardan biri - “Национально-культурная специфика речевого поведения” to‘plamida biz tadqiq etayotgan muammo “речевой этикет”, “речевое поведение”, “речевая коммуникация” deb yuritilgan. Oradan besh yil o‘tgandan keyin xuddi shu kitobning davomi sifatida chop etilgan “Национально-культурная специфика речевого общения народов СССР” kitobida esa bu tushunchalar “kommunikativnaya povedeniya” termini bilan almashtirilgan. Bu termin ostida muomalaning millat, hudud, kasb-kor, jins va boshqa ijtimoiy guruhlarga xoslangan ko‘rinishi nazarda tutilgan. Jumladan, “коммуникативная поведения азербайджанцев”, “коммуникативная поведения таджиков” kabi.

Biz bu atamani o‘zbek tilida shartli ravishda “muloqot xulqi” deb qo‘llashni ma’qul topdik. Chunki xalqaro terminga aylanib qolgan “kommunikatsiya” so‘zi o‘zbeklar nutqida “kommunikatsiya” va “muloqot” shaklida qo‘llanilgani holda, “поведение” o‘zbeklar nutqida ishlatilmaydi va bu so‘z axloq, xulq, fe’l-atvor, muomala, yurish-turish deb tarjima qilinadi. Bizning ishimizda bu so‘z axloq yoki namunali xulq ma’nosida emas, balki muomala tarzi, usuli ma’nosida qo‘llaniladi. “Muloqot xulqi” atamasi ishimizda ko‘p takrorlanishini inobatga olgan holda uni qisqartma - MX shaklida qo‘llaymiz.

Taniqli o‘zbek tilshunoslarining keyingi yillardagi bu mavzuga doir maqolalarida “nutqiy xulq” atamasining ishlatilayotganligi ham bizning yuqoridagi atamani noto‘g‘ri qo‘llamayotganligimizdan dalolat beradi.

Yevropalik qator yetuk tilshunos olimlar, xususan, Amsterdam (Gollandiya) universitetining professori, nufuzli lingvist Tayn A. van Deyk<sup>12</sup> MX masalasiga doir qamrovdor tadqiqotlari bilan biz o‘rganayotgan mavzuni teran tahlil qilgan. T.A.van Deyk zamonaviy lingvistik pragmatika, matn tushunchasi va paydo bo‘lishi, ommaviy axborot tizimida tilning tutgan o‘rni kabi masalalarni sotsiopsixolingvistik nuqtai nazardan tadqiq etib, muloqot vositalariga ijtimoiy, madaniy faktorlarning ta’sirini atroflicha analiz qiladi. Muallif “Язык. Познание. Коммуникация” (“Til.Bilish.Muloqot”) nomli fundamental kitobi ham biz tadqiqot mavzusi qilib olgan MX masalalarini yoritishimizda nazariy asos bo‘ldi.

XX asr oxirlariga kelib, MX lingvistika fanining e’tiborini o‘ziga bejiz jalb etmadi. Buning bir talay ijtimoiy sabablari bor. Biz o‘sha sabablar xususida qisqacha to‘xtalib o‘tishni joiz deb topdik. Avvalo, fikrimizni asoslash uchun ijtimoiy fanlar (tarix, falsafa, sotsiologiya) sohasida tom ma’noda inqilob yasagan olim Lev Nikolayevich Gumilyovning bu boradagi mulohazalarini keltiramiz: “G‘arbiy Yevropa superetnosining parchalanishi natijasida, ya’ni uning tarkibida passionar (fidokorlik) unsurlari keskin kamayib ketishi oqibatida xulq-atvor misli ko‘rilmagan hodisa - *reformatsiya* (XVI asrda katolik cherkoviga va Papa hokimiyatiga qarshi olib borilgan diniy yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy harakat - S.M.) davriga yuz tutadi. Superetnosning birligi darz ketdi... Har bir odam o‘ziga ma’qul kelgan xulq qoidasini tanlab oldi va boshqa odamlarga, atrof-muhitga, tabiatga munosabatini o‘sha xulq qoidalari asosida qayta qurdi”<sup>1</sup>. Ko‘rinib turibdiki, ijtimoiy hayotda ro‘y bergan hodisa tufayli superetnosning xulq-atvorida inqilobiy o‘zgarish bo‘ladi; yagona millat, yagona saltanat sifatida shakllangan G‘arbiy Yevropa xalqi ikkita muxolifat qutbga bo‘linib olib, imon-e’tiqod timsollariga qarshi, ayni chog‘da imon-e’tiqod uchun ayovsiz kurash boshlaydilar.

---

<sup>12</sup> Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация, с. 269,277.

Shu tariqa ijtimoiy xulqda tub burilish davri boshlanadi. Tub burilish esa ijtimoiy sabab tufayli ro'y beradi.

Sir emaski, XX asrning oxirgi choragiga kelib kommunikatsiya tizimida misli ko'rilmagan o'zgarishlar sodir bo'ldi: ommaviy axborot vositalari - matbuot, televideniye, radio ijtimoiy hayotda muhim o'rin egalladi. Lekin professor T. A. van Deykning e'tirof etishicha, "ommaviy axborot vositalari an'anaviy yo'sinda tadqiq qilingan chog'da ham, nisbatan zamonaviy tadqiqot jarayonida ham olimlarning diqqat markazidan chetda qoldi, unga diskursning maxsus vositasi sifatida e'tibor berilmadi". Vaholanki, ommaviy axborot vositalarining taraqqiyoti natijasida MX tizimida keskin o'zgarishlar paydo bo'lgan edi. O'z nufuzini, jamiyatdagi o'rnini saqlab qolishni istagan har qanday fan esa ijtimoiy hayotdan orqada qolmasligi lozim. Bu kabi obyektiv sabablar tufayli XX asr oxirlariga kelib, olimlar MX muammosiga alohida e'tibor bera boshladilar.

Biz quyida MX tizimida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan va hozirgi zamon lingvistika fanida e'tirof etilgan ayrim tushunchalar mohiyati to'g'risida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Referensiya - inglizcha *reference* so'zidan yasalgan atama bo'lib, obyektga munosabat, qandaydir obyektning nazarda tutmoq kabi ma'nolarni anglatadi. Bu so'zning atama sifatidagi ahamiyati falsafiy mantiqda lisoniy birikmalarning nolisoniy obyektlar (denotatlar, nominatlar, designatlar, referentlar) ga munosabatlari masalasi muhokama etilayotgan jarayonda shakllandi. Referensiya - bu, atoqli ot yoki atoqli otga doir iboraning gapga faol qo'shib, haqiqiy obyektga munosabat bildirish demakdir. Shu bois subyekt referensiyasi nutqning mantiqiy mazmunini belgilaydi, uning tom ma'nosini anglatadi. Tabiiyki, referensiya hodisasi doimo mantiqshunoslarning diqqat e'tiborida turgan. Keyingi paytlarda esa faylasuflarga, mantiqshunoslarga ko'pdan beri ma'lum bo'lib kelgan referensiya muammosi lingvistika fanida "yangi hayot" boshladi. Bu muammoga ikki xil munosabat yaqqol ko'zga tashlanadi. Jumladan, B.Rassel referensiyani mantiqiy, falsafiy xususiyatlardan holi, sof lingvistik nuqtai nazardan talqin qilmoqchi bo'ladi. Olimning fikricha, gapning sintaktik strukturasi har doim ham

mantiqiy mushohada yoʻnalishiga mos kelavermaydi. Shu bois gapni mantiqiy jihatdan toʻgʻri tahlil qilish uchun, avvalo, gapga mos keladigan adekvat mantiqiy tasavvur hosil qilishi kerak. Rasselning ilmiy xulosalari Oksford maktabining vakili boʻlmish P.Strosen tomonidan tanqid qilinadi. P.Strosen mantiqiy maʼnoga baho berilayotgan chogʻda nutqning kommunikativ jihatlariga alohida eʼtibor berish kerak, deb hisoblaydi. P.Strosen himoya qilayotgan pozitsiyani muxtasar shaklda quyidagicha ifodalash mumkin: referensiya - mantiqni belgilaydi, mantiq referensiyani belgilamaydi. Ayni paytda P.Strosen referensiya bittadan ortiq maʼnoni anglatishini ham inkor etmaydi. Xullas, har ikki yoʻnalish boʻyicha lingvistik tadqiqot olib borayotgan olimlar referensiya - bu, atoqli ot yoki atoqli otga doir iboraning gapga faol qoʻshilib, haqiqiy obyektga baho berish uchun muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qilishini eʼtirof etadilar. Faqat referensiyaning gapdagi mavqei masalasida bir toʻxtamga kelolmaydilar, xolos. Nufuzli chet el olimlari oʻrtasida referensiya muammosi ustida keskin bahs-munozaralar boʻlib oʻtayotgani ham MX va unga yondosh tushunchalar hozirgi zamon tilshunoslarining diqqat markazida turganini koʻrsatadi.

Pragmatik kontekst. Ingliz tiliga mansub boʻlgan pragmatics soʻzi anʼanaviy lingvistika fanida lisoniy tadqiqotlarning bir aspektini ifodalaydigan atama sifatida qabul qilingan edi. Inglizcha context, ispancha sontexto soʻzlari esa anʼanaviy lingvistika ilmida yozma nutqning muayyan tugal parchasi, unda ishlatilgan soʻz yoki iboralarning maʼnosini aniqlash mumkin boʻlgan gap boʻlagi (parcha) demakdir. Bu ikki soʻz birikmasidan yasalgan lingvistik termin zamonaviy tilshunoslik sohasida yangicha mazmun kasb etdi. T.A.van Deyk oʻz tadqiqotlarida pragmatik kontekst masalasiga alohida eʼtibor beradi. Olimning fikricha, pragmatik nazariya oʻz navbatida pragmatik talqin qoidalarini shakllantiradi<sup>13</sup>. Boshqacha qilib aytganda, pragmatik kontekstning oʻziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda har bir soʻz va iboraning gapdagi maqomi (statusi)ni belgilaydigan qoida yaratiladi. Yaʼni, pragmatik kontekst lingvistik problemlarni hal etish uchun ham, MX tizimida ham muhim ahamiyatga ega.

---

<sup>13</sup> Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация, с. 269,277.



So‘nggi yillar pragmatikaning nazariy masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar chop etildi. Ular orasida Daniyadagi Odens uiversitetining professori Jakob Mey (Jacob Mey) qalamiga mansub “Pragmatikaga kirish” (1993) nomli ishni qayd etish zarur. Unda pragmatikaning tushunchaviy apparati batafsil tahlil etilgan.

Kommunikativ vaziyat. Pragmatik kontekstni MX nuqtai nazaridan to‘g‘ri tahlil qilish uchun kommunikativ vaziyat (situatsiya) diqqat markazida bo‘lishi kerak. Kommunikativ vaziyat zamon va makon, milliy qadriyatlar kabi ijtimoiy mezonlar nuqtai nazaridan yondashilsa, MX tizimida o‘ta muhim tushuncha ekanligi ma’lum bo‘ladi. Biz o‘z ishimizni nazariy jihatdan asoslash uchun tez-tez murojaat qilib turganimiz - T.A.van Deyk kitobidagi pragmatik kontekst tahliliga bag‘ishlangan bo‘limda keltirilgan misolga e’tiborni jalb etib ko‘raylik: “Gavjum ko‘chada men notanish kishi bilan salomlashmagan bo‘lardim, biroq kimsasiz tog‘dagi yolg‘izoyoq so‘qmoqda notanish kimsani uchratib qolsam, salom-alik qilishim turgan gap”.<sup>14</sup>

Salom-alikning kommunikativ vaziyat bilan bevosita bog‘liqligi o‘tmish allomalarimizdan biri Muhammad Sodiq Koshg‘ariyning “Odob as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”) kitobida ham alohida ta’kidlangan: “...o‘n bir joyda salom bermagayki - makruhdur va javob lozim emas. Avval, hojatxonadagi kishiga. Ikkinchi, xotunig‘a mubosharat qilg‘on kishiga. Uchinchi, kishi uxlagan vaqtda. To‘rtinchi, hammomda junub (yuvinmagan)ga. Beshinchi, taom yeb turgan kishiga, agar taom og‘zida bo‘lmasa, salom joiz va lozimdur. Oltinchi, xatib (imom)g‘a xutba o‘qug‘on vaqtda. Yettinchi, muazzinga azon va iqomat aytib turg‘on vaqtda. Sakkizinchi, namoz o‘qub turg‘on kishiga. To‘qqizinchi, quroon o‘qib turg‘on kishiga. O‘ninchi, duo o‘qib turg‘on kishiga. O‘n birinchi, muhrim (hajda ehrom kiyuvchi) talmih etib turg‘on holda”.<sup>15</sup>

Bulardan ko‘rinib turibdiki, MX kommunikativ vaziyat bilan chambarchas bog‘liq holda shakllanadi va baholanadi.

---

<sup>14</sup> Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация, с. 269,277.

<sup>15</sup> Муҳаммад Содик Кошғарий. Одоб ас-салоҳин// Шарқ юлдузи, 1990, 5-сон, 90-б.

Kommunikativ strategiya. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da strategiya atamasiga: “1. harb. Yirik harbiy operatsiyalar va umuman urush olib borish san‘ati... 2. ko‘chma. Ijtimoiy-siyosiy kurashga rahbarlik qilish san‘ati va ilmi”<sup>162</sup> deb ta‘rif berilgan. Agar “izoh”da qayd etilgan ta‘rif asosida fikr yuritadigan bo‘lsak, “kommunikativ strategiya” atamasini lingvistikada “dahanaki jang” ma‘nosida tarjima qilishga to‘g‘ri keladi. Ajablanarli joyi shundaki, Toyn A. van Deyk ham tilshunoslik ilmiga doir strategiya masalasini “mayda millatlarning iboralari” - MX aspektida o‘rganadi: “Ushbu maqola Amsterdam universitetida “Niderlandiyada mayda millatlar to‘g‘risida suhbatlar” mavzusining bir qismi sifatida yozildi”<sup>3</sup>, deb alohida ta‘kidlaydi. Tadqiqotchining fikriga ko‘ra, Turkiya, Marokash, Surinam kabi mamlakatlardan G‘arbiy Yevropaga borib qolgan mayda millat vakillari o‘zlarini kamsitilganday his qiladilar va kommunikatsiya paytida noroziligini ochiqchasiga namoyon qiladilar. Shuning uchun jamiyatda ro‘y berib turadigan keskinliklarni yumshatish maqsadida T.An van Deyk: “Masalan, gapirayotgan odam *xushmuomalalik* strategiyasiga amal qilishi mumkin; bu strategiya qanday semantik ma‘nodagi so‘zlarni aytish kerakligini oldindan belgilab qo‘yadi...”<sup>4</sup> deb go‘yo vatandoshlariga oqilona yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi.

Xullas, kommunikativ strategiya MX tizimida nihoyatda muhim uzvlardan bo‘lib, uni hech qachon suiiste‘mol qilmaslik lozim.

Kommunikativ ssenariy. Italyan tilidagi “ssenariy” so‘zi pyesa syujetini va postanovkada ishtirok etadigan qahramonlar, ularning sahnaga chiqadigan payti va tartibini ko‘rsatadigan “reja” ma‘nosini anglatadi. MX tizimida ssenariy muhim nolisoniy kommunikatsiya vositalaridan biri hisoblanadi. “Madaniyatning qaysidir sohasiga mansub bo‘lgan qonun-qoidalar odamlar xotirasiga shunday bir shaklda muhrlanib qoladiki, kishilar o‘sha umumiy ssenariy asosida o‘zaro hamkorlik qilishi, muloqotga kirishuvi mumkin bo‘ladi. Bunday ssenariylar nisbatan o‘zgarmasdir; jamiyat a‘zolari tomonidan tez-tez qo‘llanib turilishligi bois ssenariylar semantik va ijtimoiy xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ana shunday

---

<sup>16</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - М.: Рус тили, 1981, 78-б.

xususiyatiga ko‘ra, faqat ehtiyoj tug‘ilgan paytdagina iste‘mol qilinadigan kundalik yangiliklardan, shunchaki axborotdan farq qiladi”<sup>17</sup>. Masalan, Farg‘ona vodiysida birorta eshikka sovchilikka borgan aqli raso odam aslo qalin to‘g‘risida so‘z ochmaydi. Chunki sovchi shu yerlik bo‘lsa, qalin tushunchasi Farg‘ona muhitida hal qiluvchi ahamiyatga ega emasligini juda yaxshi biladi va mahalliy urf-odatlar ssenariysiga amal qilgan holda bo‘lajak qudalar bilan muloqotga kirishadi. Xorazm vohasida istiqomat qiladigan kishilar uchun esa sovchi gapning “bismillosi” (“berdisi”) ni qalindan boshlasa ham, ajablanarli tuyulmasligi mumkin. Negaki, vohadagi urf-odatlar ssenariysi (mahalliy aholining mentaliteti) bu haqdagi gap-so‘zlarni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Demak, MX tizimida muhim nolisoniy hodisa hisoblanadigan kommunikativ ssenariy zamon va makon, milliy va mahalliy xususiyatlariga ko‘ra xoslanadi.

Kommunikativ andaza. Lingvistik atama sifatida qabul qilingan inglizcha “model” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “qolip, andaza” demakdir. Bizningcha, bu atamani o‘zbek tiliga “andaza (forscha) shaklida o‘g‘irgan ma‘qul. Chunki kiyim-bosh, poyabzal yoki boshqa shunga o‘xshash narsa bichish, tayyorlash uchun qalin qog‘oz, karton kabilardan yasalgan omonat shakl-shamoyil “andaza” ekani ko‘pchilikka ma‘lum. An’anaviy tilshunoslik fanida esa segment va supersegment unsurlarning murakkab lisoniy birikmalarda joylashish tartibi, muayyan nutq tizimidagi o‘ziga xos qonun-qoidalariga amal qilinsa, lingvistik nuqtai nazardan qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘ymaslik uchun ham model kerak bo‘ladi<sup>18</sup>. MX tizimida nolisoniy kommunikatsiya vositasi sifatida diqqat-e’tiborimizni jalb etgan kommunikativ andaza bo‘lsa, an’anaviy lingvistika fanida nazarda tutilgan aspektlardan boshqa ma’nolarni anlatadi. T.A.van Deykning fikricha, nutqni “hazm” qilish jarayonida kommunikativ andaza muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Nutqni tushunish uchun o‘tkinchi, aniqrog‘i, muvaqqat (omonat) andaza muvaqqat bilimga, xotiraga poydevor yaratadi.<sup>19</sup> Masalan, Nosirxon ismli bir yigit

---

<sup>17</sup> Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация, с. 140.

<sup>18</sup> Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. - М.: Советская энциклопедия, 1969, с.238.

<sup>19</sup> Ван Дейк Т. А. Язык. Познание. Коммуникация, с. 88.

Margʻilondagi bitta toʻyda rosa “gul bazmi” boʻlganligi haqida bizga xabar beradi. Darhol oʻzimizni oʻsha toʻyda oʻtirgandek tasavvur etamiz. Chunki Nosirxonning maʼlumoti tufayli bizda toʻydagi vaziyat toʻgʻrisida qisman boʻlsa-da, tasavvur hosil boʻladi. Qolaversa, oʻzimiz ham boshqa joydagi toʻylarda shunday “gul bazm”larining guvohi boʻlganmiz. Demak, shaxsiy tajribamizdan va kundalik xabardan shuurimizda muayyan informatsiyani qabul qilish uchun andaza yaratiladi (yasaladi). Andaza bizning tushunish jarayonimizda asosiy vosita boʻlib xizmat qiladi. Aksariyat hollarda andaza adresatga yoʻnaltirilgan boʻladi. MX tizimida kommunikativ andaza, sirdan qaralsa, aynan kommunikativ ssenariyga oʻxshab ketadi. Lekin MXning bu ikki yondosh tushunchalari bir-biridan davriyligi - zamon (kommunikativ ssenariy xotirada bir umr saqlanib qolsa, kommunikativ andaza maʼlum vaziyatda xotirada tiklanadi-yu keyin unga ehtiyoj tugʻilmasa, butunlay oʻchib ketishi mumkin) nuqtai nazaridan farqlanadi va xoslanadi.

Umuman olganda, MX va unga yondosh tushunchalar mohiyatini chuqur anglamay turib bu haqda fikr yuritish ham, ilmiy izlanish olib borish ham mumkin emas.

### **1.2-§. Oilada milliy xarakter va muloqot xulqi**

Muloqot xulqi (MX) muammosini milliy xarakter - millat aholisining oʻziga xos urf-odatlarini, qadriyat va anʼanalarini hisobga olmasdan turib oʻrganish mutlaqo mumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi boʻlib, ular bir-biri bilan chambarchas bogʻliqdir.

Milliy xarakter deganda, maʼlum ijtimoiy guruh (millat - S.M.) oʻrtasida asrlar mobaynida avlodan-avlodga oʻtib kelgan oʻziga xosliklar majmui tushuniladi. Milliy xarakterga mazkur millat aholisi sigʻinadigan din, atrof-muhit va ijtimoiy turmush tarzi jiddiy taʼsir koʻrsatadi va bu taʼsir oʻz-oʻzidan MX da namoyon boʻladi<sup>20</sup>.

---

<sup>20</sup> Сухарев В. А. Характер, поведение и деловые качества народов мира // Этика и психология делового человека. - М.: Гранд, 1997. С. 119.

Dinning MX ga ko'rsatadigan ta'siri, ularni bir-biridan ajratib bo'lmashligi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ko'pgina asarlarida, ayniqsa, "Turkiston-press" axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida alohida e'tirof etildi: "...biz o'z millatimizni mana shu muqaddas dindan ayrim holda aslo tasavvur qila olmaymiz. Diniy qadriyatlar, islomiy tushunchalar hayotimizga shu qadar singib ketganki, ularsiz biz o'zligimizni yo'qotamiz. Xoh yosh bo'lsin, xoh keksa bo'lsin, har bir o'zbek nimagaki munosabat bildirmasin, albatta uni beixtiyor Yaratuvchining nomi bilan bog'laydi. Har bir so'zimizni, ishimizni bismillo aytib boshlaymiz, yaxshi-yomon kunlarimizda xudoga shukrona keltiramiz, tavba qilamiz. "Shukur" degan kalomni har kuni aytmaydigan inson O'zbekistonda bormikan o'zi! Bilsangiz kerak, payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ham "shukur" va "tavba" degan so'zlarni eng ko'p ishlatar ekanlar..."<sup>21</sup>.

Bu haqdagi fikrini davom ettirar ekan, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ijtimoiy muhit ta'sirida hatto dindan chuqur xabardor bo'lmagan odam ham diniy urf-odatlarsiz, islomiy tuyg'usiz yashay olmasligini, musulmonchilik, Ollohga, dinga munosabat ba'zi milliy qadriyatlarda ham yaqqol ko'rinishligini, har bir musulmon o'zbekistonlik ularga beixtiyor rioya qilishligini alohida ta'kidlaydi: "Hammamizga tanish bir manzarani eslaylik. Ko'chadan tobut ko'tarib borilyapti. Duch kelgan yo'lovchi - u piyodami, mashinadami yoki otdami - darhol yugurib kelib tobutga yelkasini tutadi. Kamida yetti qadam uni ko'tarishib boradi. Marhumni taniydimi-tanimaydimi, bundan qat'iy nazar, Xudo rahmat qilsin, deya yuziga fотиha tortadi... Eng muhimi, biz bu ishlarni namoyish uchun emas, imonimiz, e'tiqodimiz amri bilan ado etamiz..."<sup>22</sup>.

Yer yuzi tabiati naqadar rang-barang va xilma-xil bo'lsa, unda yashovchi aholining etnik tuzilishi ham shu qadar turli-tumandir. Yuqorida sanab o'tilgan omillar ta'sirida har bir millatning alohida bo'rtib turadigan o'ziga xos xarakter xususiyatlari bo'ladi. Turli millat vakillari o'rtasida bo'ladigan o'zaro muomala

---

<sup>21</sup> Каримов И. А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда//Халқ сўзи, 1999, 6 март.

<sup>22</sup> Каримов И. А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда//Халқ сўзи, 1999, 6 март.

chog'ida bu kabi jihatlarni inobatga olmaslik turli tushunmovchilik, kelishmovchilik, hatto to'qnashuvlarni yuzaga keltirib chiqarishi mumkin.

Bu haqda V.A.Suxarev o'zining "Ishbilarmon kishining etika va psixologiyasi" nomli kitobida g'arbiy Yevropa dorishunoslik kompaniyasi faoliyatida ro'y bergan bir hayotiy misolni keltiradi. Unda kompaniya Yevropa mamlakatlarida yaxshigina xarid bo'lgan og'riq qoldiruvchi preparatni arab davlatlariga ham sotish uchun olib borgani, ammo dastlabki kunlari arab xalqlari bu preparatni umuman sotib olmaganlari haqida hikoya qilinadi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, hamma ayb kompaniya preparatni reklama qilishda arab xalqlari milliy o'ziga xosligini inobatga olmaganligida ekan. Chunki uchta rasmdan iborat reklamaning birinchisida ayol kishining og'riqdan baqirayotgani, ikkinchisida preparatni qabul qilayotgani, uchinchisida esa darddan forig' bo'lib, yaxshi kayfiyatda turgan holati tasvirlangan va bu rasmlar yevropaliklar udumiga ko'ra chapdan o'ngga qarab ko'riladigan qilib qo'yilgan ekan. O'ngdan chapga qarab yozadigan arablar rasmlarni ham shunday tartibda ko'rganliklari uchun kompaniya reklamasi ularga mutlaqo teskari ma'lumot bergan va shuning uchun ular preparatni sotib olishmagan ekan<sup>23</sup>.

Shunga o'xshash voqea o'zbek va boshqa millat kishilari hayotida ham bo'lib turadi. Bir do'stimiz Farg'ona shahrida bo'lib o'tgan bir voqeani shunday hikoya qilib bergan edi: "Uyimizda rus millatiga mansub televizior tuzatadigan usta ishlayotgan paytda kutilmaganda hiqichoq tutib qolibdi. Dadam rus ustaga "nima o'g'irlading?" degan ekan, u: "men senga yaxshilik qilgani kelsam, sen meni o'g'ri qilding", - deb televizorni tuzatmay chiqib ketibdi. Dadam bizning odatimiz shunday, desa ham, u yolg'on gapiryapsan, deb ishonmapti..." Ma'lumki, o'zbeklarda hiqichoq tutayotgan kishiga "nima o'g'irlading?" deb qo'yish odati bor. Qo'qisdan shunday deyilsa, hiqichoq birpasda bosilib qoladi va kulgi ko'tariladi. Buni bilmaslik esa o'zaro tushunmovchilikni keltirib chiqargan.

Nolisoniy vositalarni qo'llashda ham milliy o'ziga xosliklar ko'p kuzatiladi. Jumladan, "shunday imo-ishoralar borki, ular shartli xarakterga ega bo'lib, milliy

---

<sup>23</sup> Сухарев В. А. Этика и психология делового человека. с. 120-121.

xususiyatlar kasb etishi mumkin. Chunki u jamoa tomonidan ma'lum ma'noni ifodalash simvolidir. Boshqa bir jamoada esa bu ishora yo hech qanday kommunikativ vazifa bajarmaydi yoki boshqa ma'noni anglatishi mumkin. Masalan, "xayr" ma'nosini ifodalash uchun ruslar kaftini o'zidan orqaga qilib vertikal holatda takror-takror silkitsa, italyan kaftini o'ziga qaratib vertikal holatda silkitadi"<sup>24</sup>.

Salomlashish jarayonida Yevropa xalqlari bir-birlarining o'ng qo'llarini siqadilar, Hindistonda salomlashish belgisi sifatida ikki kaftini yuz oldida juftlashtiradilar, eskimoslar esa salomlashish uchun bir-birlarining burunlarini ishqalashadi. Qadimgi Xitoyda esa yuqori tabaqa vakillari uchrashganda har biri o'z o'ng qo'li bilan chap qo'lini siqqan ekan<sup>25</sup>.

Quyida o'zbek milliy xarakteri uchun xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

O'zbek xalqi asrlar mobaynida o'ziga xos xilma-xil urf-odatlar va marosimlarni yaratdi. Avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, asrlar davomida bir makonda aralash yashab kelgan Markaziy Osiyo xalqlarining an'analari va urf-odatlarida o'xshashliklar ko'p. Turli tarixiy davrlarda O'zbekistonning tub yerli turg'un aholisiga kelib qo'shilgan qabila va elatlar o'troqlashib, o'zbeklarning udumlarini qabul qilganlar va unga o'z hissalarini qo'shganlar.

Qadimdan an'ana bo'lib kelgan hashar, mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish o'zbeklar xarakterining eng muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Hasharning oilaviy, qo'ni-qo'shnilar, mahalla-ko'y va hatto mamlakatlar miqyosida o'tkaziladigan turlari mavjud. Oilaviy hasharlar ko'pincha imorat tiklash ishlarida qavm-qarindoshlar ishtirokida o'tkaziladi. Qo'ni-qo'shnilar o'rtasida bo'ladigan hasharlarda ko'pgina dala ishlari, ekin-tikin, uy qurish, hovli devorini ko'tarish, to'y-hasham ishlari bajariladi. Odatda, hasharga aytilgan kishilarning kelishi shart bo'lgan. Uzrli sabab bilan kelolmay qolgan kishi

---

<sup>24</sup> Нурмонов А. Ўзбек тилининг паралингвистик воситалари ҳақида. - Андижон, 1980, 10-б.

<sup>25</sup> Александров А. Пожмем друг-другу руки. // Новая строителрная газета, 1992, № 16.

hasharchilar uchun taom pishirib chiqargan yoki keyinchalik fursat topib, bir kun ishlab bergan.

Sharq xalqlarimizda, jumladan, o‘zbek xalqida mehmondorchilik odati ham keng tarqalgan.

Ibtidoiy (urug‘chilik) davrida shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog‘liq bo‘lganligidan barcha ijtimoiy-iqtisodiy bosqichlarni o‘tib hozirga qadar yetib kelgan.

Mehmon odatda mehmonxona (mehmon kutib olish uchun qurilgan maxsus xona) yoki uyning to‘risiga o‘tkaziladi.

Mehmon begona kishi bo‘lishi ham mumkin. Bunday mehmon ko‘pincha mo‘ljallangan manzilga yetolmay, kech-qorong‘uda qolgan, qor-bo‘ronga uchragan, yo‘ldan adashgan bo‘ladi. Qishloqqa (mahallaga) kelgan yo‘lovchi to‘g‘ri kelgan uy oldiga to‘xtab, eshigini qoqqan. Uy sohibi chiqqach, “mehmon qabul qilasizmi?” deb so‘raydi. Mezbon “mehmon atoyi xudo” - “mehmon xudo ato etgan kishi, albatta qabul qilamiz”, deb u bilan ko‘rishgach, uyga taklif qiladi. Agar xonadon sohibining uzrli sababi (azadorlik, og‘ir bemor kishisi va h.k.) bo‘lsa, o‘z uzrini aytib, “boshqa xonadondan iltimos qiling” qabilida javob qilingan. Kelgan mehmondan mazkur xonadon sohiblari oldinlari ko‘p yomonlik ko‘rgan bo‘lsalar ham baribir mehmondorchilik udumiga rioya qilinavergan<sup>26</sup>. Shuning uchun ham o‘zbeklarning mehmon kutish va kuzatishdagi o‘ziga xosliklari to‘g‘risida o‘nlab maqola va kitoblar yozilgan<sup>27</sup>.

Kattalarni hurmat qilish Sharq xalqlarining, jumladan, o‘zbeklarning qadimiy udumlaridan biri bo‘lib, bu odat ibtidoiy jamoa tuzumi davridan davom etib kelmoqda.

Bulardan tashqari, nonni e‘zozlash, yoshlarni izzat qilib, ularni odob-axloq ruhida tarbiyalash, tabiatni ko‘z qorachig‘iday asrash kabi odat va qadriyatlar ham o‘zbeklar xarakterining muhim qirralaridir.

---

<sup>26</sup> Ўзбекистон Республикаси: Энциклопедий. - Тошкент: Қомуслар Бош тахририяти, 1997, 589-б.

<sup>27</sup> Ўзбек меҳмоннавозлигининг нафосати, одоб ва эотикодий томонлари тўғрисида қаранг: Маҳмудов К. Меҳмоннома. -Тошкент: Ёш гвардия, 1989.



O‘zbek xalqida insonning o‘limi va dafn marosimlari odatlari bilan bog‘liq bir qancha marosimlar bo‘lib, yig‘i marosimi MX bilan juda yaqinligi uchun u haqda qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Ko‘p yerlarda, ayniqsa, qishloq joylarda yig‘i marosimi odat tusiga kirgan bo‘lib, o‘ziga xos tartibda o‘tadi. Ayollar yakka tarzda yoki bir-birlari bilan ko‘rishib yoki davra qurib o‘tirib (ko‘pincha tik turib) yig‘laydilar. Odatda, qishloqda, shahar mahallalarida aza qo‘shig‘ini aytuvchi yig‘ichi (go‘yanda) ayollar bo‘lgan. Ta’ziya marosimida yig‘ini go‘yanda boshlaydi. Aytuvchi o‘rtaga tushadi va vafot etganning belbog‘i, marhum ayol kishi bo‘lsa ro‘molini bo‘yniga tashlab, uning yaxshi xislatlarini, tirikligida qilgan ishlarini yaqinlari tilidan ta’sirli qilib aytib yig‘laydi.

Yig‘ining ikkinchi ko‘rinishi sadr (sadr tepish) nomi bilan ma’lum. Bunda marosimga yig‘ilgan ayollar tik turib, davra qurib yig‘laydilar. Aytuvchi davraning o‘rtasida bo‘ladi, u bilan davra ichida shu xonadonning alamzada ayollaridan biri (onasi, xotini, qizi va b.) ham bo‘lgan. Ko‘p joylarda, masalan, O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida erkaklar ham sadr tepganlar. Ammo boshqa viloyatlarda sadr tepish kam uchraydi<sup>28</sup>. Bu masalada qishloq va shaharning anchagina farqi bor. Yaoni erkaklar tomonidan sadr tepish, marhum yotgan xonaga “otam-ma”, “onam-ma”, “akam-ma” va h.k. deb yig‘lab kirish ko‘proq qishloqliklar udumiga mos bo‘lib, shaharlarda bunday odat deyarli uchramaydi<sup>29</sup>.

O‘zbek xalqi hayotida amal qilinadigan tartib va qoidalar xalq an‘analari hamda islom dini va shariat asosida yuzaga kelgan, albatta. Chunki odob-axloqqa oid kitoblarda ham, kattalar tomonidan yoshlarga qilinadigan pand-nasihatlarda ham muqaddas Qur’oni karim, Hadisi sharifga tayanilgan. Jumladan, XIX asrning boshlarida Muhammad Sodiq Koshg‘ariy o‘zining “Odob-as-solihin” (“Yaxshi kishilar odobi”) kitobida bu haqda shunday yozadi. “Bas, tolibi sodiqlar... odobi zohiriy va odobi botiniyni bilib, anga amal qilmoqlari lozim keldi, toki bular ham talabi suluk (yo‘l)larini foyda topib, ulug‘lar martabalariga yetgaylar va

<sup>28</sup> Ўзбекистон Республикаси: Энциклопедия, 546-б.

<sup>29</sup> Яна қаранг: Насриддинов Қ. Ўзбек дафн ва таозия маросимлари.-Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1996. 35-51-бетлар.

ushbu nusxada zaruriy odobi zohir va botiniy kutubi mo‘tabarlari (mo‘tabar kitoblar)din jamo qilindi...”<sup>30</sup>.

Bundan musulmon xalqlari axloqiga islom dini qonun-qoidalari mazkur kitobga o‘xshash adabiyotlar orqali singdirib borilgani maolom bo‘ladi. Jumladan, ushbu kitob birinchi bob, birinchi faslida kishilar huzuriga kirmoqlik odobi xususida so‘z yuritilib, quyidagilar bayon qilinadiki, ularning hammasi islom dini qonun-qoidalari bilan bevosita bog‘liqdir: “...har kim bir kishining eshigiga borib kirmak istasa, avval ul kishiga o‘zining kelganini eshikni orqasidan bildirg‘ay, ushbu tariqadagi, eshikni ohista qoqg‘ay yo so‘rfa qilg‘ay (yo‘talgay). ... agar ovoz chiqsa, eshikni orqasidin anga salom berib, ayg‘ayki: “Ichkari kiraymu?” Bu izn tilamoq to uch marotabag‘achadur. Har izn tilagandan so‘ng to‘rt rakaat namoz o‘qumoq miqdori tavaqquf qilg‘ay (ya'ni kutib turg‘ay)”<sup>31</sup>.

Bu o‘rinda yo‘qlab kelingan mezbon chaqirilgan paytda namoz o‘qiyotgan bo‘lishi mumkinligi inobatga olinib, to‘rt rakat namoz o‘qimoq vaqt o‘lchov birligi sifatida keltirilmoqda.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, milliy xarakter va ijtimoiy muhit faqat din ta’siridagina shakllanib qolmay, unga atrof-muhit, ya'ni ijtimoiy ekologiya ham ancha kuchli ta’sir etadi.

### **1.3-§. Oilada ota-ona muloqotida so‘zning belgilik va semantik tabiatiga munosabat**

Oilaviy muloqot deganda biz ma’lum bir oila a’zolari munosabatida sodir bo‘luvchi har xil turdagi xabarlarni; ma’lumotlar, his-tuyg‘ularni og‘zaki nutq yoki og‘zaki bo‘lmagan vositalar yordamida amalga oshirish jarayonini tushunamiz. Oilaviy muloqotning samarali tus olishida uning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan oila vakillari nutqida faol uchraydigan murojaatning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, har bir oila muloqotida uning a’zolari uchungina taalluqli bo‘lgan oilaviy murojaat

---

<sup>30</sup> Мухаммад Содик Кошғарий. Яхши кишилар одоби // Шарқ юлдузи, 1990, 5-с., 89-б.

<sup>31</sup> Мухаммад Содик Кошғарий. Яхши кишилар одоби // Шарқ юлдузи, 1990, 5-с., 89-б.

namunalari, me'yorlari, o'zaro ishonch va tasavvurlarni ifoda etuvchi etiqod shakllangan bo'ladi.

Muloqot jarayonida adresatga to'g'ri murojaat qila olish bu inson nutqining eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Murojaatning har qanday turi uni faqatgina qabul qiluvchisiga yetkazishni tashkillashtirishdan iborat bo'libgina qolmay, balki odob-axloq me'yorlariga rioya etgan holda suhbat chog'ida adresat bilan og'zaki nutqni mazmunli va samarali tus olishiga zamin yaratishdan iboratdir.

Oila instituti tadqiqi allaqachon ko'plab sohalarda o'rganilgan bo'lsa-da, tilshunoslar so'nggi yillarda oilaviy munosabatlarni muayyan misollar, izchillik va qiziqish bilan tadqiq qila boshladilar.

Hammaga ayonki, oila instituti shakllanishi uzoq tarixiy davrlarni o'z ichiga qamrab oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Har bir davr, har qaysi millatda ham oilaviy masalalar, unda istiqomat qiluvchi vakillar orasidagi munosabatlar o'sha jamiyatning turli sohalarda rivoj topishidagi tayanch poydevori bo'lgan. Bundan ma'lum bo'ladiki, oila jamiyatning ajralmas bo'lagi, yurt taraqqiyotining asosidir.

Oilaviy muloqot va oilaviy munosabatlarda murojaatning o'rniga e'tiborni qaratishdan avval oila so'zining lug'aviy ma'nosini ikki noqardosh madaniyat vakillari izohlari yordamida ko'rib chiqish o'rinlidir.

A.Madvaliev tahriri ostidagi "O'zbek tilining izohli lug'ati" da "oila" atamasiga shunday ta'rif beriladi: "Oila- [ arab. عائلةbola-chaqa, xonadon; urug'-avlod]

1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon. Ahil oila. San'atkorlar oilasi. Oila boshlig'i.

2. Rafiq, xotin. Oilam maktabda o'qituvchi".

K. Najmidinova jamiyatda oilaning ma'naviy-axloqiy holatini kuzatgach, o'z

monografiyasida shunday fikr yuritadi: "Oila – nikoh munosabatlarini, urug' ichi

munosabatlari va urug‘lararo munosabatlarni tartibga solish zaruriyati bilan yuzaga keladi. Oila jamiyatning tayanchi, uning birinchi va birlamchi yadrosi, zarrasidir. Ongli oila bo‘lib yashash dunyodagi barcha maxluqot va jonzotlar orasida faqat inson zotiga xosdir”.

Oila bu er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasida shakllangan o‘zaro munosabatlarning aniq tarixiy tizimi, psixologik nuqtai nazardan bu kichik bir jamoa bo‘lib, uning a‘zolari bir-biri bilan qarindosh urug‘chilik va nikoh orqali bog‘langan bo‘ladilar. Oilaning bo‘lishi jamiyatni, aholini jismonan va aqlan kamolotiga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi.

Nutqda so‘zga shunchaki belgi va ma’no anglatuvchi leksik birlik sifatida munosabatda bo‘lish mumkin. Bu munosabatlarning ijtimoiy-lisoniy aspektlari haqida fikr yuritishdan avval so‘zning belgilik va leksik ma’no anglatishlik jihatlari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Tilning belgi ekanligini birinchi marta ilmiy asoslab bergan olim Ferdinand de Sossyur o‘zining “Umumiy lingvistika kursi” nomli asarida har bir so‘zda ikki tomon mavjudligini qayd etadi: ifodalovchi (oznachayuo‘yeye) va ifodalanuvchi (oznachayemoye). F.de Sossyur tushunchani ifodalanuvchi, akustik obrazni esa ifodalovchi deb ataydi. Ifodalovchi va ifodalanuvchining dialektik birligidan lingvistik ramz yuzaga keladi. F.de Sossyur lingvistik ramz (nom)ning ikki xususiyatini alohida ajratib ko‘rsatadi. Bu xususiyatlardan biri lingvistik ramzning ifodalovchisi bilan ifodalanuvchisi orasidagi bog‘lanishga tegishli. F.de Sossyurning yozishicha, so‘zning ifoda plani akustik obrazi uning ma’nosi, ya’ni ifodalanuvchi bilan hech qanday bog‘liq emas, balki u ixtiyoriydir. Shu tariqa F.de Sossyur til belgisining eng asosiy prinsipi sifatida ixtiyoriylik (proizvolpnostp) prinsipini o‘rtaga tashlaydi. Masalan, deydi u, sestra (opa) tushunchasi yuqoridagi tovushlar kompleksi (s-ye-s-t-r-a) bilan bevosita bog‘liq emas. Uni boshqa har qanday tovushlar kompleksi orqali ifodalash mumkin edi<sup>32</sup>. Lekin bundan tildagi ramzlar (nomlar)ning hammasi yoppasiga shartli bo‘ladi, degan xulosa kelib

---

<sup>32</sup> Соссюр Ф. де. Трудк по язккознанию. - М., 1977, с. 100-101.

chiqmaydi. Har bir yangi tushunchani ifodalash uchun mavjud soʻzlardan u yoki bu maʼnoda foydalaniladi. Ammo yangi tushunchani ifodalash uchun tanlangan soʻz tasodifiy emas. U yangi tushuncha va mavjud soʻz oʻrtasidagi qonuniy aloqa tufayli sodir boʻladi. Bu aloqa A. Potebnyaning koʻrsatishi boʻyicha, mavjud tushuncha mohiyati (soʻzning mavjud maʼnosi) va yangi tushuncha oʻrtasidagi umumiy belgilar asosiga quriladi<sup>33</sup>. Umuman olganda, har bir soʻz oʻziga xos leksik maʼno anglatadi va bu maʼno ifodalanuvchining mohiyatini u yoki bu darajada namoyon etish uchun xizmat qiladi. Ammo kommunikatsiya jarayonida soʻzning ichki formasi (asl maʼnosi, motivi)ni bilish har doim ham muhim boʻlavermaydi. Jumladan, “pichoq” soʻzini qoʻllagan kommunikant bu soʻz “bichmoq” feolidan kelib chiqqanligini bilmasligi mumkin. Bu, ayniqsa, bolalar nutqi uchun xosdir. Chunki endigina tili chiqayotgan bola uchun soʻz faqat belgilik vazifasini oʻtaydi: non, suv, osh, ber kabi soʻzlarni ilk bor talaffuz etayotgan bola ularning soʻz deb atalishligini, ularning bir-biridan farqli maʼnolar anglatishligini tasavvur ham etolmaydi. Shuning uchun kattalar bolalarga soʻzlarning shaklini istagan holda oʻzgartirib (bolalar talaffuziga moslab) oʻrgatishni zararli deb hisoblamaydilar.

Olimlarning fikriga qaraganda, bola 5-6 yoshga yetganda butun umr davomida oʻrganishi lozim boʻlgan soʻzlashuv uslubiga xos faol leksikaning deyarli yarmini oʻzlashtirib oladi. Biroq bu paytda va undan kattaroq yoshda bolalar uchun soʻz faqat belgi sifatida qolaveradi. Masalan, oʻrtoqlari bilan urushib qolgan bolalar bir-birlarini kattalardan eshitib olgan turli soʻzlar bilan oʻzlaricha soʻkayotgan paytlarida soʻkish uchun qoʻllayotgan soʻzlarning faqat bir jihatini - soʻkish vositasi jihatinigina biladilar, xolos. Sherigini “jinni” deb soʻkayotgan bolaga “Toʻgʻri, u jinni, sen sogʻsan-a?” deb sal kinoyalibroq ohangda gapirsangiz, u “yoʻq”, sogʻmasman, men falonchiman” deb ismini aytish hollari koʻp uchraydi. Bundan ayon boʻladiki, bola “jinni” soʻzining ham, “sogʻ” soʻzining ham maʼnosini bilmaydi. Muhimi shundaki, insonning nutq faoliyatida bu bolalik

---

<sup>33</sup> Потебня А. А. Из записок по русской грамматике//Звегинцев В. А. История языкознания XIX-XX веков в очерках и извлечениях. Часть 1, М., 1964, с. 145-146.

tabiati hatto bir umr davom etishi mumkin. Aks holda, hatto yoshi ulug‘ kishilar o‘z farzandlarini hech qachon “qiztaloq”, “badbaxt”, “itvachcha”, “xaromi” kabi juda ham xunuk so‘zlar bilan so‘kmagan bo‘lar edi.

Nutqda so‘zga belgi sifatida munosabatda bo‘lish tufayli ba’zi xunuk so‘zlar hatto erkalash ma’nosida qo‘llash hollarini ham kuzatamiz. Masalan, yaqin tanishlarining ba’zi ishlariga qoyil qolgan kishilar “voy, bachchag‘ar-yey, voy, enag‘ar-yey, boplabdi-ku!” deb qo‘yishadi.

Muloqot jarayonida so‘zga belgi sifatida munosabatda bo‘lish faqat salbiy ma’no anglatadigan so‘zlarga nisbatangina bo‘lmay, balki har qanday til birligiga nisbatan ham bo‘lishi mumkin. Masalan, radio va televideniya militsiya xodimlari o‘z nutqlarida “ayrim mulohazalarga ko‘ra, hozircha jinoyatchilarning ismu shariflarini aytmaymiz” degan jumlaning qo‘llab yuborishadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, ular “ismi sharif” izofali birikmasining ma’nosini bilmaydilar. Chunki “ismi sharif” sharaflilik nom degan ma’noni anglatib, aslida ulug‘ kishilarning ismlariga nisbatangina bu jumlaning qo‘llash mumkin.

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘lishicha, nutqda so‘zga belgi sifatida munosabatda bo‘lish ko‘pincha so‘z ma’nosini bilmaslik oqibatida ro‘y beradi<sup>34</sup>. Bunday holat ko‘proq o‘zlashma so‘zlarga munosabatda ko‘rinadi. Masalan, aslida arabcha bo‘lib, uchrashuv ma’nosini anglatadigan taloq so‘zi o‘zbeklar nutqida ajrashuv, xotin qo‘yish ma’nosida, ko‘ruvchi ma’nosini anglatadigan basir so‘zi esa ko‘r (ko‘rmovchi) ma’nosida qo‘llanadi<sup>35</sup>. Bugungi kunda qariyb hamma taklifnomalarda “lutfan taklif etamiz” deb yozishadi. Bu esa “siz taklifga arzimadingiz-u, ammo men lutf qilib (mehribonlik, marhamat ko‘rsatib, olijanoblik qilib) sizni chaqiryapman” degan mazmuni beradi. Aslida, “sizning lutfan tashrif buyurishingizni so‘raymiz” deyilsa, adresant kamtarlik qilgan bo‘ladi. Xuddi shunga o‘xshash ba’zan “falon joyga qadam ranjida qildik” degan gaplar ham qulog‘imizga chalinib qoladi. Aslida, bu ham noto‘g‘ri. Chunki

<sup>34</sup> АҚШ социолингвистикасида бу масалалар “маданий саводхонлик” тушунчаси билан боғлиқ ҳолда ўрганилади. Қаранг: Aziz B. Djuraev and E. D. Hirsch, Jr. Enhancing Literacy in Central Asia: The Example of Uzbekistan//The Core Knowledge Foundation Charlottesville, Virginia 22903, 1996, Occasional Paper No.4, 1-8.

<sup>35</sup> Тошкент области ўзбек шевалари. - Тошкент: Фан, 1976, 95-б.

“qadam ranjida qilish” oyoqlarimizga ozor berib keldik, degan mazmuni anglatadi. Demak, bu gap mehmonlar tomonidan emas, mezbolar tomonidan “qadam ranjida qilibsizlar, rozi bo‘linglar” deyilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Tilimizga o‘zboshimchalik bilan kirib qolgan bunday “chaqirilmagan mehmon”larga qalamkashlar tomonidan haqli ravishda e‘tiroz bildirildi<sup>36</sup>.

So‘zga belgi sifatida munosabatda bo‘lish, uning asl ma‘nosini bilmasdan qo‘llash atamashunoslik sohasida ham ko‘zga tashlanmoqda. Bugungi kunda institut, universitetlarni “oliygoh”, fakulptetni “kulliyot”, aeroportni “tayyoragoh” deyuvchilar ham uchrab turibdiki, bu so‘zlarning birortasi ham ma‘no jihatdan nisbat berilayotgan oboyektga mos kelmaydi. Jumladan, “kulliyot” Alisher Navoiy davrida bir turdagi narsalarning yig‘indisi, shoirning to‘la asarlari to‘plami ma‘nosini anglatgan va hozir ham uning ma‘nosi o‘zgarmagan. Demak, bu so‘zning fakulptetga hech qanday aloqasi yo‘q.

Mashhur o‘zbek shoiri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li o‘ziga tasavvufiy ma‘noda firoq, ya‘ni ayriliq, hijron, judolik degan ma‘noni beradigan Furqat degan taxallusni tanlagan. Farzandlariga shoir tahallusini ism qilib qo‘yayotganlarida otalar bu so‘zning asl ma‘nosini bilmay ish tutadilar. Ular bu o‘rinda faqat bir narsani - mashhur shoirnigina nazarda tutadilar.

O‘zbeklar nutqida taqlidiy so‘zlarga ham belgi sifatida munosabatda bo‘lish hollari kuzatiladi. Bunda shartlilik tamoyiliga amal qilinadi. Chunonchi, “har kim bir kishining eshigiga borib kirmak istasa, avval ul kishiga o‘zining kelganini eshikni orqasidan bildirg‘ay, ushbu tariqadaki, eshikni ohista qoqq‘ay...”<sup>37</sup>. Bu holat hozirgi o‘zbek tilida “eshikni kimdir taqillatdi” deb aytiladi. Holbuki, eshik materialining turi (temirdan, taxtadan va hokazodan bo‘lishi)ga ko‘ra taqillashdan tashqari, shaqillashi, tikkillashi, qarsillashi ham mumkin. Biroq hech qaysi o‘zbek “eshikni kimdir shaqillatdi” yoki “tikkillatdi” deb aytmaydi. Shuningdek, telefon

---

<sup>36</sup> Мисол учун қаранг: Қаҳҳорова К. Мумкинми, жоиз? //Ўзбекистон адабиёти ва саноати, 1992, 10 апрел; Қаҳҳорова К. Тилимиз софлиги - маданиятимиз равнақи // Халқ сўзи, 1993, 20 апрел; Султонмурод Олим. Фурқат - айрилиқ дегани // Оила ва жамият, 1994, 15-сон; Сиёев С. Сўз кадрини билмаган // Ўзбекистон адабиёти ва саноати, 1997, 11 апрел; Тўлқин Эшбек. Жазонинг “олий”си... бўладими? // Миллий тикланиш, 1997, 2 декабр.

<sup>37</sup> Муҳаммад Содик Кошғарий. Одоб ас-солиҳин (Яхши кишилар одоби). // Шарқ юлдузи, 1990, 5-с., 89-б.

qo'ng'irog'iga nisbatan har xil telefon apparati turlicha tovush chiqarishiga qaramay, faqat "jiringladi" so'zi qo'llaniladi.

Nutqda so'zga belgi sifatida munosabatda bo'lish aynan bir xil ma'no anglatadigan so'zlar takroridan hosil bo'lgan qo'shma so'z va so'z birikmalarini ham yuzaga keltirgan. Jumladan, o'zbeklar nutqida qo'llanadigan "o'rtamiyona" so'zi ikki o'zakdan - o'zbekcha "o'rta" va tojikcha "miyona" so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, ikkala o'zakning ham ma'nosi "o'rta"dir. Shuningdek, nutqimizda qo'llanadigan "bosh-oyoq sarpo" birikmasining dastlabki ikki o'zagi o'zbekcha, keyingi ikki o'zagi tojikcha so'zlar bo'lib, bu birikmani o'z nutqida qo'llayotgan kishilarning aksariyati "sar" - bosh, "po" - oyoq ekanligini bilmaydi. "Yetti yot begona" jumlasidagi o'zbekcha "yot" va fors-tojikcha "begona" so'zlarining har ikkalasi ham qarindoshligi, yaqinligi bo'lmagan kishi ma'nosini anglatadi. Nutqda bunday birikmalarning hatto uch o'zaklilarini ham uchratish mumkin. Jumladan, o'zbeklar nutqida qo'llanadigan "pulsiroto ko'prigi" birikmasining birinchi o'zagi "pul" fors-tojikcha, ikkinchi o'zagi "sirot" arabcha so'zlar bo'lib, ikkalasi ham o'zbekcha "ko'priki" ma'nosini anglatadi<sup>38</sup>.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, so'zga belgi sifatida munosabatda bo'lish, asosan, so'z ma'nosini bilmaslik, mushohadasizlikdan kelib chiqadi. Inson qanchalik bilimdon va fikrli bo'lsa, u so'zga nisbatan ham shunchalik mas'uliyat bilan munosabatda bo'ladi. Jumladan, ulug' o'zbek mutafakkiri "Alisher Navoiy "Mahdum" so'zini ishlatishda juda ehtiyotlik bilan ish tutadi va bu so'zni asosan, Jomiyga nisbatan qo'llaydi... Arab tilidan olingan "mahdum" so'zining ma'nosi lug'atlarda ulug' zot, martabali kishi tarzida qayd etiladi. Olim va shoirlarning nomiga nisbatan berilganda esa bilimdon, mashhur tarzida yangi ma'no kashf etadi va yangicha jaranglaydi. Ana shu sababdan adabiyot ilmining komil sohiblari bu so'zdan foydalanishda meoyor masalasiga hamisha rioya qilishgan"<sup>39</sup>.

---

<sup>38</sup> Қаранг: Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Тошкент: Фан, 1988, 11-б.

<sup>39</sup> Қорабоев Т., Воҳидов Р. Адабий таҳаллуслар ҳақида. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 8-9-б.



Deskriptiv tilshunoslikda ortiqchalik informatsiya nazariyasining maxsus atamasi sifatida qabul qilingan va kod orqali uzatiladigan informatsiyaning miqdoriga binoan belgilangan<sup>40</sup>.

R. Yakobson “ortiqchalik” tushunchasini aloqa nazariyasiga ritorikadan kirib kelganligini ta’kidlaydi.<sup>41</sup>

A. Martine muloqotning amaliy ehtiyoji tilning barcha sathlariga dahldor ekanini ta’kidlab, ortiqchalik doimiy va o’ta ahamiyatli e’tiborni taqozo etishini uqtiradi<sup>42</sup>.

Ne’mat Mahkamovning “Adabiy norma va pleonazm” nomli monografiyasida pleonazmning turlari, tiplarga bo’linishi, vujudga kelish sabablari atroflicha tahlil qilinib, ularning normal va anormal holatlari ko’rsatib berilgan<sup>43</sup>.

Tilshunoslikning barcha sathlarini qamrab oladigan lisoniy ortiqchalik psixolingvistikada *giperxarakterizatsiya* deb ataladi<sup>44</sup>.

O‘zbek tilshunosligida ortiqchalik hodisasining sintaktik sathga xos ko‘rinishi B.Sheronov tomonidan tadqiq etilgan<sup>45</sup>.

Bundan tashqari, o‘zbek tiliga xorijiy tillardan kirib kelgan bir guruh arabcha so‘zlar o‘zbek tili zaminida o‘z ma’no qiymatini butunlay yo‘qotib, etimologik ma’no va tushunchasi bilan aloqador bo‘lmagan boshqa semantik birlikka aylanadi. Bunday xarakterdagi so‘zlar asl fonetik va morfologik qiyofalarini o‘zgartirmaydi. Lekin ular arab va o‘zbek tillaridagi pragmatik kontekstda hech qachon semantik yaqinlikka ega bo‘lmaydi. Ya’ni, so‘zning haqiqiy ma’nosi bilan o‘zlashgan tildagi ma’nolari orasidagi bog‘liqlik butunlay unutiladi. Masalan, “bisot” so‘zi arab tilida monosemantik xarakterga ega. U faqat “gilam” ma’nosini ifodalaydi. O‘zbek tilida esa, bu so‘z arab tilidagi ma’no bilan aloqasi bo‘lmagan tushunchalarni anglatadi:

<sup>40</sup> Қаранг: Звегинцев В. А. Теоритическая и прикладная лингвистика. - М.: Просвещение, 1967, с. 249.

<sup>41</sup> Қаранг: Якобсон Р. Лингвистика и теория связи // Звегинцев В. А. История языкознания XIX-XX вв. В очерках и извлечениях. Частр II. - М.: Просвещение, 1956, с. 346.

<sup>42</sup> Мартине А. Основк общей лингвистики // Новое в лингвистике. Вкп. III. - М., 1963, с. 537.

<sup>43</sup> Қаранг: Маҳкамов Н. Адабий норма ва плеоназм. - Тошкент: Фан, 1988.

<sup>44</sup> Қаранг: Рогова Б. Г. Понятие гиперхарактеризации // Вопросы общего языкознания. - М., 1965, с. 114.

<sup>45</sup> Шеронов Б. Ф. Ўзбек тили гап курилишида лисоний ортиқчалик. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф. - Тошкент, 1996.

- 1) xotinlarning o‘ziga tegishli o‘lik molini, mol-dunyosini;
- 2) kishiga, oilaga, xo‘jalikka qarashli mol-mulkni. “Bisot” so‘zi ko‘chma ma’noda ham ishlatiladi. Misol uchun: “Bisotimda bitta yangi qo‘shiq bor, hozir shuni aytib beraman”. Qolaversa, arab tilidan kirib kelgan ayrim so‘zlar qisman leksik-semantik o‘zgarishlarga uchraydi<sup>46</sup>.

Biroq, shuni ham aytish kerakki, grammatik shakl yoki boshqa vositalarni pleonastik qo‘llash hamma vaqt ham nutqda ortiqchalikni tug‘diravermaydi. Ba’zan, juda o‘rinli, tushungan holda, ma’lum bir maqsadni ko‘zda tutib shunday qilinsa, nutqni ravon qiladi, fikrni aniq, lo‘nda, bor nozikliklari bilan ifodalashga yordam beradi, nutq ta’sirchanligini oshiradi, ma’noni kuchaytiradi, bo‘rttiradi<sup>47</sup>.

Endi e’tiborimizni oilaga ingliz tilida berilgan ta’riflarga qaratamiz.

Longman

zamonaviy ingliz tili lug‘atida oila so‘zi quyidagicha izohlanadi: “Oila 1) yaqin qarindoshlar guruhi- bir-biriga qarindosh bo‘lgan insonlar guruhi, ayniqsa ota-ona va ularning farzandlari; 2) hamma munosabatlaringiz – siz bilan bog‘liq bo‘lgan barcha insonlar, shu jumladan, hozirda vafot etganlar ham; 3) farzandlar. Britannika saytida keltirilishicha, oila – nikoh, qondoshlik yoki farzand asrab olish rishtalari yo‘li bilan birlashtirilgan, bitta xonadonni tashkil etadigan va o‘zlarining ijtimoiy sharoitlarida bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan shaxslar, odatda turmush o‘rtoqlar, ota-onalar, bolalar va aka-ukalar guruhi. Ingliz olimlari Djeyn Makkarti va Rozalinda Edvardslar e’tirof etishicha, "oila" atamasining o‘zi va uni qanday ishlatish mumkinligini nazariy jihatdan asoslashdan tashqari, oila tadqiqoti odatda o‘zaro bog‘liq mavzular to‘plamini qamrab oladi, jumladan: 1) turmush qurish va farzandli bo‘lish; 2) uy xo‘jaliklari shakllanishi va demografik tendensiyalar; 3) bola tarbiyasi va g‘amxo‘rlikning boshqa turlari; 4) qarindoshlik va jamoat munosabatlari va shu kabilar.

---

<sup>46</sup> Қаранг: Эшонқулов Б. Х. Ҳозирги ўзбек адабий тилида арабча луғавий ўзлашмаларнинг парадигматик асимметрияга муносабати. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореферати. - Тошкент, 1996, 12-б.

<sup>47</sup> Яна қаранг: Тожиев Ё. ва б. Ўзбек нутқи маданияти ва услубият асослари. - Тошкент, 1994, 94-б.

Professor I. Levin keltirgan ta'rif bo'yicha, kundalik tilda oila ijtimoiy guruh sifatida huquqiy, biologik va hissiy jihatdan bog'langan; oilaning kundalik tilga yaqin ta'riflaridan biri esa oila bir xonadonda yashovchi va qarindosh bo'lgan ikki yoki undan ortiq qon, nikoh yoki farzandlikka olish munosabatlari orqali bog'langan shaxslarni o'z ichiga oladi.

Rebeka Jonson tadqiqotlarida qayd etilishicha, oila diskursi oila a'zolari tomonidan birgalikda qurilgan bo'lib, ularning har biri o'zaro munosabatlarda aniq ishonch va maqsadlariga egadir. O'zaro oilaviy suhbatlar chog'ida oiladagi rollar a'zolar tomonidan belgilanadi, rad etiladi va bu borada bahslar ham olib boriladi. Belgilangan lavozimlar, odatda, oiladagi shaxslar jinsi va pozitsiyasiga asoslangan holda tayinlanadi.

Fikrlarni ko'rib chiqish davomida ma'lum bo'ldiki, "oilal" tushunchasi milliy madaniy o'ziga xoslikka ega, sharq va g'arb madaniyati vakillari nuqtai nazariga ko'ra ham "oilal" deyilganda, qondoshlik va nikoh rishtalari orqali bog'langan, bir yoki bir necha farzandlarga ega bo'lgan o'zaro insonlar guruhi tushunilar ekan.

Oila diskursi borasida samarali izlanish olib borgan rus olimasi V.V. Zvyaginseva oila diskursini institusional bo'lmagan diskurs, uning faoliyat doirasi oila a'zolarining muloqot doirasi bilan cheklanadi, deya bahs yuritadi. Ba'zi lingvistlar esa oila diskursini tadqiq etish ayrim muammolarni, aniqrog'i, oilaviy munosabatlar, oilaviy muloqot o'zaro bir shaxsiy jarayonda sodir bo'lishi sabab unga oid zaruriy ma'lumotlarni jamlashda bir oz noqulayliklar tug'dirishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Brayan Klensi e'tirof etishicha, oila diskursi intim janrda joylashgan bo'lib, u o'zida eng ko'p shaxsiy va xususiy diskursni, ya'ni er-xotin va bir-biriga juda yaqin bo'lgan do'stlar orasidagi diskursni ifoda etadi. Shu o'rinda qayd etish lozimki, dunyoning ko'plab olimlari ishlarida oilaviy kommunikasiya, oilaviy nutq ifodalaridan ko'ra oila diskursi termini qo'llanilishi urfga kirgan bir paytda, biz esa o'z tadqiqot ishimizda milliy mentalitetimizga yaqin bo'lgan jumla – "oilaviy muloqot" birikmasini ishlatishni joiz deb topdik. Insonlar jamiyatda rivoj topib, bir-birlari bilan o'zaro munosabatga

kirishishlarida muloqotga juda katta ehtiyoj sezadilar. Muloqot qilish orqali insonlar bir-birlariga xabar yo‘llaydilar, hamkorlik qiladilar, kundalik hayot tarzida yuz berayotgan voqea-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirib, fikr almashadilar.

Tabiiyki, oilaviy muloqotda murojaat ifodalari asosan ota-ona, ota-ona – farzandlar (inglizlarda bu kabi oilalar “nuclear family” birikmasi orqali anglashiladi) o‘rtasida sodir bo‘ladigan suhbatlar chog‘ida shakllanadi. Yuqorida oilaga keltirilgan ta’riflardan kelib chiqib, ayrim katta (extended family) oilalarda esa qarindosh insonlar guruhi kengligi bois murojaat shakllari qamrovi ortib borishi tabiiy hol. Ikki noqardosh til egalari oilaviy nutqida kuzatiladigan murojaat turlarini aniqlashda bir necha tadqiqot metodlaridan, jumladan, tarixiy-qiyosiy metod, chog‘ishtirma tilshunoslik metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot mavzusi doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomada o‘zbek va ingliz xalqidan 30 ga yaqin oila vakillari ishtirok etib, o‘z fikrlarini Gugl formda qayd qilib qoldirdilar. So‘rovnoma 10 ga yaqin savollardan iborat bo‘lib, ular o‘z ichiga ota-ona, ota-ona va farzand hamda farzandlar suhbatida kuzatiladigan murojaat ifodalari asosida tashkillashtirildi. Maqolada biz ota-onaga nisbatan ishlatiladigan murojaat shakllariga to‘xtalib o‘tamiz.

Ikki madaniyat egalari bilan tashkill qilingan so‘rovnomaning “Ota-onangiz bilan suhbat chog‘ida ularga qanday murojaat shakllarini yo‘llaysiz?” deya berilgan savolga ko‘rsatilgan o‘zbek vakillari javoblari natijasi quyidagicha grafik vositada o‘z aksini topadi:

1-rasm

1. Ota-onangiz bilan suhbat chog'ida ularga qanday murojaat shakllarini yo'llaysiz?

18 responses



Ma'lum bo'ldiki, murojaat birliklari O'zbekiston viloyatlari kesimining o'ziyadoq turli faqrlanish holatlarini keltirib chiqarmoqda. 17% ga yaqin javoblarda "aya", "dada" murojaat birliklari ifodalanishi respublikaning ko'plab hududlarida mazkur chaqiriqlardan unumli foydalanilayotganligidan dalolat bersa, ayrim oila vakillari nutqida esa nisbatan ota-onaga bo'lgan o'zgacha mehr-muhabbat, ehtirom "-jon" qo'shimchasi yordamida aks ettirilayotganligini kuzatish mumkin. Mazkur savol ingliz oilalari a'zolari tomonidan quyidagicha talqinda ifodalandi:

2-rasm



Ko'rinadiki, garchi ingliz tilida muloqot olib boruvchi oilalar ham Angliyaning turli geografik hududlaridan javoblarini qoldirsalar-da, aynan ota-onaga yo'llanadigan murojaat ifodalari o'rtasida umumiy yaqinlik seziladi. Aksar

ingliz oilalari shunchaki ham qisqartirish, ham erkalash ohangi uyg'unligida "mum", "dad" jumllaridan samarali foydalanar ekanlar.

Ikki madaniyat oilaviy muloqotida uchraydigan murojaat shakllarini kuzatish chog'ida ma'lum bo'ldiki, har ikki xalqda ham ota-onaga hurmat-e'tibor, izzat-ikrom tushunchalari ulug'lanadi, pozitiv strategiyalar yetakchilik qiladi, farqli jihati shu bo'ldiki, o'zbek xalqi shevalarga boy xalq va har bir hududning o'ziga yarasha kelib chiqish tarixi bo'lgani kabi oilaviy suhbatlaridagi murojaat terminlari ham turfa xilma-xilliklarga ega. Yana bir ahamiyatli xususiyati, hattoki ayrim chaqiriqlarga qardosh qo'shni millat vakillari nutqidagi ifodalar (modar) ham singib ketganligining guvohi bo'lish mumkin. So'rovnoma jarayonida e'tiborni qaratadigan jihati, noqardosh madaniyat ishtirokchilari oilaviy mavzudagi har qanday so'rovnomada ham ishtirok etishni istamasliklari ma'lum bo'ldi. Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarga tayanib, oilaviy tadqiqot, darhaqiqat, intim janrga xos izlanishlardan biri bo'lib qolishi bu doiradagi barcha qiziqqan savollarga to'la yechim topa olish imkonini bir oz bo'lsa-da cheklaydi, deya olamiz.

Fikrlarni ko'rib chiqish davomida ma'lum bo'ldiki, "oila" tushunchasi milliy madaniy o'ziga xoslikka ega, sharq va g'arb madaniyati vakillari nuqtai nazariga ko'ra ham "oila" deyilganda, qondoshlik va nikoh rishtalari orqali bog'langan, bir yoki bir necha farzandlarga ega bo'lgan o'zaro insonlar guruhi tushunilar ekan. Shuni alohida qayd etish joizki, olib borilayotgan tadqiqot ob'ekti sifatida garchi murojaat ifodasi olinsa-da, aynan shu murojaat shakllari oilaviy munosabatlar, oilaviy muloqotda uchraydigan shakllar asosida ko'rib chiqiladi. Barchaga ayonki, oilani insonlar tashkil etadi va unda turli munosabatlar mujassam va mazkur turfa xilliklar izlanuvchilardan endilikda inson ongi, psixologiyasi, uning nutqiy faoliyati hodisalarini tadqiq etuvchi sohalarni ham izchil o'rganishni talab qilmoqda.

#### **1.4-§. Oilada muloqot xulqining o'rganilishiga oid tadqiqotlar**

“Insoniyat, mamlakatlar va xalqlar hayotida XX asr poyoniga yetmoqda. ...Bizni - hozirgi O‘zbekistonda istiqomat qiluvchilarning ko‘pchiligini tirikchilik tashvishlari - chin voqelik muammolari bilan birga: “Bu yorug‘ olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketyapmiz? Insoniyat yangi - XXI asrga qadam qo‘yganida, bizning o‘rnimiz qayerda va qanday bo‘ladi?” - degan savollar o‘ylantirishi tabiiy”<sup>48</sup>.

Yangi asr bo‘lag‘asida o‘zining umumjahon xalqlari o‘rtasidagi o‘rni va mavqeini anglashga intilayotgan kishilar tomonidan o‘z-o‘ziga berilayotgan savollarga topilgan eng ixcham va ilmiy asosga ega javoblardan biri shuki, insonning kimligi uning ikki jihati - xatti-harakati va so‘zi (nutqi), odamlar bilan o‘zaro muomalasida namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ham odamlar inson ruhiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bu masala bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi Gretsiya va Rimda nutq madaniyatining nazariy asoslari yaratildi. Bu davlatlarda Sitseron, Demosfen, Kvintilian, Aristotel kabi nazariyotchilar yetishib chiqdi. Eramizdan avvalgi 335 yilda Aristotelning “Ritorika”si yaratildi. O‘sha davr sud notiqligining katta namoyandasi Sitseronning “Notiq haqida”, “Notiq”, “Brut” asarlari hozir ham o‘ziga xos qimmatga ega. Ularning bu nazariyalari keyinchalik Yevropada nutq madaniyatiga bag‘ishlangan fanning maydonga kelishiga asos bo‘ldi. Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti bilan, shuningdek, vaozxonlik, “Qur‘on”ni targ‘ib qilish, mushtarak holda so‘zning ahamiyati, ma‘nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ibratli fikrlar aytilgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Koshg‘ariy, Abulqosim Zamaxshariy, Abu Ya‘qub Sakkokiy, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalar tilga, lug‘atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag‘ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

---

<sup>48</sup> Karimov I. A. O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O‘zbekiston, 1997, 3-b.

Buyuk qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy o'zining "Geodeziya" asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojlarning hosilasidir. Inson nutqi o'z tuzilishi, materialiga ko'ra, rostni ham, yolg'onni ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan "mezon"ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Mantiqning qiyosi (sillogizmi) rostni yolg'ondan ajratish vositasi bo'lib qoldi. Inson nutqida shubhali o'rinlar sezilsa, ma'lum "mezon" yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o'rganmasdan, uni malomat qilganlarga hayron qoladi va ularga achinib: "Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiq (logika) ni mutolaa qilganda edi, so'z, zotan, nasr va nazmga ajralishini bilgan bo'lardi"<sup>49</sup>, - deydi.

Ko'rinadiki, Beruniy inson nutqini bir fan doirasida emas, balki bir necha fan (ya'ni grammatika, aruz va logika)lar qo'shiluvi nuqtasida tekshirish g'oyasini ilgari surgan.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning to'g'ri so'zlash, to'g'ri mantiqiy xulosa chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo'rliigi haqida shunday yozadi: "Qanday qilib ta'lim berish va ta'lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berish masalasiga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga (substansiya - narsalar) va aksidensiya (hodisalari)ga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman.

Ikkinchi ilm grammatikadir. U jismlarga berilgan ism (nom)larni qanday tartibga solishni hamda substansiya va aksidensiyaning joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so'zlarni va nutqni qanday tuzishni o'rgatadi.

---

<sup>49</sup> Беруний. Танланган асарлар. III том, Тошкент, 1982 йил, 64-б.



Uchinchi ilm mantiqdir. Ma'lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o'rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz. Hamda nima to'g'ri, nima yolg'on ekanligi haqida hukm chiqaramiz"<sup>50</sup>.

Beruniy bilan zamondosh bo'lgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy ham o'zining "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlar kalitlari") asarida o'sha davr nutq madaniyatining ba'zi bir masalalari, devonxona ish qog'ozlari, ularning shakllari, ishlatiladigan istiloh (termin)lar haqida ma'lumot beradi.

Qadimgi Sharq pedagogikasining durdona asarlaridan biri "Qobusnoma"da ham nutq odobi va madaniyati haqida ibratomuz fikrlar bayon qilingan bo'lib, ular hozir ham ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbek mumtoz adabiy tilining homiysi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzishning bayroqdori sifatida o'zining butun ijodi bilan o'zbek tili boyliklarini, uning latif va go'zal qirralarini kashf etdi. Keyingi asrlarda ijod qilgan Xorazmiy, Bobur, Munis, Mashrab, Uvaysiy, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li, Fitrat, Behbudiy, So'fizoda, Hamza va boshqa buyuk mutafakkirlar ham o'zbek muloqot xulqi haqida o'z fikrlarini turli janrlardagi asarlarida bayon etdilar.

Biroq nutq madaniyati muammolari bilan ilmiy asosda jiddiy shug'ullanish masalasi birinchi marta Praga lingvistik to'garagi vakillari tomonidan o'rta tashlandi. Ular 1929-yilda Pragada bo'lib o'tgan slavistlarning I se'zdi uchun tayyorlangan maxsus tezislar va keyingi asarlarida bu masalaga alohida to'xtalib o'tganlar<sup>51</sup>. Yuksak taraqqiy etgan Amerika, Angliya, Yaponiya, Germaniya va boshqa qator xorijiy davlatlarda tadqiqotchilar hozirgi paytda asosiy e'tiborlarini xuddi shu masalaga qaratmoqdalar. Bunga Madelin Berkli-Alen, R. Brikman,

---

<sup>50</sup> Абу Наср Форобий. Рисолалар. - Тошкент, 1975, 54-б.

<sup>51</sup> Қаранг: Звегинцев В. А. История языкознания XIX - XX веков очерках и извлечениях. Часть II-Москва, 1965, с. 127-128.

R.Kershner, V.Birkenbil, Ch.Likson, D.Karnegi, A.Piz, F.Nitshe, L.N.Gumilyov kabilarning ishlarini misol qilib ko'rsatish mumkin<sup>52</sup>.

G'arb mamlakatlarida nutqiy muloqot, uning sotsiologiyistik, psixologiyistik va pragmatik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab maxsus jurnallar chiqarib boshladi ("Communication", "Discourse and Society", "Cultural Anthropology", "Journal of Pragmatics", "Language and Communication", "Pragmatics" va boshqalar). So'nggi yillar AQSH olimlari nutqiy muloqot sohasida juda katta tadqiqotlarni olib borayotganlarini aytib o'tish kerak. AQShda muloqot va ritorika bilan mashg'ul ko'plab ilmiy jamiyatlar va assotsiatsiyalar tashkil topganini va ular o'z ilmiy izlanishlarini chop etib borayotganliklarini eslatish zarurdir<sup>53</sup>.

Bu masalani tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida o'rganishga rus tilshunosligida 20-30-yillarda kirishildi.

1977-yilda Moskvada "Национально-культурная специфика речевого поведения"<sup>54</sup> nomli, sal keyinroq "Национально-культурная специфика речевого общения народов СССР"<sup>55</sup> nomi bilan mualliflar hamkorligidagi monografiyalarning chop etilganligi, shuningdek, A.A.Leontev, N.V.Ufimseva, Y.A.Sorokin, L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, A.N.Gvozdev, A.I.Yefimov, Y.M.Vereshchagin, V.G.Kostomarov, S.I.Ojegov, Y.F.Tarasov, A.M.Shaxnarovich, V.D.Bondaletov, V.M.Alpatov, N.I.Formanovskaya, V.V.Kolesov, Y.D.Desheriyev, G.V.Kolshanskiy, G.A.Zolotova, Y.S.Kubryakova, V.V.Veselitskiy, M.I.Chijevskaya, B.N.Golovin, G.Tits, L.M.Ryazanova, V.P.Trofimenko va boshqalarning bu muammoga oid qator monografik tadqiqotlarining yuzaga kelganligi nutqiy faoliyat muammosini tobora dolzarb masalaga aylanib borayotganligidan dalolat beradi.

---

<sup>52</sup> Каранг: Мадэлин Беркли - Алэн. Забктое искусство слушатр. - Санкт-Петрбург: Питер, 1997, Ликсон Ч. Конфликт: семр шагов к миру. - Санкт - Петербург: Питер, 1997; Карнеги Д. Как вкраткватр уверенность в себе и влиятр на людей,вкступая публично.- Ташкент: Шарк, 1992; Пиз А. Язкк телодвижений. - Санкт - Петербург, Изд. дом Гутенберг, 1997.

<sup>53</sup> Каранг: Rhetoric Society Quarterly. Vol, 24. № 1/2. 1994.

<sup>54</sup> Националрно - културная специфика речевого поведения - Москва: Наука, 1977.

<sup>55</sup> Насионалпно - културная спесифика речевого обўения народов СССР. - М.: Наука, 1982.

Turkologiyada ham insonlarning o‘zaro muloqotga kirishish jarayoni tilshunoslarning diqqatini anchadan beri o‘ziga jalb etib keladi. Jumladan, F.F.Sultonov, N.Djunusov, A.B.Medjidova, T.Aydarov, T.Karakeyeva, D.Sodiqbekova kabi olimlar bu masala ustida maxsus izlanishlar olib borganlar<sup>56</sup>.

O‘zbek tilshunosligida bu masala bilan jiddiy shug‘ullanish endigina boshlandi, deyish mumkin. Bu holni o‘zbek tilshunos olimlari S.Ibrohimov, O.Usmonov, E.Begmatov va boshqalar 1969-yili Toshkentda nutqimiz rivoji masalalari mavzuida o‘tkazilgan I Respublika konferensiyasida qilgan ma‘ruzalarida alohida ta’kidlaydilar. Jumladan: “...Masalaning bunday qo‘yilishidan o‘zbek tilshunosligida nutq madaniyati muammosi, umuman, o‘rtaga qo‘yilmagan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi kerak. Nutq odobi deb yuritib kelingan qoidalarning o‘ziyoq, bu masalaning ko‘hna tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, 20-30-yillarda til qurilishi, til siyosati degan nomlar bilan yuritilgan barcha millat va xalq tillari rivojiga bevosita tatbiq etilgan ulkan tadbir va choralarning o‘sha vaqtda til madaniyati, endilikda nutq madaniyati deb yuritilayotgan muammoga qanchalik aloqadorligini belgilash g‘oyat muhimdir”<sup>57</sup>, deb yozadi E.Begmatov. Afsuski, o‘zbek tili nutq madaniyatiga oid ishlarda uni nazariy jihatdan o‘rganish o‘rtaga jiddiy qo‘yilgan emas<sup>58</sup>. O‘zbek tilshunoslaridan S.Ibrohimov, E.Begmatov, L.Xo‘jayeva, I.Ibrohimov, B.O‘rinboyev, S.Inomxo‘jayev, R.Qo‘ng‘urov, S.Karimov, T.Qurbonov, A.Rustamov, A.Abdurahmonov, N.Mahmudov, T.Qudratov, Y.Tojiyev, N.Hasanova, H.Tojimatov, O.Yo‘ldosheva, B.X.Rahmatullayeva,

---

<sup>56</sup> Қаранг: Султонов Ф.Ф. Некоторые особенности коммуникативного поведения татар и башкир //Национально - культурная специфика речевого обьения народов СССР. - М: Наука, 1982, с. 93-101; Джунусов Н. Казахский переходный говор на территории каракалпакской АССР. - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Алма-ата, 1965; Меджидова А. Б. Ленкорский говор Азербайджанского языка. - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Баку, 1970. Айдеров Т. Язқовқе особенности казахов Тамдинского раёна Узбекской ССР. - Автореф. дис. .... канд. филол. Наук.-Ташкент - Алма-ата, 1967; Каракеева Т. О типологии коммуникации // Знак и обьение. - Фрунзе: Илим, 1974, с. 88-101; Сқдқкбекова Д. Особенности коммуникативного поведения киргизов // Национально-культурная специфика речевого обьения народов СССР. - М.: Наука, 1982, с. 132-141.

<sup>57</sup> Бегматов Э. Нутқ маданияти проблемасининг пайдо бўлиши ва асослиниши // Нутқ маданиятига оид масалалар. - Тошкент: Фан, 1973, 166-167-б.

<sup>58</sup> Яна қаранг: Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиев Ё. Нутқ маданияти ва услубияти асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 10-б.

Sh.Iskandarovalarning ishlarida nutq madaniyatiga oid bir qator nazariy fikrlar aytilgan<sup>59</sup>.

Nomlari ta'kidlab o'tilgan mualliflarning ishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tilshunosligida ham nutq madaniyati va uning nazariy masalalari bo'yicha anchagina izlanishlar olib borilgan. Biroq bu izlanishlarning aksariyati nutq madaniyatini sof lingvistik, uslubiy yoki pedagogik maqsadda yoritib berishga qaratilgan bo'lib, masalaga ijtimoiy-lisoniy aspektda yondashilmagan.

Xullas, asrlar mobaynida kishilarni qiziqtirib kelgan nutq madaniyati sohasi ilmiy muammo sifatida tan olindi va uni chuqur tadqiq qilish lozimligi ko'pchilik olimlar tomonidan ma'qullandi. Shu sababli ham tilshunos V.V.Veselitskiy 60-yillarning boshlaridayoq: "Hozirda nutq madaniyati bo'yicha tadqiqot olib borishning zarurligini isbotlab o'tirish ortiqchadir" deb yozgan edi.

Shunday ekan, O'zbekiston dunyoga, dunyo xalqlari O'zbekistonga nazar tashlayotgan, butun o'zbek xalqi o'z Prezidenti atrofida tobora mustahkamroq jiplashib, milliy ma'naviyat, milliy ong, milliy mafkura haqida har qachongidan ham ko'proq qayg'urayotgan bugungi kunda biz bilan do'stona va samimiy muloqotda bo'lishni istovchi davlatlar va millatlardan o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqini ham sir tutmaymiz, aksincha, o'zbeklar bilan muomala chog'ida nimalarga e'tibor berish lozimligini avvalo o'zimizga va boshqalarga o'rgatamiz. Zero, hech bir inson, hech bir millat o'zligini teran anglamasdan turib o'zgani durust tushunib yetmagan.

Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o'rganuvchi sohasi sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-

---

<sup>59</sup> Қаранг: Иброҳимов С. Ўзбек тили нутқ маданиятига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1964, 5-сон; Бегматов Э. Ўзбек нутқ маданияти масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980, 4-с; Хўжаева Л. Нотиқлик саноати. - Тошкент, 1967; Иброҳимов И. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. - Тошкент: Фан, 1972; Ўринбоев Б. Сўзлашув нутқи. - Тошкент: Фан, 1979; Иномхўжаев С. Нотиқлик саноати асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1982; Қўнғуров Р., Каримов С., Қурбонов Т. Нутқ маданияти асослари. - Самарқанд, 1985; Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. - Тошкент, 1981; Қудратов Т. Нутқ маданияти асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Тожиёв Ё., Ҳасанова Н., Тожиматов Х., Йўлдошева О. Ўзбек нутқи маданияти ва услубияти асослари. - Тошкент, 1994; Раҳматуллаева Б. Х. Этикетик формқ обращения и привлечения внимания в современном русском языке (в сопоставлении с узбекским). - Автореф. дис. .... канд. филол. наук. - Тошкент, 1992; Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дис. автореф. - Самарқанд, 1993.

biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika shu fan sohasidagi o'ta nazariylik, noaniqlik va aynan shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko'rsatib bermoqda. Zero, an'anaviy tilshunoslik tilda har biri o'ziga xos takrorlanmas olam bo'lgan insonlar muloqot jarayonining ruhiy, milliy, ijtimoiy, hududiy xususiyatlariga e'tibor qaratmadi. Bunga muloqot jarayonining o'ta murakkab va serqirra ekanligini va xuddi shuning uchun ham alohida bir fanning o'zi bu muammoni yaxlit tadqiq etishga ojizlik qilganligini sabab qilib ko'rsatish mumkin. Shuning uchun bo'lsa kerak, asrimiz boshlarida aniq va tabiiy fanlarning, asrimizning ikkinchi yarmidan boshlab esa ijtimoiy fanlarning ham muayyan jabhada o'zaro yaqinlashuvi kuzatilmoqda. Natijada, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi "tutash" fanlar, etnopsixolingvistika, sotsiopsixolingvistika kabi yangi soha va yo'nalishlar yuzaga keldiki, inson nutqini aynan fanlarning mana shunday tutash nuqtasida tadqiq etish o'ta murakkab jarayon bo'lgan muloqotning asl mohiyatini, uning o'ziga xos.

Bu atamalarning har biri o'ziga xos tarixga ega. Jumladan, "psixolingvistika" termini ilk bor amerikalik psixolog N.Pronko tomonidan 1946-yili yozilgan "Til va psixolingvistika" nomli katta maqolada tilga olingan. Biroq 1953-yili Amerikaning Indiana shtatidagi Blumington shahrida taniqli psixologlar Dj.Keroll, Ch.Rchgud hamda taniqli tilshunos va etnograf T.Sibeoklar tomonidan tashkil etilgan universitetlararo seminardan keyin bu atama aniq ma'no kasb etdi va psixologiya hamda tilshunoslik o'rtasidagi tutash fan atamasi sifatida keng qo'llanila boshlandi.

Kommunikatsiyaning timsoliy xususiyatlari bilan ko'proq semiotika shug'ullanadi.

Sotsial psixologiya, sotsiologiya, shuningdek, etnografiya, eng avvalo, quyidagi uch muammo:

a) u yoki bu milliy-madaniy guruhga mansub kishilar ruhiyati;

b) u yoki bu millat, sotsial guruhlarning o'ziga xos muomala tarzi;

v) milliy madaniyatning tarkibiy qismlari bo'lmish milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlar tadqiqi bilan shug'ullanadi.

Keyinchalik yuzaga kelgan sobiq Ittifoq hududidagi psixolingvistika esa asosan bolalar nutqi tadqiqi bilan chegaralanib qolmoqda.

Umuman, bugungi kunga kelib muloqot jarayonini kompleks, ya'ni ijtimoiy-lisoniy aspektda tadqiq etishga jiddiy ehtiyoj paydo bo'ldi.

### **I bob bo'yicha xulosalar**

1. Nutqiy odat tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Yuqori nutq madaniyatiga ega bo'lish uchun nutq egasida bilim va malakalar yetarli bo'lishi bilan birga, o'z fikrlarini til birliklari yordamida to'g'ri, aniq va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham bo'lishi kerak.

2. Oila bu er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasida shakllangan o'zaro munosabatlarning aniq tarixiy tizimi, psixologik nuqtai nazardan bu kichik bir jamoa bo'lib, uning a'zolari bir-biri bilan qarindosh urug'chilik va nikoh orqali bog'langan bo'ladilar. Oilaning bo'lishi jamiyatni, aholini jismonan va aqlan kamolotiga bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Nutqda so'zga shunchaki belgi va ma'no anglatuvchi leksik birlik sifatida munosabatda bo'lish mumkin. Bu munosabatlarning ijtimoiy-lisoniy aspektlari haqida fikr yuritishdan avval so'zning belgilik va leksik ma'no anglatishlik jihatlari xususida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

3. Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o'rganuvchi sohasi sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvistika shu fan sohasidagi o'ta nazariylik, noaniqlik va aynan shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko'rsatib bermoqda.

## **II BOB. OILADA OTA-ONA MULOQOTINING LINGVOKULTURO-LOGIK JIHATI**

### **2.1-§. O‘zbek milliy qadriyatlarining oiladan shakllanishi**

Yer yuzidagi jamiki millatlar, elatlarning o‘z tili, tarixi, urf-odatlar hamda qadriyatlari o‘ziga xos va farqlidir. Lekin umumbashariy an‘ana va qadriyatlar mavjudki, ular bir qancha millatlarda bir-biriga yaqin yoki o‘xshashdir.

O‘zbek millati kelib chiqishi va joylashgan hududi bo‘yicha Ingliz millati bilan tubdan farq qilsada, umumbashariy qadriyatlar borasida oilaviy muloqot jihatidan ayrim o‘xshashlik tomonlari mavjud.

Ana shu nuqtai nazardan, bir qancha ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tsak.

Avvalo, muloqot nima, uning qanday qoidalari bor?

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning qiziqishlar va bilish bo‘yicha ma’lumot almashishdan iborat bo‘lgan o‘zaro ta’sir etishdir. Shuningdek, muloqot - hayot kechirishning eng muhim sharti va bir shakli.

Insonlar o‘rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari shaxsning turmush tarzi barcha jabhalarida oilada, o‘qishda, ish jarayonida, boshqalar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatining eng muhim shartlaridandir. Shaxsning aqli, hissiy madaniyati, tarbiyalanganligi, takallufi, irodasi va shu kabilarning barchasi muloqot tufayli shakllangan xislatlardir. Shu bilan birga bosh og‘rig‘i, uyqusizlik hamda turli asab va yurak kasalliklari, shuningdek, ichkilikka, giyohvandlikka ruju qo‘yish, hatto o‘z joniga qasd qilish kabilar ham aynan shu muloqotning natijasidir. Bu borada xalqimizning, “Yaxshi so‘z - jon ozig‘i”, “Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar” kabi maqollar insonlar o‘rtasidagi muloqot vositasi bo‘lmish til imkoniyatlaridan unumli va sifatli foydalanish bilan birga, albatta, ezgu fazilatlar shakllantirish maqsadini ilgari suradi. Demak, til, muloqot inson hayotida undan qanday foydalanish, uni qanday ishlatish, qanday tashkil qilishga qarab, uning uchun eng aziz, eng qadrlil bo‘lishi yoki aksincha eng fojiali bo‘lishi ham mumkin.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining keskinlashishi, tezlashishi, odamlar turmush tarzining jadallashishi, ularning ruhiy zo‘riqish va ta’sirchanligining kuchayib borishi bugungi kunda muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishini taqozo etadi. Bunda, avvalo, quyidagi omillarga ahamiyatni qaratish kerak:

1. O‘z-o‘zini to‘g‘ri anglash bilan birga, boshqa odamlarni ham tushuna olish, tinglay olish qobiliyati, hissiyotlarini to‘g‘ri baholay olish;
2. Suhbatdoshining xulqi va holatiga mos munosabat bildira olish;
3. Har bir odamning shaxsiy xususiyatlariga ma’qul keladigan muloqot shakli hamda usullarini tanlay bilish taqozo etiladi.

Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, ham muloqot eng avvalo, odamning odam tomonidan idrok qilinishidan boshlanadi.

Kishining kundalik hayotining asosiy qismi mehnat qilish, tahsil olish va boshqa jamoat ishlarini bajarish bilan o‘tadi. Muloqot– insonlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan yuzaga keladigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muomala - muloqotning tarkibiy qismi bo‘lib, shaxsiy xulq-atvorlar, muloqotning yoqimli yoki yoqimsiz bo‘lishi odamlarning o‘zaro muomalalariga bog‘liq bo‘ladi.

Munosabat – muloqot ishtirokchilari o‘rtasida almashilgan voqea hodisalarga har bir kishining o‘ziga xos yondashuvidir.

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida odamlar kundalik muloqotining tezlashuvi, aholi zichligining ortib borishi, odamlar turmush tarzining jadallashuvi, ularning ruhiy zo‘riqish va ta’sirlanuvchanligining kuchayib borishi kabi holatlar bugungi kunda odamlarning muloqot madaniyatining yuqori darajada bo‘lishini taqozo etadi. Ta’bir joizki, insonning madaniyati, ma’naviyati uning muloqotida aks etadi.

Har qanday muomalaning, muloqotning boshi salomdir. Qadimdan qadriyatimiz, an’analarimizning bosh mezoni bo‘lmish dinimizda salomga katta e’tibor qaratilgan. Salom berishdan insonning suhbatdoshiga nisbatan ilk



munosabati izhor etiladi. Baʼzan insonlarning atrofdagilarga nisbatan takabburlik, balanddimogʻlik bilan muomala qilganlariga guvoh boʻlamiz. Oʻzlaridan kattalarga, ustozlariga, hatto ota-onalariga nisbatan qilgan odobsizligini koʻrib achinamiz. Oʻzaro koʻrishganda lozim boʻladigan oddiygina salomlashishni rioyasini qilmaydiganlar kishini qaygʻuga soladi. Bunday qoʻrs va egri oʻsayotgan nihollar ham qaysidir oilada, qaysidir ota-onadan tarbiyalanayotgani ayni haqiqatdir.

Rivoyat qilinishicha, Rasululloh (s.a.v.): “Imonli boʻlmaguningizcha jannatga kirmaysiz va bir-biringiz bilan oʻzaro muhabbatli boʻlmaguningizcha imonli boʻla olmaysiz. Sizlarni orangizda mehr-muhabbat uygʻotadigan narsani oʻrgataymi? Oralaringizda salomni oshkor (keng) joriy qilinglar” dedilar. Paygʻambarimiz (s.a.v.) oʻzaro salomlashish orqali jamiyat aʼzolari oʻrtasida mehr-muhabbat, hurmat ehtirom va birdamlik paydo boʻlishiga ishora qilganlar. Salomlashish dinimizdagi muomala madaniyatining bosh mezonini sanaladi. Shuningdek, kishilar oʻrtasidagi ijtimoiy axloqiy tomondan aloqa oʻrnatishga asosiy omil boʻlib xizmat qiladi.

Muloqot madaniyatini oshirish uchun odamda ilk yoshlikdan boshlab boshqa odamlarga hurmat va samimiyat bilan munosabatda boʻlishni, ularga hamdardlik, insonparvarlik, mehribonlik qilish qobiliyatlarini shakllantirib borish kerak boʻladi.

Muloqot madaniyati shakllanishida ilk omil oilaviy muhit boʻlib, unda oʻzbek oilalariga xos jihatlari boshqa millat oilalariga nisbatan murakkabroqdir. Sababi, oʻzbek oilalarining oʻziga xos jihatlardan biri koʻp boʻgʻinli ekanligidir. Yaʼni, oilalar faqatgina ota-ona va farzandlardan iborat boʻlmay, balki, bobo – buvi, amaki va amma-xolalar va hokozolar. bilan birgalikda yashashadi. Bunda albatta muloqot doirasi kengayadi va shaxsda nisbatan muomala qilish masʼuliyati ham ortadi.

Oilaviy muloqotlarni oiladagi shaxslar ishtirokiga koʻra quyidagicha tasniflab olamiz.

Ota-ona va farzandlar oʻrtasidagi muloqot.

Har qanday oilada ota-onalar hamda bolalar muloqoti zaminida tashqi muhitdagi insonlar bilan muomalada bo'lish uchun ilk ko'nikmalar shakllanadi. Bu borada g'arb, xususan ingliz oilalari bilan o'zbek oilalarining an'analari turlichadir. Ingliz oilalarida birmuncha erkin va keskin muloqot aks etsa, o'zbek oilasining o'ziga xos qarashlari va tartiblari mavjud. Dinimizning dasturilamali bo'lgan Qur'oni karim va hadisi sharifda ota-onaga go'zal muomalada bo'lishga chaqiriladi. Farzand hurmat qilishi kerak bo'lgan birinchi toifa kishilar – ota-onalardir. Ularga ehtirom ko'rsatish va xizmatlarini bajarish bilan farzandlik burchi ado etilgan bo'ladi. Qolaversa kishining boshqalarga nisbatan muomalasidan uning ota-onasiga nisbatan hurmatini bilib olish qiyin emas. Alloh taolo Qur'on oyatlarining bir nechasida O'zigagina ibodat qilishni zikr qilganidan so'ng, ota-onaga yaxshilik qilishga buyuradi: “Robbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi”.(Isro surasi, 23-oyat).

Bir kishi sahobadan: “O'g'lingning senga bo'lgan mehribonligi qanday?” deb so'radi. U kishi: “Kunduzi orqamdan, kechasi oldimda yuradi va undan yuqorida yotaman” dedi. Ya'ni, ulamoning o'g'li otasini hurmatlab, kunduzi orqaroqda, kechasi chuqur chanoqqa qoqilib ketmasin, deb oldinroqda yo'l ko'rsatib yurar ekan.

Rivoyatlarda farzand uchun ota-ona naqadar yuksak maqomda ekani aks etgan bo'lsada, maqom sohiblari ham, o'z navbatida shunga yarashadigan ish tutishlari lozim bo'ladi. Bir donishmand: “Kaloming kamolingni belgilaydi, maqoming makoningni belgilagani kabi”, deb aytishida hikmat bor. Ko'pincha, o'zimiz amal qilmaydigan ishni farzandlarimizdan talab qilamiz. Kutgan natijaga erisha olmagach, ularni koyib urishamiz va buning foydasi bor yoki yo'qligini o'ylab ham ko'rmaymiz. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida husni xulq shakllanishi va odatga aylanishi uchun yosh avlodni ortiqcha tergash yoki bo'lar-bo'lmasga biror narsadan man etish kifoya qilmaydi. Go'zal xulq va tarbiyaga ega bo'lmagan kishi hech qachon muvaffaqiyatli natijaga erisha olmaydi. Shu boisdan ham, tarbiya beruvchilar avvalo o'zi odobi bilan o'rnak bo'lishi lozim. Ana shundagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi va asta-sekin kutilgan natijaga erishiladi.

Oilaviy muloqotlarning yana bir qancha turlari mavjudki, ular oilaning katta yoki kichikligiga, oila a'zolarining yoshiga va qarindoshlik darajasiga ham bog'liqdir. Ya'ni, shunday ko'p bo'g'inli oilalar mavjudki, ularda amakilar yoki ammalar, buvi va bobolar bilan birgalikda, ahillik va hamjihatlikda istiqomat qiladilar. Bu albatta, oila a'zolarining o'zaro hurmat va yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalanganidan dalolat beradi.

## **2.2-§. Turkiy xalqlar madaniyatida “ota” va “ona” tushunchalari**

Turkologiya tilshunosligi o'z ichiga juda ko'p masalalarni oladi. Bu masalalar, problemalar o'z izlovchisi, tadqiqotchisini kutmoqda. Jumladan, turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari va yaqinlik nomlari bo'lib, o'zbek va uyg'ur (o'zbek va uyg'ur tili bir-biriga qanchalik yaqin bo'lmasin, bu ikki millat tilida boshqa masalalar bilan bir qatorda, biz tekshirmoqchi bo'lgan masalada ham bir-biridan farq qiladigan va ko'p tomondan bir-biriga o'xshashlik, yaqinlik va bir xillik xususiyatlari ham mavjud) tillarida bu sohada hali bironta jiddiyroq ish qilingani yo'q. Vaholanki, terminlarning bu gruppasi til asosiy lug'at fondining eng qadimgi belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, F. Engels o'zining «Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi» degan genial asarida oila formalarining u yoki bu shaklidagi qarindoshlik terminlarining ahamiyati to'g'risida: «ota, o'g'il va qiz, aka-uka, opa-singil degan nomlar faqat faxriy, juda jiddiy, o'zaro majburiyatlar bilan bog'liq va bu majburiyatlarning majmuasi mazkur xalqlarning ijtimoiy tuzumining muhim qismini tashkil etadi», deb yozgan edi. Bu nasabdoshlik terminlari sistemasining juda uzoq vaqtlargacha o'zgarmasdan qolishini ham ko'rsatib o'tadi.

Slavyan, hind-yevropa tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshirish ishlari o'tgan asrning o'rtalarida boshlandi va bu sohada dastlabki qadamlar qo'yildi. Sovet davrida ham rus va slavyan tillari bo'yicha ba'zi ishlar qilindi.

Turkiy tillar bo'yicha qilingan dastlabki ishlar turkiy tillar gruppasiga kiruvchi biror xalqning tarixini uning etnografik xususiyatlarini tekshirish bilan bog'lab, qavm-qarindoshlik terminlari ustida yo'l-yo'lakay to'xtab o'tilgan, xolos. Turkologiyada qavm-qarindoshlik terminlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tekshirish ishlari endigina boshlangan bo'lib, bir tilning qavm-qarindoshlik terminlarini, ba'zi ishlarda esa turkiy tillarning ko'pchiligini bir-biriga qiyos qilinish yo'li bilan tekshirib chiqqanlar.

O'zbek tilshunosligida bu masala to'g'risida qisman gapiriladi. Lekin qavm-qarindoshlikni anglatuvchi ota, ona, bola, o'g'il, siz, nabira kabi qon-qarindoshlik terminlarigina leksikologiya tarixi bilan bog'lab tekshiriladi va misol tariqasida ko'rsatib o'tiladi yoki o'zbek tili va uning shevalaridagi qavm-qarindoshlik terminlarini tekshirish, jiddiy ilmiy ish olib borish kerakligi, uning tilshunoslikdagi ahamiyati to'g'risida to'xtab o'tiladi.

O'zbek tilshunosligida keyingi vaqtlarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O'rinboyevning qavm-qarindoshlik terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya'ni undov, murojaat anglatuvchi so'zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag'ishlangan asaridir. Albatta, bu ham o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari uchun juda oz material beradi. O'zbek tili tarixiga oid 1913 yilda chiqqan "Birinchi muallim" kitobining 23-24-betlarida esa qarindoshlarning umumiy ro'yxati berilgan.

Uyg'ur tilshunosligida esa bu sohada hali hech handay ish qilingani yo'q. Fahat turkologik ishlarda uyg'ur tili uchun keltirilgan misollarnigina uchratish mumkin. Albatta, bu ishlarda keltirilgan misollar uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining hozirgi ahvolini to'liq ifodalab bera olmaydi.

Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari to'g'risida L.A.Pokrovskaya, X.G.Yusupov va S.A.Burnasheva tomonidan yozilgan maqolalarnigina ko'rsatish mumkin. Bu asarlar turkiy tillardagi qavm-qarindoshlik terminlarini ma'no jihatidan tekshirishda ko'pgina ijobiy tomonlarga ega, bo'lsa ham, lekin o'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining hozirgi ahvoliga, unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari materiallarida qavm-qarindoshlik

terminlari juda ko'p bo'lib, ularning ishlatilish doirasi, leksik, morfologik ma'nolari ham xilma-xildir. L.A.Pokrovskaya o'z ishida konkret bir turkiy tilni asos qilib olib tekshirmaydi, shuning uchun ham bu ish umumiy turkologik xarakterga ega. X.G.Yusupov esa hozirgi zamon boshqird tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining ko'rinishi, ularning dialektal xususiyatlarini ta'riflab bergan. Xuddi shu singari S.A.Burnasheva ham tatar tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini ta'riflash va qisman boshqa turkiy tillardagi terminlarga yo'l-yo'lakay xarakteristika berib o'tish bilan chegaralanadi.

Ma'lumki, har qanday terminlar, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham qanchalik turg'un bo'lmasin, zamon o'tishi, jamiyatning o'zgarishi, oila, nikoh formalarining yangi shakllari va ular o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishi bilan ishlatilib kelinayotgan qavm-qarindoshlik terminlarining ma'no doirasi ham kengayadi, yangi turlari paydo bo'ladi.

O'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari birdan paydo bo'lgan emas, albatta. U o'ziga xos tarixiy bosqichlarni bosib o'tib, hozirgi ahvoliga kelgan. Hozirgi tilda qo'llanilayotgan har bir termin paydo bo'lgan vaqti jihatidan ham, turli funksiyalarda qo'llanilishi va har xil o'zgarish hamda yangiliklarni qabul qilish jihatidan ham o'ziga xos tarixga egadir.

O'zbek va uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari hozirgi holga kelguncha ko'p davrlarni va turli bosqichlarni boshidan kechirdi. Zamonlarning o'tishi, o'zbek va uyg'ur xalqi hayotida yuz bergan zo'r iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar bu tillarning lug'at sostavini ham o'zgartirdi, ko'pgina qavm-qarindoshlik terminlari eskirib, iste'moldan chiqdi, bir turkum terminlarning ma'no doiralari kengaydi va o'zgarishlarga uchradi.

Ma'lumki, o'zbek va uyg'ur xalqi o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida turli sistemadagi tillarda gapiruvchi ko'pgina xalqlar bilan birga hayot kechirdi, aralashdi. Shuning natijasida o'zbek va uyg'ur tili murakkab sharoitda shakllandi va uning lug'at sostavi, shu jumladan, qavm-qarindoshlik terminlari ham boshqa tillarning leksik elementlarini, terminlarini o'z ichiga olgan holda rivojlandi.

Ammo bunga qaramasdan, o‘zbek va uyg‘ur tilining asosiy qavm-qarindoshlik terminlari saqlanib qoldi va ma’no doirasini kengaytirdi.

Qavm-qarindoshlik terminlari va nomlarini tilshunoslik nuqtai nazaridan asosan ikki yo‘l bilan:

- 1) terminlar va nomlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti;
- 2) terminlar va nomlarning hozirgi ahvoli, ko‘rinishi, leksik, grammatik xususiyatlari va ularning ma’no doiralari nuqtai nazaridan tekshirish mumkin.

Bunday tekshirishlarning birinchisi juda murakkab bo‘lib, tarixchilar, etnograflar va tilchilarning hamkorlikda ish olib borishlarini talab qiladi. Biz mana shu keyingisi ustida ish olib bormoqchimiz, ya’ni hozirgi zamon o‘zbek, uyg‘ur va boshqa turkiy tillar materiallari asosida qavm-qarindoshlik terminlarining bugungi ahvolini, uning leksik, grammatik xususiyatlarini, ma’no doiralarini yoritib bermoqchimiz.

Hozirgi zamon o‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlari o‘zlarining kelib chiqishi va ma’nosiga ko‘ra asosan uchta katta guruhlarga bo‘linadi:

I. Qon-qarindoshlik terminlari.

II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari.

III. Yaqinlik nomlari.

I. Qon-qarindoshlik terminlariga o‘zbek va uyg‘ur tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda, ona, ota, aka, tog‘a, xola, buva (bobo), buvi, amma, nabira kabi ma’nolarni ifodalovchi terminlar kiradi.

II. Nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlarini er; xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ona, qayin ota, suda, quda xola, quda buva; o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay bola singari terminlar tashkil etadi.

III. Yaqinlik nomlari deb atalgan bu guruh asosan o‘zbek, uyg‘ur tiliga xos bo‘lib, bu termin yuqoridagi ikki gruppada terminlardan butunlay farq qiladi, ya’ni bu tutingan so‘zi bilan — tutingan ota (+m); tutingan ona (+m); singari ifodalangan terminlar kiradi.

Terminlarning birinchi guruhi o‘z navbatida o‘z guruhidagi terminlar bilan birga — ota-ona, ota-bobo, tog‘a-jiyan, opa-singil, aka-uka, amma-xola kabi formalarda juftlashib, ko‘plik va jamlash ma‘nolarini ifoda qiladi. Shuningdek, boshqa so‘z turkumlari bilan — katta buvi, o‘gay ona, qayin ota singari yangi qavm-qarindoshlik terminlari va har xil affikslar olib otalik, enaga kabi yangi ma‘noli so‘zlarning yasalishida asosiy manba bo‘la oladi.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, o‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarini ifodalanishiga ko‘ra ikkiga bo‘lish mumkin:

I. Oddiy (tub) so‘z bilan ifodalangan terminlar — ona, bola, qiz, aka, opa, jiyan, tog‘a, nevara, bobo, buvi va b.

II Qo‘shma so‘z bilan ifodalangan terminlar — amnavachcha, qayin ona, qayin egachi, katta buva; o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il, quda xola singari terminlarni kiritish mumkin.

Bu yerda ishlatilgan qavm-qarindoshlik va qon-qarindoshlik terminlari deb atalgan ibora ustida avtor tubandagi tushuntirishni eslatib o‘tadi: Qavm-qarindoshlik deganda yuqorida keltirilgan uch guruh terminlarini tushunish zarur. Bu rus tilidagi «термин родства» ma‘nosini ifodalaydi, ya‘ni umum ma‘noga ega. Ikkinchi qon-qarindoshlik termini esa rus tilidagi «термин родства по крови» ma‘nosida yuri- tiladi. Bu umumiylikdan ko‘ra, ma‘lum bir gruppaga terminlarni o‘z ichiga oladi.

Har bir tilda akslanayotgan milliy madaniyat ko‘proq xalq og‘zaki ijodi sanalgan maqollarda aks etadi. Til “ajdodlardan avlodlarga milliy madaniyatni meros qilib qoldiradi. Shu qatorda o‘ziga xos madaniy boy tajribani ham”.

Bu tajriba qanday taraqqiy etgan bo‘lishidan qat’i nazar unda ota-ona konsepti mavjud bo‘ladi. Ota-ona insonni dunyoga keltiruvchi, uni shaxs sifatida kamol toptiruvchi inson ekanligi har bir jamiyatda ularga bo‘lgan aksiologik qarashlarni dunyoga keltiradi. Maqollar har bir jamiyatning turmush tarzi, madaniy qarashlari hamda qadriyatlar tizimining o‘ziga xos ekanligini belgilab beradi.

Jumladan, jamiyatdagi otaga bo‘lgan munosabat mazkur jamiyatning madaniyat darajasi bilan bog‘liqdir. O‘zbek madaniyatida ota yoki onaga bo‘lgan

munosabat qadriyat darajasida bo‘lib, uni lingvokulturologiyaning predmeti bo‘lgan xalq maqollari misolida dalillash mumkin. “Zero, til olam va odam munosabatini o‘zida aks ettiruvchi mohiyatdir”.

Madaniyatning shakllanishida muhim omillardan biri bu dindir. Din xalqni va jamiyatni ma’lum bir tartibga undovchi saodat yo‘lidir. Kishilik jamiyatining milliy-madaniy jihatdan shakllanishida uning o‘rni katta. Shu sababli turg‘un birikmalarning semantikasida dinning ta’sirini yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

1. *Amri padar arshdan ulug‘.*
2. *Ota rozi - Xudo rozi.*
3. *Ota onasini tanimagan tangrisini tanimas.*
4. *Otang ishga buyursa nomozingni buzib ayt.*

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “Arsh” leksemasi quyidagicha izohlanadi: Arsh 1 (taxt, shiypon) osmonning eng yuqori qavati, yuqorisi. Har uchala maqolda ham islom madaniyati yaqqol namoyon bo‘lgan. “Arsh” – islom aqidasiga ko‘ra, yer, osmon, yulduzlar va kursiydan ham katta hajmdagi mavjudod. Olloh yaratgan barcha narsadan u buyuk va kattadir. Maqolda otaning so‘zi yoki buyrug‘i farzand uchun naqadar muqqaddas, rad etib bo‘lmaydigan narsa ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Demak, islom dini ta’sirida shakllangan ushbu maqollarda “ota” konseptining ulug‘lanishini ko‘rishimiz mumkin.

1. *Otang ishga buyursa,  
Namozingni buzib ayt.*
2. *Ota oldidan o‘tma,  
Odob oldidan ketma.*
3. *Ota oldida kek urma ,  
Odobingga chek urma.*

Keltirilgan paremeologik fond namunalarini yuqorida berilgan maqollarning mantiqiy davomi sifatida baholash mumkin. Oldin o‘git berilgan bo‘lsa endi natija ifodalanmoqda.



O‘zbek milliy madaniyatida “ota” konseptining “oila ustuni”, “oila himoyachisi”, “muhim qarorlarni qabul qiluvchi”, “oilaning asosiy boquvchisi” kabi tashkil etuvchilari bor.

“Oilaning asosiy boquvchisi” “ota” konseptining asosiy assotsatsiyalaridan biridir.

- 1. Otangning chorbog‘ida qolguncha, Onangning oymog‘ida qol.*
- 2. O‘roq tutib otang qolguncha, O‘ymoq tutib onang qolsin.*
- 3. Otangning mol dunyosi bilan qolguncha, Onangning pilta-savati bilan qolgin.*

Chorbog‘ o‘zbek tiliga tojik leksikasidan kirib kelgan bo‘lib, chor, ya’ni “to‘rt bog‘” degan ma’noni anglatadi. O‘ymoq – uncha katta bo‘lmagan chuqurlik, tor, bejirim; shevada esa “angishvona” ma’nosini bermoqda. 1-maqolda “o‘ymog‘i” leksemasi kichik joy ma’nosini anglatmoqda. Ota va ona, chorbog‘ va o‘ymog‘ leksemalari nutqiy antonimiya hosil qilmoqda. 2- maqolda “oymoq” leksemasi “o‘roq” bilan qarama – qarshi qo‘yilganini inobatga olsak, o‘ymoq izohli lug‘atda keltirilgan angishvona izohiga to‘la mos keladi. 3-turg‘un birikmada piltasavat madaniy koddir. Madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg‘un o‘xshatish, metafora, qarg‘ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in’ikos etadi.

Madaniyatshunoslarning xulosasiga ko‘ra esa madaniyat kodlari madaniyatni tushunish kalitidir, u biron-bir shaklda kodlangan madaniy axborotni aniqlash imkonini beradi. Demak, madaniy kod ma’lum bir jamoalargagina tushunarli bo‘lgan muayyan mazmunni shartli va ramziy tarzda ifodalovchi takrorlanmas belgilar tizimidir. Piltasavat o‘zbek oilalarida foydalaniladigan uy ro‘zg‘or buyumidir. Pilta – charxda ip yigirish uchun piltakachda yumaloqlangan bir bo‘lak paxta. Bunday paxtalarni savatga solib qo‘yib, birma-bir olib ishlatardilar. Piltasavat leksemasi “Otangning bog‘-u rog‘i bilan qolguncha onangning piltasavati bilan qol” maqolida asosiy mazmunini ifodalashda yordamchi vosita bo‘lib kelmoqda. Uning tushunilishi alohida bir madaniy tahlilni taqozo etadi. O‘zbek madaniyati bilan, uning turmush tarzi bilan tanish bo‘lmagan

kishi bu maqolni tushuna olmaydi. Shuning uchun ham uni madaniy kod sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Mazkur maqollarda otaning asosiy boquvchisi ekanligi bilvosita ifodalanmoqda. Bu tagma'no "chorbog'", "o'roq", "mol dunyo" so'zlari bilan voqelanmoqda. Zero, qadimda erkaklar ishlagan, ayollar esa xonadon yumushlari va farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgan. Lekin ushbu maqollardaga asosiy hukm bu emas. Unda ona olamdan o'tib ketsa, farzandlarni ota eplashi qiyin kechishi, odatda ayoli olamdan o'tgan erkaklarning yana turmush qurishi va bu holat har doim ham farzandlarga yoqmasligi kabi xalqning tajribalari aks etgan. Turmush o'rtog'i olamdan o'tgan ayollar esa har qanday holatda ham farzandlari uchun yashaydi, o'zbek madaniyatida deyarli oila qurmaydi. Shuning uchun ham xalq tilida quyidagi kabi maqollar mavjud: Onali yetim gul yetim, Otali yetim shum yetim.

Maqollarda nafaqat qadriyatlar, balki achchiq hayotiy tajribalar, boshdan o'tkazilgan sinovlardan chiqarilgan achchiq xulosalar ham o'rin olishi yuqoridagi maqollarda aks etgini ko'rib chiqdik. Bu kabi achchiq hayotiy tajribalardan chiqarilgan xulosalar millatlararo mushtaraklikka ega. Masalan, rus lingvomadaniyatida: Без отца полсироты, а без матери и вся сирота maqoli mavjud bo'lib, u o'zbek tilidagi ushbu maqolning muqobilidir: Otasiz yetim gul yetim, onasiz yetim chin yetim. Madaniyatlararo ushbu mushtaraklik ona har qanday shaxslar madaniyatida mehr timsoli ekanligining isbotidir.

Maqollar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, o'zbek xalq maqollarida ota va ona bir-biriga zid qo'yiladi, hamda nutqiy antonimiyani tashkil etadi. Aslida, til sathida ota va ona so'zlari antonimlikni hosil qilmaydi. Bu kabi bir tushunchaning ikki tomonini anglatuvchi ota-ona, aka-uka, o'g'il-qiz kabi so'zlar o'zaro korrelyativ munosabatdagi so'zlar deyiladi: "Antonimlarni umumiy giperonimga ega giponimlarning o'zaro munosabatidan farqlash lozim. Masalan, umumiy jins giperonimga ega ayol va erkak, farzand giperonimi bilan umumlashadigan o'g'il va qiz giponimlari antonimik juftlikni hosil qila olmaydi. Albatta, ushbu leksemalar yagona differensial semasi bilan farqlanishi mumkin. Antonimik

munosabat hosil bo'lishi uchun esa qarama-qarshilik bitta mohiyatning, hodisaning ichida bo'lishi va yana ikki leksema tarkibidagi yagona farqlovchi semalar ham zid bo'lishi kerak. O'g'il va qiz, ota va ona, tog'a va xola leksemalari «erkak» va «ayol» semalari asosida (farqlanadi) zidlanadi. Bizningcha, erkak va ayol bir hodisaning qarama-qarshi tomonlari emas, bir giperonimga ega ikki xil hodisadir".

Maqollardagi nutqiy antonimiyaning ko'p kuzatilishining asosiy sabablaridan biri – millat o'zaro zid bo'lmagan narsa, belgi-xususiyat, harakatlarni bir-biriga solishtiradi, zidlaydi. Shu tariqa maqollarda nutqiy antonimiya hosil qilinadi. Xalq ota va ona so'zlarini bir-biriga zidlar ekan, otaning qat'iyati va onaning mehribonligi ko'proq oppozitsiya belgisi bo'lib keladi: Ota qarg'ishi oq, Ona qarg'shi do'q. Maqolda otaning qarg'ishi o'qqa, onaning qarg'ishi do'qqa o'xshatilmoqda. Mazkur o'xshatish orqali metafora yuzaga kelgan. Bu o'rinda otaning qarg'shi o'q kabi tez yetib boradi va shikastlaydi, degan ma'no asosida ko'chim hosil bo'lmoqda. Bu o'rinda lisoniy emas nutqiy metafora haqida so'z yuritish lozim. Onaning qarg'ishi otanikiga nisbatan kuchsiz ekanligi uning do'qqa qiyoslanganidan ma'lum.

Gruzin lingvomadaniyatida ham shu kabi turg'un birikmani uchratish mumkin.

*Ota qarg'asa soqoli ta'kidlaydi, Ona qarg'asa qalbi duo qiladi.*

Ma'lumki, o'zbek madaniyatida o'g'il farzand otaning o'rnini bosuvchi shaxs sifatida ifodalanadi. Qiz farzand esa onaga mengzaladi: *Otaning aksi o'g'ilda, Onaning aksi qizda ko'rinadi. Onasiga qarab qizini ol.*

Qozoq lingvomadaniyati namunasi bo'lgan quyidagi maqolda ham ota-o'g'il munosabati yuksak ekanligini ko'rishimiz mumkin: *Otadan o'g'il qolsa, demak, u yashamoqda, Otadan qiz qolsa, demak, undan iz qolibdi.*

Yuqorida keltirilgan qozoq va o'zbek lingvomadaniyatiga tegishli maqollarda ham umummadaniy qarashlarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'zbek va qozoq xalqining umumiy turkiy madaniyati, umumiy e'tiqodi, yaqin hudud, yaqin qo'shnichilik, bir til oilasiga mansublik kabi omillar bilan izohlanadi.

O‘zbek madaniyati tarixidan ma’lumki, ota-qiz munosabati go‘zal tarbiya ta’sirida vujudga keladi. O‘g‘il va ota munosabati esa o‘zgacha tartib asosida quriladi. Ota o‘g‘ilni hayotga tayyorlovchi eng muhim shaxs etib ko‘rsatiladi. Ushbu fikrimini quyidagi maqollar orqali tasdiqlash mumkin: *Otalik o‘g‘il – egalik qil. Otasiz o‘g‘ilning og‘zi katta.*

Chechen lingvomadaniyatida esa boshqa bir munosabat ifodalangan maqollarni ko‘rishimiz mumkin: *Qiz chiroyli bo‘lsa, otaning nomi mashxur bo‘ladi yoki chiroyli qiz otasini mashxur qilar.*

Ma’lumki, Checheniston Alaniya davlati parchalanishidan vujudga kelgan kichik bir davlat. Aholi soni 1 mln 230 ming. Lekin shunga qaramay, o‘zining yuksak madaniyati va lingvomadaniyatiga ega davlatlardan biridir. Chechen madaniyatida ham o‘zbek madaniyati qizning roziligi otasidan so‘raladi. Keltirilgan maqol mazmuni shu ma’noni ifodalaydi. O‘zbek va chechen madaniyatidagi bunday umummadaniy o‘xshashliklar bu ikki xalqning bir dinga, ya’ni islom diniga e’tiqod qilishi natijasidir. Lekin o‘zbek lingvomadaniyatida bu maqolga muqobil mavjud emas. Chunki o‘zbeklarda otaning roziligi ayollar orqali so‘raladi.

Xullas, o‘zbek tilida “ota” komponentli maqollarda otaning ulug‘lanishi, unga itoat qilish farzandlar uchun burch ekanligi, otaning mehridan esa onaniki ustun ekanligi ifodasini topgan.

### **2.3-§. “Oila tili” ning ayrim iboralari**

Har bir davlatning eng asosiy tashkil etuvchilardan biri insonga bolaligidan ma’naviy qadriyat fazilatlarini sindiruvchi muqaddas narsa oila institutidir. Har bir madaniy jamiyatni, har bir xalqni oilasiz tasavvur qilish mumkin emas. Har bir sotsium oila har tomonlama rivojlanishiga, uning poydevori mustahkam bo‘lishiga, bu dargohning har bir a’zosi bir-birini qo‘llab quvvatlanishiga va o‘zaro tushunishiga erishish uchun intiladi. Prezident Sh.Mirziyoyev oila haqida quyidagicha ta’kidlaydi: “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, inson, avvalambor qayerda ishlashidan

qat'iy nazar, agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi".

Oila yaxshilik, qarindoshlik, insonparvarlik, qayg'udoshlik kabi tushunchalar bilan bog'liq holda qadriyat kategoriyalarining ko'p qirrali tizimini o'zida mujassam etadi. Millat mentaliteti, ma'naviy madaniyati, uning dunyoni idrok etishiga va dunyoqarashiga to'liq bog'liq bo'lgan oila, oilaviy munosabatlar orqali belgilanadi. Shubhasiz, oilaning eng asosiy vazifalaridan biri go'daklikdan bolalar qalbiga o'z xalqining ma'naviy qadriyatlarini singdirishdir (bu vazifa asosan betakror xalq hikmatlari orqali amalga oshadi).

O'zbekistonda oila muqaddas hisoblanadi. U – daxlsiz, har qanday vaqtda ham shak-shubhasiz jamiyatning bebaho qadriyati, boyligi. O'zbek oilasi insonning dunyoga kelishi, voyaga yetishi, tarbiyasi beshigidir. Tayanch, suyanch, qo'rg'on sifatida oila o'z farzandlarini go'dakligidan to qarib, dunyodan o'tib ketgunga qadar bag'rida avaylab asraydi, ardoqlaydi. Oila a'zolari insonning vafotidan so'ng ham uni eslab, haqqiga duolar o'qishadi. O'zbeklarda oilani ko'z qorachig'iday saqlash, obro'yiga obro' qo'shish, er va xotinning nikoh ahdini bekor qilishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha yozilmagan qonunlar borki, ularga oila a'zolari bajonidil bo'ysunishadi. "Milliy ma'naviyatimizga mos odob-axloqqa tayangan o'zbek oilasi o'zining barkamolligi, farovonligi va mustahkamligi bilan butun dunyoga namuna maktabi bo'lishi uchun mustahkam poydevorga ega".

Oila munosabatlarida kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, katta avlod vakillarining obro'yini saqlash va ularni qadrlash, oilaviy an'analarning, tartib-intizom, odob-axloq qoidalarining uzviyligi va davomiyligi, onaning muqaddasligi, uning oila o'chog'ini saqlash va farzandlar tarbiyasidagi o'ta muhim o'rni, otaning oila boshlig'i sifatidagi roli, javobgarligi kabi qator hayotiy tamoyillari o'z o'rnini topgan. Etnografiya fanining dalolat berishicha, qadimda odamlar qabila va urug'larga birlashib yashashgan. "Urug'chilik tartiblari oila-nikoh

munosabatlarida ham yaqqol ko‘rinib turadi. O‘g‘il uylantirishda yoki qizini erga berishda oila boshlig‘i oqsoqolning ijozatini oladi. Ko‘pchilik oqsoqollar o‘z ixtiyoriga bo‘ysungan urug‘larning kelib chiqishlarini va ularning ajdodlarini yaxshi bilishgan. Shuning uchun urug‘lardan biron kishi uylanmoqchi bo‘lsa, kuyov-kelinning ajdodlarini oqsoqol albatta bilishi lozim bo‘lgan”.

O‘zbek tilida *oila* so‘zi polisemantik leksema. Asli u arab tilidan o‘zlashgan. Arabcha ) لعائلة ‘ā’ila( ning lug‘aviy ma’nosi – “bola-chaqa, xonadon; urug‘, avlod”. Hozirgi o‘zbek tilida u quyidagi ma’nolarga ega:

1. Er-xotin, ularning bola-chaqalari va eng yaqin tug‘ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui; xonadon.

2. *ko‘chma*. Bir maqsad, maslak bilan birlashgan ko‘p kishilar, xalqlar, mamlakatlar.

3. O‘simliklar va hayvonlar sistematikasida tuzilish jihatidan bir-biriga o‘xshash, kelib chiqishi jihatidan ham o‘zaro yaqin bir necha urug‘ni o‘z ichiga olgan guruh.

4. Qardosh tillar guruhi.

5. *so‘zlashuv tilida*. Rafiqa, xotin.

“Oila” tematik guruhiga kiruvchi terminlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning ko‘pi *ona* so‘zi bilan bog‘liq. I.Jabborovning yozishicha: “Maishiy turmushda ayrim urf elementlari ibtidoiy onalik (matriarxat) urug‘iga borib taqaladi. Masalan, o‘zbek oilasida hozirgacha ona tomonidan qarindoshlarning, ayniqsa, tog‘aning roli katta. Bunday holat etnografiyada *avunkulat* nomli oila-nikoh tartiblari bilan bog‘liq bo‘lib, tog‘a-jiyanlar munosabatlariga alohida e‘tibor berilishi *matrilokal* tartiblaridandir. Tog‘a jiyanning beshik va sunnat to‘ylaridan to uylanguncha barcha tadbirlariga bosh bo‘lib yordamlashib turishi shart bo‘lgan. Avunkulat va yoshiga qarab guruhlash tartiblarining ayrim elementlari qavmu qarindoshlik atamalarida ham o‘z ifodasini topgan. Masalan, o‘zbeklarda ona va ota tomon qarindoshlar nomi farqlangan:

onaning aka-ukalari jiyanga nisbatan *tog'a* hisoblansa, otasining aka-ukalari *amaki* deb nomlangan. Tog'aning mavqei amakidan baland bo'lishi qadimiy avunkulat qoidalarining aks-sadosidir. Onaning opa-singillariga *xola* deb, otanikiga *amma* deb murojaat qilingan. O'zidan katta o'g'il birodariga *aka*, kichigiga *uka*, ayollarning kattasiga *opa*, kichigiga *singil*, akasining xotiniga *kelin oyi* yoki *yanga*, ukasining xotiniga *kelin*, opasining eriga *pochcha (yazna)*, singlisining yoki qizining eriga *kuyov*, ota-onasining otasiga *bobo (buva)*, onasiga *momo (buvi)*, aka-ukalarinig farzandlariga yoshiga qarab *aka* yoki *uka*, opa-singillarniki – *jiyan* va hokazo nomlar ishlatilgan”.

“O'zbek oilalarining eng ajoyib tarixiy an'alarida bola tarbiyasi alohida o'rinni egallaydi. <...> Hozirgi davrda oila va oilaviy munosabatlarda demokratik tartiblarning o'rnatilishini, oila a'zolari orasidagi, ayniqsa, ota-ona va bolalar, bobo-momolar va avlodlar, aka-uka va opa-singillar orasidagi an'anaviy munosabatlarni o'rganish nihoyatda dolzarb va foydali masala desa bo'ladi. Qadimda o'zbeklarda yoshiga, jinsiga va tabiatiga qarab bola tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Masalan, o'g'il bolalarga yoshligidan otalar urug'ining davomchisi, merosxo'ri, oila or-nomusi va iftixori, himoyachisi, qizlarga nisbatan ustun turadigan erkaklik fazilatlarini ongiga singdirib, qizlarga esa bo'lajak ona va uy bekasi vazifasini ado etuvchi shaxs sifatida tarbiya berishgan. Asta-sekin voyaga yetishi bilan o'g'il bola ota ta'sirida, qiz bola ona ta'sirida muayyan tartiblarga o'rgatila boshlangan”.

Bola tarbiyasiga bag'ishlangan paremiologik birliklarda yuqoridagi fikrlar o'z isbotini topgan. O'zbek tili lug'at boyligida “oila” paremiologik maydonini *ulyanish, er (tushmush)ga chiqish, nikoh, oila, ro'zg'or, uy, pusht, jon, o'z, xesh, jigar, tomir, urug', tuxum, tuqqan, tug'ishgan, og'ayni, urug'-aymoq, kindikdosh, tomirdosh, ota, padar, ona, ota-ona, bobo, momo, buva, aka, uka, og'a, ini, og'a-ini, opa, singil, egachi, nevara, tog'a, xola, amma, jiyani, er, chol, yo'ldosh, xotin, kampir, er-xotin, yor, o'gay, o'ynash, ikki xotinlik, qo'sh xotinlik, kundosh, quda, ovsin, bola, farzand, o'g'il, qiz, yetim, beva, yesir, qaynona,*

*qaynata, qayni, qaynog'a, qayinegachi, qaynsingil, kelin, kuyov, yanga, pochcha, boja* leksemali xalq maqollari tashkil etadi. Bu maqollar qatoriga mazmunan bir xil yoki yaqin bo'lganligi uchun ba'zi zoonim, fitonim, ornitonim va insekt (hasharot) komponentli paremiyalar va *oila* leksemasi ishtirok etmagan, lekin mazmuni bilan "oila" tematik guruhiga kiruvchi "*Et bilan tirnoqni ajratib bo'lmas*" kabi naqlar ham kiritildi. "Oila" semantik maydoniga kiruvchi o'zbek maqollari ifodalagan o'z va majoziy ma'no va mazmunlar keyingi bobda butun tafsiloti bilan ko'rib chiqiladi.

Ma'lumki, ayollarning o'zaro gaplashadigan mahram gaplari, asosan, ular nutqida qo'llanadigan leksik va frazeologik birliklarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Chunki tilimizda shunday so'z va iboralar borki, ular faqat erkaklar yoki ayollar tomonidagina qo'llanilishi mumkin. Garchi o'zbek erkak va ayollari nutqida qo'llanadigan til birliklari yapon erkak va ayollari nutqida ishlatiladigan til birliklari kabi keskin farqlanib turmasa ham<sup>60</sup>, bu haqda fikr yuritishga arzigulik farqlar topiladi.

O'zbek ayollari nutqining ayrim xususiyatlari bo'yicha tadqiqot o'tkazgan Sh.Iskandarovning fikriga ko'ra, xotin-qizlar nutqiga mansub "aylanay", "o'rgulay", "girgitton", "qoqindiq" singari so'zlar ijobiy ma'no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi, ular ko'proq keksa ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatlarida qo'llanadi: "Kechqurun ko'cha eshigi taqilladi-yu, kampirning "Voy, o'rgilay", "Voy, girgitton" degan tovushi eshitildi. (A.Qahhor). ...Xotin-qizlar nutqining individual xususiyatlarini "voy" undovining qo'llanilishi asosida ham oydinlashtirish mumkin: ma'lum bo'lishicha, "voy" undovi o'ndan ortiq ma'no nozikliklarini ifodalaydi. Sevinish, erkalash, achinish,

---

<sup>60</sup> Японияда махсус эркак ва аёллар тили (нутқи) мавжуд бўлиб, хатто махсус тил birliklari билан фарқланади. Қаранг: Алпатов В. М. Япония. Язққ и обўество, с. 70.



qo‘rqish, xavas, sarosimalanish, koyish, alam singari qator ichki holatlarning yuzaga chiqishida bu so‘z ma‘lum darajada ahamiyatga ega...”<sup>61</sup>

Bu so‘z, ayniqsa, keksa ayollar nutqida erkalash ma‘nosida keng qo‘llanadi. Shuningdek, ayollar nutqida bu so‘z takror holda ham ko‘p qo‘llanadi: “Voy-voy-voy, sodda mug‘ombir-yey! - Oyim ikki qo‘llab ushlab, ko‘zlarimga tikildi..” (O‘.Hoshimov).

Qishloqlik ayollar nutqida “o‘lsin”, “men o‘lay”, “voy o‘lay” kabi birliklar ham ancha faol qo‘llanadi: “Voy, o‘lay, qanaqa dadangiz?..”, “o‘lsin, tush ham yomon narsa ekan...” (T. Jo‘rayev).

O‘zbek tilida shunday iboralar borki, ular faqat erkaklar nutqidagina qo‘llaniladi. Jumladan, “Burnini yerga ishqalamoq”, “Baqbaqangdan akang”, “Dabdalasini chiqarmoq”, “Jig‘ini ezib qo‘ymoq”, “Otimni (nomimni) boshqa qo‘yaman”, “Quling o‘rgilsin” (yigit-yalang nutqida ishlatiladi)<sup>62</sup> kabi iboralar asosan erkaklar nutqida qo‘llanishligi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi.

## **II bob bo‘yicha xulosalar**

1. Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning qiziqishlar va bilish bo‘yicha ma‘lumot almashishdan iborat bo‘lgan o‘zaro ta‘sir etishdir. Shuningdek, muloqot - hayot kechirishning eng muhim sharti va bir shakli. Insonlar o‘rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari shaxsning turmush tarzi barcha jabhalarida-oilada, o‘qishda, ish jarayonida - boshqalar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatining eng muhim shartlaridandir.

2. Yuqorida keltirilgan qozoq va o‘zbek lingvomadaniyatiga tegishli maqollarda ham umummadaniy qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘zbek va qozoq xalqining umumiy turkiy madaniyati, umumiy e‘tiqodi, yaqin hudud, yaqin qo‘shnichilik, bir til oilasiga mansublik kabi omillar bilan izohlanadi.

---

<sup>61</sup> Исқандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари, 19-б.

<sup>62</sup> Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978, 292-б.

3. Tasviriy vositaning bu turi narsa yoki predmetning belgisini ikkinchi narsa yoki predmetning xuddi shu belgisiga ko'ra qiyoslash natijasida vujudga keladi. Shunga ko'ra o'xshatish uch asosga ega: o'xshayotgan predmet, o'xshagan predmet va o'xshovchi belgi bu uch jarayon o'xshatishning asosini tashkil qiladi.

### III BOB. O'ZBEK MULOQOT XULQINING JINS JIHATDAN XOSLANISHI

#### 3.1-§. O'zbek muloqot xulqining jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari

Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar.

Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo'yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud. Turkiyshunoslikda bu borada N. I.Grodekov (qozoq va qirg'izlar misolida), Y.D.Polivanov (Samarqand eronilarining o'zbekcha nutqi misolida), A.N.Samoylovich (qozoqlar va oltoylar misolida) larning kuzatishlari, shuningdek, qator turkiyshunos-dialektologlarning asarlarida mazkur masala bilan bog'liq ko'plab qaydlar bor.

V.M.Alpatov 1988-yili chop etilgan “Японий. Язык и общество” nomli kitobida yapon ayollarining MX haqida ancha batafsil ma'lumot beradi va yaponiyada hatto maxsus ayollar tili (nutqi) mavjudligini, ayollar nutqi erkaklar nutqidan muloyimligi, nazokatligi, shuningdek, ayrim maxsus til birliklari bilan farqlanib turishligini ta'kidlaydi<sup>63</sup>.

O'zbek ayollari nutqining ayrim o'ziga xos xususiyatlari haqida tilshunoslarning kitob va maqolalarida qisqacha to'xtalib o'tilgan<sup>64</sup>. Umuman, MX jins jihatdan ham qator o'ziga xosliklarga ega. Quyida o'zbek MX-ning jins jihatdan xoslanishining asosiy sabablari, ayrim ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari haqida o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijalarini bayon qilamiz. Turmush tarzi hamma vaqt inson kayfiyatini belgilaydi va uning xarakteriga, MXga kuchli ta'sir etadi. Erkak va ayollar bajaradigan vazifalari, ijtimoiy haq-huquqlari jihatidan bir-biridan farqlanar ekanlar, demak, ularning MXlari ham o'z-o'zidan farqlanadi. Burch va

---

<sup>63</sup> Алпатов В. М. Япония. Язык и общество. - М.: Наука, 1988, с. 70.

<sup>64</sup> Қаранг: Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. - Тошкент: Фан, 1979, 111-112-б; Искандарова Ш. Аёллар нутқида ундов сўзларининг қўлланиши // Республика ёш филолог олимларининг анонавий илмий конференцияси материаллари. - Тошкент, 1991, 61-63-б.

haq-huquqlardagi, mehnat taqsimotidagi farqlar qanchalik katta bo'lsa, MXdagi farqlar ham shunchalik katta bo'ladi. Chunonchi, "O'rta asrlarda yapon ayollarining jamiyatdagi o'rni ancha yuqori bo'lganligi sabab, u davrdagi erkak va ayollar nutqi o'rtasidagi farq unchalik katta emas edi. Faqat o'rta asrlarning oxirlariga kelib samuray (tajovuzkor yapon harbiylari) toifasi birinchi planga chiqib qolganidan keyin, ayollarning holati keskin yomon tomonga o'zgarishi munosabati bilan nutqiy farqlanishlar ham shakllandi"<sup>65</sup>.

Tarix qatlamlariga chuqurroq kirib borsak, ayolga cho'ri yoki jonivor sifatida munosabatda bo'linganini Sharqning ko'plab quldorlik davlatlari misolida kuzatish mumkin. Bundan uch ming yillar avval tuzilgan Assiriya hukmnomalarida aytilishicha, ayollarning maxsus yopinchiqlari bilangina tashqariga chiqishi qonun yo'li bilan belgilab qo'yilgan. ...Shuningdek, er o'z xotinini ayovsiz kaltaklashi, sochlarini yulib olishi, qulog'ini qirqishi mumkin bo'lgan va buning uchun hech qanday jazo olmagan.

Shunga o'xshash holatlarni qadimgi Eron tarixida ham kuzatish mumkin. Qadimgi Eronda zardushtiylilik diniga amal qilingan va bu diniy e'tiqodga ko'ra ayollarning ibodatxonalarga kirishi taqiqlangan. Ayol faqat o'z uyida muqaddas olovga sig'inishi, o'choqdagi olovni hech qachon o'chirmasligi lozim bo'lgan. Ammo o'choqdagi muqaddas olovga o'zining "noxush" nafasini tekkizmasligi kerak bo'lgan. Shuning uchun og'iz-burun aralash ro'mol o'ragan. Turkmanistonda hozir ham saqlanib qolgan og'iz-burunni o'rab yurish ana shu odatning qoldig'idir<sup>66</sup>.

O'tmishda O'zbekiston xotin-qizlarining ham insoniy haq-huquqlari cheklanganligi, moddiy-ma'naviy qiyinchiliklarni boshidan kechirganliklari sir emas. Hali turmush va hayot haqida tasavvurga ega bo'lmagan qizchalarni turmushga chiqarish, "xotin kishining boshi - uy ichining og'ir toshi" degan aqidaga amal qilish, uning ostona hatlab tashqariga chiqishini taqiqlash hollari odat tusini olgan edi. Chunki tashqariga chiqsa, uning yuziga nomahramning ko'zi

---

<sup>65</sup> Алпатов В. М. Япония. Язык и общество, с. 74.

<sup>66</sup> Эгамбердиева Т. Аёл ва давр. - Тошкент: Меҳнат, 1994, 18-б.

tushadi. Bu esa musulmonchilik qonun-qoidalariga to'g'ri kelmaydi. Yaqin-yaqinlargacha qattiq amal qilingan bu aqidalar Cho'lponing "Kecha va kunduz" romanida real aks etgan. Romandagi bosh qahramonlardan biri Zebini o'z eri - Akbarali mingboshini zaharlab o'ldirganlikda ayblab, sud qiladilar, sud jarayonida yigirmanchi yillar arafasidagi o'zbek xotin-qizlari MXga xos bo'lgan hayotiy detal o'zining haqqoniy ifodasini topgan. Bu jarayon tasviridagi har bir jumla mavzumizga bevosita aloqador bo'lganligi uchun uni to'liqroq keltiramiz (o'sha davr o'zbek qizlari MXda bo'rtib turadigan holatlar tasvirlangan satrlar ostiga chizish bilan ta'kidlanadi):

*"Sud raisi, nihoyat, tilmochga yuzlandi:*

*- Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.*

*Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.*

*- Voy o'laqolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi?*

*Undan ko'ra o'lganim yaxshi emasmi?*

Bu so'z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning hammasi deyarlik, sud hayatidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar. Ulardan ikki kishi ayrildi: birinchisi - nihoyatda semiz va yo'g'on gavdali gornizon boshlig'i; bu odam, tovuqning qa-qalashiga yaqin bir tovush bilan ovozi boricha va birdaniga qahqah soldi. Hamma unga tomon o'girildi. Sud raisi chinqiroq chaldi. Gornizon boshlig'i yonidan ro'molchasini olib yuz-qo'llarini arta boshladi... Ikkinchisi - imom - domla, bu kishi o'zlarining ingichka, hushtak singari ovozlari bilan, ixtiyorsiz "masha-ollo!.." deb yubordilar. Hamma u kishiga tomon evrilgach, qip-qizarib va ham ... qo'rqib boshlarini quyi soldilar.

*- Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz: yuzini ochmasa bo'lmaydi. Sudning qoidasi - shu. Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun uning yuzini ochishga majburmiz. Aytingiz, qarshilikdan foyda yo'q!*

*Zebi huddi o'yinda sherigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi. U indamay turganligidan sud raisi yana so'z oldi:*

*- Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa sud majlisini olib borolmayman. - Olib bormasa mayliga... - dedi Zebi. - Bilganini qilsin!*

*Tilmoch o'zi kulib, qip-qizarib turib, tarjima qildi.*

*- Harbiy sud masxarami bu kishiga? Aytingiz, yaxshilik bilan ochsinlar.*

*Bo'lmasa kuch bilan ochdiramiz!*

*- Voy sho'rim! Shuncha erkak o'tirsa-ya! O'lganim ming marta yaxshiroq!*

*So'ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi:*

*- Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..*

*Sud raisi endi bu safar muloyim gapirdi:*

*- Aytingiz, sud tomonga qarab, domlaga orqasini o'girib tursin!*

*Zebi yana indamadi. Domla o'tirgan joyidan bir oz ko'tarila tushib:*

*- Hech qisi yo'q, qizim! - dedi, - men qaramayman!*

*- Mana bular-chi? - dedi Zebi. Sud hay'atini ko'rsatdi.*

*Endi bu safar domla o'rnidan turib tilmochga yuzlandi:*

*- Eshon mirzo! Menga ijozat berilsa, shu ayolga ikki og'iz nasihat qilsam.*

*- Marhamat, taqsir!*

*Domla Zebining yoniga borib nasihatga boshladi. Zebi borgan sari susayib bo'lsa-da, domlaning har bir so'ziga javob qaytarardi. Oxirda, domla o'z dindoshlari o'rtasida mashhur bo'lgan bir e'tiqod masalasini ochdi:*

*- Kofir bilan itning farqi yo'q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo'lsa-da, kofirdan ham qochmasangiz bo'ladi. Bu joiz?*

*... Zebi unadi:*

*- Bo'lmasa, siz o'zingiz nariroqqa borib o'tiring!*

*- Xo'p qizim, xo'p, - dedi domla. To'rt-besh qator orqaga borib o'tirdi.*

*Hammaning ko'zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi va sudga tomon evrilgan holda bir qo'lini yana yuziga parda qildi"<sup>67</sup>.*

Endigina o'n besh yoshga kirgan o'zbek qizi MXdagi bu nolisoniy holatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolgan emas va hech qanday kulgili joyi ham yo'q.

---

<sup>67</sup> Чўлпон. Яна олдим созимни. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва саноат нашриёти, 1991, 257-259-б. Кейинги мисоллар ҳам шу китобдан олинди.

Ammo o'sha davr o'zbek qizlari MXga xos bu holat tili va dini boshqa bo'lgan kishilar uchun erish tuyuladi va Zebining bokira libosi ustidan ular, ayniqsa, semiz va yo'g'on gornizon boshlig'i miriqib kulishadi. Zero, Zebi mustamlakachilik sharoitida yashagan bir o'zbek oilasida, buning ustiga diniy bidoat va fanatizmga berilgan Razzoq so'fidek mutaassib, ayol zotini inson o'rnida ko'rmaydigan johil ota qo'lida katta bo'ldi.

Qulog'i faqat Eshon boboning so'zlarini eshitadigan Razzoq so'fi diniy bidoat va fanatizm ta'sirida ayollarni sariq chaqaga ham olmaydi. "Umuman, so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asosli bir maslagi bor: u maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni ravo ko'rmaydi. "Bu til, - deydi so'fi, - doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og'iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluqqa xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!"

"O'zbekda axir har bir erkak o'z xotinini - o'z halol juftini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi.

*...Bizning so'fi mo'min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o'z halol jufti Qurbonbibini hamma vaqt "fitna" deb chaqiradi: "Fitna, sallamni ber!", "Fitna, qiz o'lguring qani?", "Fitna, puldan uzat!" (27-b.)*

Umuman, "Kecha va kunduz"da xalqning urf-odatlarini, rasm-rusmlari bilan bir qatorda roman voqealari tasvirlangan yigirmanchi yillar arafasidagi o'zbek erkak va ayollari MXdagi o'ziga xosliklar ham mahorat bilan tasvirlangan. Bu haqda adabiyotshunos olim N. Karimov shunday fikr bildiradi: "Agar Cho'lpon bosh qahramonga "Zebo" ma'nosini anglatuvchi Zebi ismini bergan bo'lsa, uning onasini esa u Qurvonbibi deb atagan; ya'ni uning Razzoq So'fidek badfe'l bir kimsaga o'zini-o'zi qurbon qilganligini ta'kidlamoqchi bo'lgan. Chindan ham, Qurvonbibining butun hayoti erining qosh-qovog'i ostida kuyib, kul bo'ldi. Uning bu dunyoda yashashidan umidi yolg'iz qizi, uning baxtli-saodatli turmushi edi. Undagi onalik tuyg'usi qizning boshiga kelajak falokatni sezgandek bo'ladi. Lekin

Razzoq soʻfi eshon boboning “Mingboshi qancha moʻmin-musulmonning hojatini chiqarardi... Ibodat ham - ibodat, moʻmin-musulmonga xizmat ham - ibodat!” degan soʻzlariga qarshi oʻzida biror aqlli gap topa olmaydi! Shuning uchun ham u erining boyagi soʻzlariga javoban: “Men-ku hech narsa demas edim., mana bu qizingiz xuddi bir suratga aylanib qoldi. “Qoʻrqib yotibman”, - deydi, xolos. Undagi qarshi kuch faqat shu soʻzlarni aytishgagina yetadi...”<sup>68</sup>

Ayollarning turli davrlardagi ijtimoiy holatlari, yaʼni ayollarga boʻlgan munosabatlar, erkak va ayollar oʻrtasidagi mehnat taqsimoti tilda, nutqda va MXda oʻz ifodasini topadi. Taniqli dialektolog S.Ibrohimovning taʼkidlashicha, “... ishlab chiqarilgan mahsulot kishilarning qaysi jinsi tomonidan ishlatilishini bildiradi. Masalan, ketmonning ayollar tomonidan ishlatadigan yengil va kichikroq turini zayfona ketmon (rus.damskiy ketmen), katta (ogʻirroq) turini mardona ketmon (rus.mujskoy ketmenp) deyiladi. Bundan tashqari, yasalgan narsalarning qismlaridagi ayrim belgilar jonli narsalarning erkak va urgʻochilik belgilariga nisbat berilib, oʻsha narsalarning otiga erkak va urgʻochi soʻzlari qoʻshib aytiladi. Chunonchi, jagan suvlugʻi ikki boʻlakdan iborat boʻlib, bir boʻlagining uchi qayrilib, tanaga biriktirilgan; ikkinchi boʻlagining uchi qayrilsa-da, tanaga ilakmagan boʻlib, bu joydan birinchi boʻlakning uchidagi halqasimon joyga solib qoʻyiladi. Shunga koʻra, birinchi boʻlak - urgʻochi suvluq, ikkinchi boʻlak - erkak suvluq deb ataladi. Bunday nom degrezlikda erkak yang, urgʻochi yang: duradgorlikda erkak chorchoʻp, urgʻochi chorchoʻp tarzida uchraydi”<sup>69</sup>.

Shuningdek, yozuv mashinasida dastlab erkaklar ishlagan va uning nomi *mashina* boʻlgan. XX asrning boshlariga kelib bu ish bilan asosan “pishbarshnya” (“yozuvchi boyvuchcha ayol”) lar shugʻullana boshlaganlaridan keyin uning nomi *mashinkaga* aylangan<sup>70</sup>.

Koʻrinadiki, mehnat taqsimoti ish qurollarining nomiga, yaʼni tilga taʼsir etmoqda. Nutq til birliklari evaziga qurilishligini inobatga oladigan boʻlsak,

---

<sup>68</sup> Каримов Н., Назаров Б., Норматов У. XX аср ўзбек адабиёти, - Тошкент: Ўқитувчи, 1995, 138-б.

<sup>69</sup> Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. - Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси нашриёти, 1959, 166-167-б.

<sup>70</sup> Колесов В. В. Язык города, с.101.



MXning jins jihatdan xoslanishi ma'lum bo'ladi. Ammo MXning mehnat taqsimoti bilan bog'liq holda jins jihatdan xoslanishning asosiy sababi mehnat, umuman faoliyat, ya'ni insonning doimiy ravishdagi mashg'ulotining uning jismiga va ruhiga ta'sir etishligidadir.

Ma'lumki, sobiq Ittifoqda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jabhalarda, kishilar tafakkuri va dunyoqarashida muayyan o'zgarishlar ro'y berdi.

Xuddi mana shu tarixiy davrda O'zbekiston aholisi, jumladan, erkak va ayollar hayotida, mehnat faoliyati, turmush tarzida va MXda juda katta o'pirilishlar ro'y berdi.

1991-yil 31-avgust kuni O'zbekiston mustaqilligi to'g'risidagi deklaratsiya e'lon qilinganidan keyin 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining X bob 46-moddasida "xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar" deb yozib qo'yildi, 1999-yil ayollar yili deb e'lon qilindi. Zero, milliy o'zligimiz, azaliy qadriyatlarimiz tiklanib borgan sari ayollarga bo'lgan sharqona izzat-ikrom ham tobora ortib bormoqda.

V.M.Alpatov "Erkak va ayollar bir xil gapiradilarmi?" degan savolga javob izlar ekan, yapon ayollari ma'lumotlilik darajasi, ishlab chiqarishdagi ishtiroki va boshqa ko'pgina sohalarda erkaklarga yetib olganliklari, hatto o'zib ketayotganliklarini, shu bilan bog'liq holda, ularning MXdagi farqlar ham tobora kamayib borayotganligini ta'kidlab, xulosa sifatida quyidagilarni yozadi: "Erkak va ayollarning yapon tilidan foydalanishlaridagi farqli jihatlarning kelajagi haqida yapon mutaxassisleri shunday bir umumiy to'xtamga kelmoqdalar: farq tobora kamayib bormoqda, aftidan, bundan keyin ham kamayib boradi, biroq u farqning tez kunda barham topishligiga hech qanday asos yo'q. Yapon tilining erkak va ayollar nutqida qo'llanadigan variantlari, shubhasiz, ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lib qolaveradi"<sup>71</sup>.

MX aynan mana shunday chuqur ijtimoiy faktorlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sotsiolingvistik kategoriya bo'lib, bu haqda atroflicha to'xtalmay

---

<sup>71</sup> Алпатов В. М. Япония. Язык и общество, с.80.

turib, o‘zbek MXning jins jihatdan xoslanish sababali va darajalarini ochib berish mumkin emas, deb hisobladik va aynan shuning uchun gapni uzoqdan boshlashga to‘g‘ri keldi. Bizning bu tadqiqimiz g‘oyat serqirra va murakkab jarayonni ijtimoiy-lisoniy jihatdan o‘rganish borasidagi dastlabki urinishlar bo‘lganligi bois masalaning mohiyatini to‘laroq yoritish maqsadida misollarga kengroq o‘rin bergan bo‘lishimiz mumkin. O‘ylaymizki, bularning hammasi mazkur mavzuni keyinchalik chuqur ilmiy tahlil etish uchun zamin yaratadi va turtki beradi.

### **3.2-§. O‘zbek erkak va ayollari muloqot xulqiga xos bo‘lgan farqli xususiyatlar**

O‘zbek erkak va ayollari MXdagi farqli jihatlar til sistemasining deyarli hamma sathlarida hamda muloqot jarayonining ko‘pgina bosqichlarida u yoki bu darajada kuzatiladi. Avvalo, muloqot jarayonining kompozitsion bosqichlaridagi xoslanishlar haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Salomlashmoq va ko‘rishmoq adresant va adresatlar o‘rtasida “Assalomu alaykum”, “Va alaykum assalom” tarzida bo‘lib o‘tadigan shunchaki dialogik jarayongina bo‘lib qolmay, balki asrlar mobaynida tarkib topgan, kishilarning o‘zaro aloqalaridagi tamoyillarni, axloqiy qiyofalaridagi me‘yorlarni ifodalaydigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u muloqotning birinchi va eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Salom berib hol-ahvol so‘rash har bir kishining ichki madaniyatligi, xulq-atvori, insoniyligi, odamshavanda ekanligining dastlabki belgisi hisoblanadi. U turli xalqlarda o‘ziga xos shakl va ko‘rinishlarga ega. Jumladan, afg‘onistonliklar o‘ng qo‘lini manglayiga tekizib, ta‘zim bajo keltirishadi. Bu “boshimiz omon bo‘lsin” deb istak bildirishdir. Xitoyliklar birbirleri bilan “chi-fan-lya-ma” deb salomlashishadi. Bu “sen bugun ovqatlandingmi?”, “qorning to‘qmi?” deganidir. Buning sababini xitoyliklarning turmush sharoitlaridan qidirish to‘g‘ri bo‘ladi. Chunki xitoy tarixining hamma davrlarida ham aholisining ko‘pligi bilan mashhur bo‘lgan. Aholining ko‘pligi esa oziq-ovqat, uy-joy va boshqa masalalarni hal qilishda ancha qiyinchiliklar

tug‘diradi. Qorin och-to‘qligini so‘rash - salomlashishning bir shakli sifatida kelib chiqishining boisi ham shunda.

Tarixning guvohlik berishicha, arablar Islomgacha bo‘lgan davrda nihoyatda o‘jar, urushqoq xalq bo‘lishgan. Bir qabila ikkinchi qabila bilan bitta erkak qolmaguncha urushib, bir-birini qirg‘in qilgan paytlari ham bo‘lgan. Shu boisdan ham arablarda tinchlik, osoyishtalik, salomatlik doimo birinchi o‘rinda turgan va keyinchalik ular “assalomu alaykum” so‘zini qabul qilib, bir-birini ko‘rganda “sizga salomatlik, tinchlik tilayman” ma’nolarini anglatadigan mana shu jumla orqali muloqotga kirishishgan. Islom diniga e’tiqod qiladigan o‘zbeklar ham xuddi shu tarzda salomlashadilar.

“Ko‘rishish” degan so‘zning ma’nosi - ko‘z-ko‘zga tushish, bir-biriga qarab samimiy qo‘l siqishni anglatadi. Faylasuf K.Mahmudovning qayd etishicha, o‘zbeklarda salomlashish va ko‘rishishning yigirmadan ortiq turi mavjud va ularning ba‘zilari uch, to‘rt va besh xil shaklda amalga oshiriladi<sup>72</sup>.

Dunyo xalqlarining deyarli barchasida salomlashish va ko‘rishishda jinsiy farqlanishlar kuzatiladi. Jumladan, adigey erkaklari nutqida salomlashishning yigirmaga yaqin turi qo‘llanilgani holda, adigey ayollari nutqida qo‘shchi, ovchi, cho‘pon, o‘roqchilar nutqida qo‘llaniladigan salomlashish variantlari kuzatilmaydi<sup>73</sup>.

O‘zbeklarda ham erkak va ayollar salomlashish va ko‘rishishlarida bir qator farqlar mavjud. Tilshunos X. Doniyorovning fikricha, buning bir jihati musulmon xalqlarining muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘on ayollarning erkaklar bilan to‘liq shaklda salomlashishga ruxsat etmaganligiga borib taqaladi. Shu sababdan Samarqand shahri atrofidagi ayollar erkaklarga umumiy salomlashishning qisqargan shaklida “assalom” deb salom bergan. Xuddi shu sababga ko‘ra qipchoq dialektlarining vakillari bo‘lgan ayollar erkaklar bilan “keling” deb salomlashgan.

---

<sup>72</sup> Маҳмудов К. Мехмоннома. - Тошкент: Ёш гвардия, 1989, 165-б.

<sup>73</sup> Бгажноков Б. Х. Психология и техника коммуникативного поведения аджгов // Национально-культурная специфика речевого об̄уения народов СССР. - М.: Наука, 1982, с. 70.

Hozir salomlashishning bu formasi ayol tomonidagina emas, erkaklar tomonidan ham tez-tez ishlatiladi<sup>74</sup>.

Ayollarning erkaklar bilan turli qisqargan shakllar orqali salomlashish holatini hozir ham ko‘plab kuzatish mumkin. Jumladan, shahar joylarda yosh yoki o‘rta yoshdagi erkak adresantlar o‘zlari bilan teng yoki kichik notanish ayol adresatlarga “Assalomu alaykum”, - deya murojaat etsalar, ular “va alaykum assalom” deyish o‘rniga “...alaykum assalom”, “...alaykum...” yoki “yaxshimisiz” deyishlari mumkin.

Ta’ziyaning ertasi va undan keyingi kunlarda yaqin kishisidan ayrilgan xonadon egalari hamdardlik bildirib, fотиha o‘qigani borilgan paytda erkak va ayollarning salomlashish va ko‘rishishlarida, ayniqsa, katta farq seziladi. Ya’ni, ayollar hovli ichkarisiga bir-birlari bilan ovoz chiqarib yig‘lab ko‘rishishsalar, erkaklar fотihaga keluvchilarni darvoza yoki eshik oldida keluvchilar yoshi va miqdoridan qat’i nazar, o‘rinlaridan turib, qo‘l qovushtirib “keling”, “kelinglar” deb odob bilan kutib oladilar. Fотiha o‘qib ketayotganlarida ham shu tarzda kuzatib, “rahmat”, “xush ko‘rdik” deya qisqa-qisqa minnatdorchilik izhor etadilar.

Odatda, erkaklar mahalla ahllari, masjid qavmlari bilan birgalikda ko‘pchilik bo‘lib kirib keladilar. Ularga imomlar, ahli ilmlar, hurmatli qariyalar yo‘lboshchilik qiladilar. Katta jamoatni boshlab kelayotgan kishilar juda ziyrak va hushyor kishilar bo‘ladilar. Ular bunday katta yig‘inlarda so‘rashish va salomlashish odobini juda yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lib, agar o‘zlari kutib oluvchilar bilan qo‘l berib so‘rashib qo‘ysalar, orqadagilar ham beixtiyor shunday qilishlari, oqibatda keluvchi va ketuvchilar mahtal bo‘lib qolishlarini tajribadan biladilar. Shuning uchun o‘ng qo‘lni ko‘krakka qo‘yib masofada turib ko‘z bilan so‘rashishni ma’qul ko‘radilar<sup>75</sup>.

Qo‘lni ko‘krakka qo‘yib salomlashish salomlashishning eng ma’qul shakllaridan biri bo‘lib, erkaklar o‘rtasida keng tarqalgan. Odam o‘ziga yaqin,

---

<sup>74</sup> Дониёров Х. Кипчок диалектларининг лексикаси. -Тошкент: Фан, 1979, 111-112-б.

<sup>75</sup> Нуруллахон ҳожи Абдуллахон ўғли. Таозия одоблари // Ўзбекистон адабиёти ва саноати, 1993, 12 март.

sevgan, hurmat qilgan, mehribon, qadrdon bo‘lgan, do‘st kishisini uchratganda yuragi “jiz” etib ketadi. O‘ng qo‘lini chap ko‘krakka, ya‘ni yurak ustiga qo‘yib salomlashish ana shundan kelib chiqqan ekan. Eng muhimi, bu noverbal holat astoydil (forscha-arabcha: az taxi dil), ya‘ni, chin yurakdan degan ma‘noni anglatadi. Salomlashishning bu shakli besh xil vaziyatda:

- 1) ko‘cha-ko‘yda tanish-bilishni uchratganda;
- 2) hurmatli odamni ko‘rganda;
- 3) tanish bo‘lmasa ham keksa odam yonidan o‘tib ketayotganda;
- 4) ko‘pchilik o‘tirgan uyga kirganda;
- 5) qo‘l berib ko‘rishish mumkin bo‘lmagan boshqa hollarda ana shu ta‘zim bajo keltiriladi<sup>76</sup>.

O‘zbeklar odatiga ko‘ra, oiladagi, qarindosh-urug‘lar ichidagi ayollar erkak qarindoshlari bilan bir qancha muddat ko‘rishmagan bo‘lsalar, yoshi ulug‘ ayollar o‘zlaridan yosh erkaklarning peshonasini silab yoxud peshonasidan o‘pib ko‘rishganlar. O‘zlaridan yoshi ulug‘ erkaklar bilan esa erkakning yelkasini ikki qo‘li bilan silab qo‘rishganlar. Har kuni uchrashib turilganda esa og‘zaki salomlashish bilan qanoatlanganlar. Erkaklar esa yosh qizchalarning peshonalarini silab qo‘yish bilan kifoyalanganlar. Qariyalar yoshlarning yelkalariga erkalatganday “urib-urib” qo‘yganlar. Balog‘atga yetgan va katta yoshli ayollar bilan esa og‘zaki so‘rashib qo‘ya qolganlar. O‘zbeklarning odob doirasidagi bu sharqona ko‘rishishlari Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida qaynota-kekinning ilk bor ko‘rishishlari tasvirida real aks etgan: “Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Hoji qo‘li bilan Kumushning yelkasiga qoqib suydi va Kumushning manglayig‘a tegizib olg‘an o‘z qo‘lini o‘pdi...”<sup>77</sup>.

Ayollarning ayollar bilan o‘zaro ko‘rishishlari ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jumladan, Farg‘ona vodiysida uncha tanish bo‘lmagan xotin-qizlar ko‘rishganlarida har ikkala tomon ikki qo‘lining uchini bir-biriga tegizishadi, bosh

<sup>76</sup> Махмудов К. Мехмоннома, 167-б.

<sup>77</sup> Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар, 251-б.

oldinga hiyol egilgan holda “esonmisiz, omonmisiz!” deb so‘rashiladi. Qishloq ayollari “esonmisiz” so‘zini fonetik jihatdan buzib “essomis” tarzida talaffuz etadilar. Marg‘ilonlik va toshkentlik kundosh ayollar ko‘rishishi “O‘tkan kunlar”da shunday tasvirlangan: “Kumush ...ipaklar ichiga g‘arq bo‘lgan Zaynabga qarab, unga tomon adim tashladi:

*- Zaynab opam! - dedi. Zaynab ham kulimsiragan holda Kumushga yaqinlashib keldi... ikki kundash “esonmisiz, omonmisiz, eson-omon yuribsizmi...” so‘zlari bilan ozorsiz qilib bir-birining yelkasiga va qo‘ltiq ostig‘a qo‘l yuborishdilar...”*<sup>78</sup>

Erkaklarning erkaklar bilan, erkaklarning ayollar yoki ayollarning ayollar bilan qo‘l berib ko‘rishishlarida ham o‘ziga xoslik mavjud.

Erkaklarning erkaklar bilan qo‘l berib so‘rashish odati qadim zamonlardan beri sayqallanib kelgan. Erkak kishilar uchrashib qolganlarida bir-birlariga yaqinlashib kelish asnosida kekxa yoki o‘rta yoshdagi kishilar “assalomu alaykum”ni to‘liq aytib, har ikkala tomon ikkala qo‘llarining kaftlarini bir-birlariga birlashtirib, bir necha marta yengil siltab qo‘yadi. Bu ko‘rishuvchilarning bir-birlariga juda qadrdon ekanligini yoki samimiy hurmati zo‘rligini ifodalovchi, quyuq salomlashishning faqat erkaklarga xos shaklidir. Qadimdan qolgan odoblarimizga ko‘ra, qo‘l berib so‘rashish asnosida avval yoshi va mansabi ulug‘, ilmi ortiq kishi, uzoqdan kelgan mehmon qo‘l uzatmaguncha, kichik yoshdagi kishilar qo‘l uzatmaydi. Ammo hozir bu odatlarning buzilish hollari ham kuzatilmoqda. Bunga ko‘proq kattalarning o‘zlari sababchi bo‘lmoqdalar. Ya’ni ba’zi otalar xonadonga kirib kelgan mehmon o‘tirgan xonaga o‘g‘illari yoki qizchalarini olib kirib ko‘rishishga da’vat etar ekanlar: “qani, tog‘a (amaki, aka)ngiz bilan qo‘lingizni “chars” etkazib so‘rashib qo‘ying-chi!”, - deyishadi.

Katta yoshdagi erkak kishilar o‘tirgan izdahomga kech qolib kirib kelgan kishi qo‘l berib yoki quchoqlashib ko‘rishmaydi - “ko‘rganimiz - ko‘rishganimiz” tarzida og‘zaki salomlashish bilan kifoyalanadi. Samarqand tomonlarda

---

<sup>78</sup> Абдулла Қодирий. Ўткан кунлар, 251-б.

izdahomdagi har bir kishi bilan “Siz yaxshimi? Bola - chaqalar yaxshimi?...” deya alohida - alohida so‘rashib chiqiladi. Besh-olti yoki undan ortiq erkaklar tashqarida gaplashib turgan davraga kelib qo‘shilgan kishi shu kuni oldin so‘rashgan yoki o‘zining yaqin kishilari bilan qo‘l berib so‘rashmaydi. Beixtiyor qayta ko‘rishsa “yana bir marta” yoki “ko‘rishmagan kunlarimiz uchun” deb qo‘shib qo‘yiladi.

Aynan mana shunday davraga kelib qo‘shilgan ayollarning ko‘rishish holatlaridagi o‘ziga xoslik shundaki, agar ayollardan birortasining chaqalog‘i ham bo‘lsa, ko‘rishish jarayonida chaqaloqni ham nazardan qochirmaydilar: burnichasi yoki yuzini ohista chimdigan bo‘lib, “Voy, asalcha!”, “Voy, shirintoy...” deb ko‘rishib qo‘yadilar.

O‘zbekona milliy odatga ko‘ra erkak bilan ayol qo‘l berib ko‘rishmaydi. “Musulmon uchun ayoli va mahramlari (onasi, qizi, opasi, amma, xolasi...) dan o‘zga ayollar bilan qo‘l olib ko‘rishish islom dinida haromdir. Shu bilan birga bu odat fitna va fasodlarga bois hisoblanadi”<sup>79</sup>. Ammo bugungi kunda O‘zbekistonning ko‘pgina hududlarida bu odatning o‘zgarish hollari kuzatilmoqda.

Keyingi yillarda, asosan, 50-yillardan boshlab xizmatchi o‘zbek ayollarining ayollar bilan qo‘l berib ko‘rishishlari odat tusini oldi: “Umida yalt etib Saidaga qaradi va quvnoq tovush bilan:

- Salom, Saidaxon! - deb qo‘l berdi, - pravleniyening sekretari Umida Umarova!..” (A. Qahhor).

Qo‘l qovushtirib salomlashish ham erkaklar o‘rtasida ancha keng tarqalgan bo‘lib, ikkala qo‘lni kindik ustida qovushtirib, bosh sal oldinga egilgan holda holahvol so‘rashiladi. Salomlashishning ushbu shakli quyidagi to‘rt holatda amalga oshiriladi:

- 1) g‘oyat hurmatli keksani uchratganda;
- 2) to‘yxona darvozasi yonida ko‘pchilik mehmonlarni kutib olayotganda va kuzatayotganda;
- 3) ta’ziyaga borganda;

---

<sup>79</sup> Ислом нури, 1992, июлр, 14 (56).

4) yana to‘y, bayram va boshqa yig‘in dasturxoniga tayyorgarlik ko‘rishayotganda yosh yigitlar kelib qo‘l qovushtirib turishi - “buyuravering, xizmat bo‘lsa bajarishga tayyorman!” - degan ma‘noni bildiradi<sup>80</sup>.

Erkak bilan erkak, ayol bilan ayol, ota bilan o‘g‘il, ona bilan bola, tengqur bilan tengqur, aka bilan uka, opa bilan singil bag‘riga bag‘rini berib, bir-birini mahkam quchoqlaydi va shu payt hol-ahvol so‘rashish bilan bir-birlariga yaxshi tilaklarni aytishadi.

Quchoqlashib ko‘rishish erkaklar bilan ayol o‘rtasida, ular nechog‘li qadrdon bo‘lishmasin, hatto er-xotin bo‘lsalar-da, ko‘pchilik oldida amalga oshirilmaydi, uyat hisoblanadi.

Ota-ona bilan bolalar, aka-uka, opa-singillar eng yaqin qarindosh va birodarlar uzoq vaqt ko‘rilmay, so‘ng uchrashganlarida quchoqlashib, peshona va ikki yuzidan o‘pib ko‘rishadi. Og‘izdan o‘pishish gigiyena nuqtai nazaridan o‘zbeklar orasida urf bo‘lmagan. Ammo hozir o‘rta yoshli ayollar va, asosan, talaba hamda yuqori sinf o‘quvchi qizlari bir-birlarining lablaridan o‘pishib ko‘rishishlari ancha keng tarqalgan. Bunday holat hatto ba‘zi shaharlik yigitlar o‘rtasida ham ko‘zga tashlanmoqda. Shuning uchun ham jurnalist Rustam Mardon bu haqda shunday yozadi: “Hozirgi kunda o‘pich shunchalik arzonlashib ketdiki, yigitlar qizlar bilan ota-onasining oldida, ota-onalar farzandlarining oldida va eng dahshatlisi, erkaklar erkaklar bilan o‘pishib ko‘rishmoqdalar...”<sup>81</sup>

Salomlashish va ko‘rishishning jins jihatdan xoslanishi, ayniqsa, kelin salomda yaqqol bilinadi. Chunki “Kelin salom” - o‘z nomi bilan faqat qizlarga xos salomlashishning bir ko‘rinishi bo‘lib, kelin salomni qiz tomondan kelgan kelinning dugonalari aytadi, kelin egilib salom berib turadi”. “Kelin salom” o‘zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qozoqlar va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi<sup>82</sup>. O‘zbekistonning turli hududlarida, jumladan, Toshkent shahri, Toshkent viloyati va uning atroflarida yana ham boshqacharoq o‘tkaziladi.

---

<sup>80</sup> Махмудов К. Меҳмоннома, 167-б.

<sup>81</sup> Рустам Мардон. Ўпичнинг баҳоси // Оила ва жамият, 38 (56).

<sup>82</sup> Ўзбек Совет Энциклопедияси. - Тошкент: Ўзбек Совет Энциклопедияси бош редакцияси, 1974, 5-том, 426-б.



Kelin tushgan kunning ertasiga ertalab kuyovning ota-onasi va yaqinlariga hurmat yuzasidan o'tkaziladi. Mahallaning dasturxonchisi kelinni yasantirib, yuziga parda yopintirgan holda tashqariga olib chiqadi. Dasturxonchi baland ovoz bilan birinchi qaynota va qaynonasi nomini aytib, "kelin salom" deydi. Kelin ta'zim bilan egilib qaynota, qaynonasiga salom beradi... Ular salom javobini berib, kelinning boshiga ko'rmana qo'yadilar.

Ilgari "kelin salom" kelin farzand ko'rgunga qadar davom etar edi. Kelin har kuni ertalabki nonushta paytida dasturxon hozirlab, so'ngra oila a'zolariga birma-bir salom berar va choy quyib uzatar edi. Shuningdek, qaynona kelinini eng yaqin qarindoshlarinikiga olib borib, "kelin salom" qildirib kelar edi. Keyingi paytda bunday odat yo'qolib ketgan. Lekin yangi kelinlar hayit kunlarida kelin ko'rdiga kelgan qiz-juvonlarga, shuningdek, kelin salomda ishtirok etolmagan shu oilaga yaqin kishilar tashrif buyurganda yana takrorlanadi. Bunda ham kelin oq ro'molini boshiga tashlab, mehmonga ta'zim qilgancha, unga salom beradi. Bu haqda gazetxon I.Usmonov shunday yozadi: "Yaqinda kelin tushgan bir xonadonda bo'ldik. Eshik oldida bizga ro'para kelgan kelinchak rosti shoshib qoldi... Bizga yo'l bergach, uyga kirib ketdi. ...ko'p vaqt o'tmay, kelinlik libosini kiyib, qaynonasi hamkorligida bizga salom berishga chiqdi. Bir necha bor egilib, har birimizga salom berar ekan, ochig'i, ana shunday dilga yoqadigan an' analarimiz borligidan dilimiz yorishdi..."

Yevropa erkaklari o'rtasida ko'p uchraydigan bosh kiyimni olib salomlashish odati o'zbek erkaklarining faqat ziyolilar o'rtalaridagina uncha ommalashmagan holda kuzatiladi. Bu usulga ko'pincha o'zidan mansab jihatdan yuqori bo'lgan kishilar bilan ko'rishilganda amal qilinadi.

Erkaklar turli transportlarda ketayotgan paytlarida signal chalib, bosh irg'ab, qo'llarini ko'tarib (ko'pincha velosipedda ketayotgan paytda) qo'yish orqali ham salomlashadilar.

Biror yumush bilan mashg'ul bo'lib turgan kishilar (hasharchilar) yonidan o'tib ketayotgan erkak "hormanglar!" deb salomlashadi. Bu bilan ishlayotgan kishilarga ruhiy jihatdan dalda beradi.

### 3.3-§. Ota muloqot xulqining ba'zi xususiyatlari

Ota va bola chambarchas bog'liq insonlar ekanligini *Ota-bola – bir bog', biri – gul, biri – bog'bon* maqolida kuzatish mumkin. O'zbek sotsiumida qator maqollar otani hurmat qilish shart va zarur ekanligini, chunki ular g'animat va qaytar dunyo borligini unutmaslik Qadimda o'zbek oilalarida ota hunarining davomiyligi ta'minlangan, chunki hunarli kishining farzandlari hech qachon och qolmagan. Bu an'ana quyidagi maqollarda o'z ifodasini topgan: *Ota hunari – bolaga meros; Ota kasbi – davlat kasbi.*

Qator “ota” komponentli zarbulmasallarda yaxshilik ezgu ish ekanligi, inson kechirimli bo'lishi haqida fikrlar yuritiladi: *Otangni o'ldirganga onangni ber; Otangni o'ldirganga yaxshilik qil.*

O'zbek tilida tojik tilidan kirib kelgan “ota” ma'nosidagi *padar* leksemali maqollar ham uchraydi: *Amri padar arshdan a'lo.* Inglizlarda mavhum tushunchali *father* (“ota”) leksemasi komponent sifatida ishtirok etgan maqollar ham kuzatiladi: *The wish is the father of the thought* (Istak – fikrning otasi). Quyidagi o'zbek maqollarida “ota” leksemasi “biror narsa, ish-harakatning asosi, poydevori, tagzamini” ko'chma ma'nolariga ega: *Obro'ning onasi – mehnat, otasi – sayi harakat; Hamma narsaning otasi – mehnat.*

### 3.4-§. Ona muloqot xulqining ba'zi xususiyatlari

Inson paydo bo'libdiki, til uning muloqotiga xizmat qiladi. Insonning jamiyatdagi o'rnini ham til belgilaydi. Rus adibi B.Dovlatov e'tirof etganidek: “Inson shaxsiyatining 90% ni til tashkil etadi”. Til qachon vujudga kelganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. U hozirga qadar o'rganilib, tadqiq etilib kelinmoqda. Tilni o'rganuvchi sohalar majmuyi tilshunoslik hisoblanadi. Bugungi tilshunoslik zamonaviy yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Masalan

psixolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturalogiya, sotsiolingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi sohalar tilshunoslikning muayyan yo‘nalishlarini o‘rganmoqda. Ushbu sohalar bir-biriga uzviy bog‘liq hisoblanadi. Etnolingvistika va psixolingvistikani lingvokulturologiyasiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Lingvokulturologiya-tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, 20-asrning 90-yillarida vujudga kelgan. Lingvokulturologiya lotinchadan lingua – “til” va cultus – “ta‘zim qilish, hurmat qilish” ma‘nolarini anglatadi. Tadqiqotchi olimlarning qayd etishlaricha “lingvokulturologiya” atamasi V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi (Y.S.Stepanova, A.D.Arutyanyov, V.V.Vorobyov, V.Shaklien, V.A.Maslov) tomonidan olib borilgan izlanishlar bilan bog‘liq ravishda paydo bo‘lgan.

Lingvokulturologiya til va madaniyatning o‘zaro aloqasini, uzviy bog‘liq jihatlarini, tilda aks etadigan xalq madaniyatining ko‘rinishlarini tadqiq etadi. Lingvokulturologiyaning ayollar nutqiga xos bo‘lgan jihatlari alohida e‘tiborga molikdir. Ayollar nutqidagi madaniylik inson ruhiyatiga so‘z bilan ta‘sir o‘tkazish lingvokulturologiyaning o‘ziga xos jihatlaridan biri sanaladi. Ushbu sohada ayollar nutqi haqida gap ketganda, bevosita gender tafovutlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Nutq uslublari, nutqiy xulq-atvor ko‘rinishlari, nutqiy muomala modellarining tanlanishi ayol va erkakning nutq jarayonidagi eng muhim farqlanish jihatlari hisoblanadi. Mazkur holatda uslub deganda lingvistik xususiyatlar majmuyi tushuniladi-fonetik, ritm, intonatsiya, morfologik, sintaksis, leksik xususiyatlar erkak yoki ayollarga xos nutqiy xulq-atvor bilan tasvirlanadi. Ayollar erkaklarga nisbatan tezroq, ko‘proq, ifodali gapirishlari mumkin. Ayollar so‘zning oxirini “yutib yuboradilar”, erkaklar esa, aksincha, ayollar o‘ziga xos ohangda so‘zlashishi mumkin. Shuningdek, ayollar nutqiga ularning qaysi millat vakilasi ekanliklari ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Masalan G‘arb ayollari savol berib suhbatni davom ettirishga suhbatdoshiga dalda berishga, suhbatni qisqa javoblar bilan qo‘llab turishga moyil bo‘ladilar. Sharq ayollarining nutqi G‘arb ayollari nutqidan ba‘zi xususiyatlari bilan farqlanadi. Kattalarga hurmat, shirin muomilalilik, andisha, hayo va hamiyatlilikning beqiyos darajasi ularning nutqini

bezovchi xususiyatlar hisoblanadi. Ayollar nutq madaniyligida bir holat borki, ayollar qarshi jins vakillariga nisbatan bo'ysinuvchanlik xarakteriga egadirlar.

Tahlilga tortilgan ona ma'nosini ifodalovchi maqollar soni ingliz tilida 18 ta, o'zbek tilida 41 tani tashkil etadi. Ingliz tilidagi maqollarda ona mubolag'a bilan ikkinchi Xudoga tenglashtiriladi: *A man's mother is his other God* (Inson uchun ona – ikkinchi Xudo). Ona kattayu kichik, qizu o'g'il, ya'ni har bir inson uchun mo'tabar, umid bog'lanadigan insondir: *The mother's side is the purest* (Ona eng ishonchlidir).

Qator o'zbek xalq maqollarida onaning muqaddasligi, buyuk zot ekanligi aytiladi: *Yoshlikdan odob saqla, ona sutini oqla; Gung bolaning gapini kar onasi tushunar*. Onaga hech kim, hech narsa teng bo'lolmaydi: *Ming ignani yig'nasang, tugma bo'lmas, ming ammani yig'nasang, ona bo'lmas*. Ingliz tilida onaning eng kerakli inson ekanligi *The hand that rocks the cradle tides the world* (Beshikni tebratayotgan qo'l dunyoni boshqaradi) paremiyasida ochib beriladi. Bu xislat o'zbek tili paremiologiyasi uchun ham xosdir: *Ona olamning faxridir*.

Navbatdagi paremiyada ham uning bebaho zot ekanligi ta'kidlanadi: *An ounce of mother is worth a ton of priest* (Onaning unsiyasi bir tonna ruhoniydan afzal). O'zbek etnosida ona va bola chambarchas bog'liq: *Ona – daraxt, bola – meva; Bola – loy, ona – kulol* “Xalqimizda **“Ona bilan bola – gul bilan lola”** degan chiroyli maqol bor. Haqiqatan ham, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila tinch, hayotimizda fayz-baraka, ishimizda unum bo'ladi”.

Ingliz sotsiumida ona mehrining juda kuchliligi haqida ham paremiyalar mavjud: *Mother's love never ages* (Onaning muhabbati hech qachon eskirmaydi). Dunyoda hech bir narsa ona mehribonligiga teng kelmaydi: *A mother's love is best of all* (Ona mehri eng kuchlidir). O'zbek onalari ham bu dunyoda “bolam meniki” deb, o'zini suvga ham, cho'qqa ham uradi, shuning uchun:

*Meniki deganning mehri issiq*. Dono o'zbek xalqining *Onangga boshingni xam qil, otangga gapingni kam qil*, degan naqlida ham onaning, ham otaning

qadri, qimmatini va ulugʻligi oʻz ifodasini topgan. Quyidagi maqolda motiv sifatida ona oʻz bolalari uchun hamma narsaga tayyor ekanligi va uning ilohiy kuchi oʻz ifodasini topgan: *A mother's love will draw up from the depth of the sea* (Ona mehri dengiz tubidan koʻtarib chiqadi). Oʻzbek elida ota-ona duosi barcha kulfatlarga qalqondir: *Ota-ona duosi oʻtga, suvga botirmas*.

Inglizlarning fikricha, qizlar onalarni takrorlaydi, chunki ular onalariga oʻxshashadi: *Like mother, like daughter* (Ona qanday boʻlsa, qizi ham shunday). Quyidagi oʻzbek maqollari orqali bolaning, asosan qiz bolaning kelajakda kim boʻlishi, qanday feʼl-atvorga ega boʻlishi uning yoshligida onadan olgan tarbiyasiga bogʻliq, onasi yomon boʻlsa, qizning fazilatlaridan qatʼi nazar, boʻlajak oila baxtli boʻlolmasligi uqtiriladi: *Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi, toʻgʻri tutsa onasi, yurtga ega bolasi; Onasini koʻrib, qizini ol; Terakka qarab tol oʻsar, onaga qarab qiz oʻsar*. Ingliz maqollarida bolalar katta boʻlganda ham onalariga gʻamxoʻrlik qilmasliklari aytiladi, lekin har qanday sharoitda onalar moddiy va maʼnaviy jihatdan bolalarini tashlab qoʻymaydilar: *A mother can take care often children, but sometimes ten children can't take care of one mother* (Ona oʻnta

bolasi haqida gʻamxoʻrlik qilishi mumkin, ammo baʼzan oʻnta bola bitta ona haqida gʻamxoʻrlik qilaolmasliklari mumkin). Oʻzbeklarda ona har doim kechirimli, boladan esa bu holat hamma vaqt ham kutilmasligi aytiladi: *Ona – qum, bola – tosh. Onaning koʻngli bolada, bolaning koʻngla dalada* hikmati bola ona haqida oʻylamasa-da, lekin onaning qalbi har doim bolada ekanligi uqtiriladi.

Alohida ingliz maqollarida *mother* leksemasi orqali mavhum tushunchalar majoziy maʼnoda konkretlashadi: *Poverty is the mother of health* (Kambagʻallik – sogʻlikning onasi); *Trust is the mother of deceit* (Ishonch – yolgʻonning onasi); *Experience is the mother of wisdom* (Tajriba – donolikning onasi). Oʻzbek maqollarida ham inglizlarga xos yuqoridagi analogik hodisa

kuzatiladi: *Muhabbat – ittifoqning onasi; Pulning onasi – tiyin; Takrorlash o‘qishning onasidir.*

### **III bob bo‘yicha xulosalar**

1. Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar. Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo‘yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud.

2. Umumiy fiziologiyasi, jumladan, nutq a‘zolari: un paychalarining nozik va tebranuvchanligi, o‘pka, diafragma, ko‘krak qafasi, og‘iz, burun bo‘shliqlarining katta-kichikligi, kekirdak va h.k.lari jihatidan farqlanadigan erkak va ayollar tovushi - talaffuzi ham bir-biridan farqlanadi, albatta.

3. Ayollar nutq madaniyatini o‘rganishda muallif ular nutqidagi alohida jihatlarga e‘tibor qaratish kerak deb hisoblaydi. Nutqning madaniyligini saqlab qolishdagi omillar ko‘rib chiqilishi lozimligi ta‘kidlanadi. Ayollar nutq madaniyligiga zarar yetkazuvchi g‘iybat, chaqimchilik, qarg‘ish so‘zlardan foydalanishdan cheklanish tavsiya etiladi. Xulosa sifatida gender tilshunosligini o‘rganish bilan bir qatorda ayollar nutqini ham tadqiq etish joiz.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Nutqiy odat tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutq egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birga, o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri, aniq va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham bo‘lishi kerak.

2. Oila bu er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasida shakllangan o‘zaro munosabatlarning aniq tarixiy tizimi, psixologik nuqtai nazardan bu kichik bir jamoa bo‘lib, uning a‘zolari bir-biri bilan qarindosh urug‘chilik va nikoh orqali bog‘langan bo‘ladilar. Oilaning bo‘lishi jamiyatni, aholini jismonan va aqlan kamolotiga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Nutqda so‘zga shunchaki belgi va ma‘no anglatuvchi leksik birlik sifatida munosabatda bo‘lish mumkin. Bu munosabatlarning ijtimoiy-lisoniy aspektlari haqida fikr yuritishdan avval so‘zning belgilik va leksik ma‘no anglatishlik jihatlari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

3. Tilshunoslikning tilning ijtimoiy yashash va ijtimoiy taraqqiyot sharoitini o‘rganuvchi sohasi sifatida yuzaga kelgan, sotsiologlar va tilshunoslarni tobora bir-biriga yaqinlashtirayotgan zamonaviy sotsiolingvis-tika shu fan sohasidagi o‘ta nazariylik, noaniqlik va aynan shuning oqibatida yuzaga kelayotgan ayrim nuqsonlarni ko‘rsatib bermoqda.

4. Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq kishilarning qiziqishlar va bilish bo‘yicha ma‘lumot almashishdan iborat bo‘lgan o‘zaro ta‘sir etishdir. Shuningdek, muloqot - hayot kechirishning eng muhim sharti va bir shakli. Insonlar o‘rtasidagi muloqot va uning umumiy qonuniyatlari shaxsning turmush tarzi barcha jabhalarida-oilada, o‘qishda, ish jarayonida - boshqalar bilan bo‘ladigan o‘zaro munosabatining eng muhim shartlaridandir.

5. Yuqorida keltirilgan qozoq va o‘zbek lingvomadaniyatiga tegishli maqollarda ham umummadaniy qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘zbek va qozoq xalqining umumiy turkiy madaniyati, umumiy e‘tiqodi, yaqin hudud, yaqin qo‘shnichilik, bir til oilasiga mansublik kabi omillar bilan izohlanadi.

6. Tasviriy vositaning bu turi narsa yoki predmetning belgisini ikkinchi narsa yoki predmetning xuddi shu belgisiga ko‘ra qiyoslash natijasida vujudga

keladi. Shunga ko‘ra o‘xshatish uch asosga ega: o‘xshayotgan predmet, o‘xshagan predmet va o‘xshovchi belgi bu uch jarayon o‘xshatishning asosini tashkil qiladi.

7. Erkak va ayollar biologik va fiziologik jihatdangina emas, balki MX jihatidan ham farqlanadilar. Ayollar va erkaklar nutqi orasidagi farqli xususiyatlar masalasi bo‘yicha Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari tillari misolida, shuningdek, yapon, rus, gruzin tillari materialida qator tadqiqotlar mavjud.

8. Umumiy fiziologiyasi, jumladan, nutq a‘zolari: un paychalarining nozik va tebranuvchanligi, o‘pka, diafragma, ko‘krak qafasi, og‘iz, burun bo‘shliqlarining katta-kichikligi, kekirdak va h.k.lari jihatidan farqlanadigan erkak va ayollar tovushi - talaffuzi ham bir-biridan farqlanadi, albatta.

9. Ayollar nutq madaniyatini o‘rganishda muallif ular nutqidagi alohida jihatlarga e‘tibor qaratish kerak deb hisoblaydi. Nutqning madaniyligini saqlab qolishdagi omillar ko‘rib chiqilishi lozimligi ta‘kidlanadi. Ayollar nutq madaniyligiga zarar yetkazuvchi g‘iybat, chaqimchilik, qarg‘ish so‘zlardan foydalanishdan cheklanish tavsiya etiladi. Xulosa sifatida gender tilshunosligini o‘rganish bilan bir qatorda ayollar nutqini ham tadqiq etish joiz.

10. Oilada ota-ona muloqot xulqiga xos bo‘lgan til birliklarining o‘ziga xosliklari aniqlandi va tavsiflandi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора–тадбирлари тўғ‘рисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-185сон қарори. 2012 йил 10 декабрь.

2. Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора– Тадбирлари тўғ‘рисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-2909-сон қарор. 2017 йил 20 апрель.

3. Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ишлорларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора – тадбирлар тўғ‘рисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ- 5-сон қарори. 2018 йил 5 июнь.

4. Олий таълим муассасаларини ўқув адабиётлари билан таъминлаш тўғ‘рисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-81-сон қарори. 2018 йил 10 октябрь.

5. Таълим муассасаларида чет тилларини ўқитишнинг сифатини янада такомиллашти‘риш чора – тадбирлари тўғ‘рисида. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 10-сон қарори. 2017 йил 11 август.

6. Каримов И.А. “Юксак билимли ва интеллектуал ривожланган авлодни тарбиялаш – мамлакатни барқарор тараққий эттириш ва модернизация қилишнинг энг муҳим шarti” мавзусидаги халқаро конференциянинг очилиши маросимидаги нутқи // Тошкент оқшоми. – Тошкент, 2012. – 20 февраль. №5.

7. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. –5 б.

8. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб ҳалқимиз билан бирга қўрамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 488 б.

9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий мажлисга мурожаатномаси.

10. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 22 декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномаси // Правда востока, 23 декабр 2017. – № 248 (28706). – Б. 2.
11. Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность.-М. Наука, 1987.
12. Маслова В. Лингвокультурология.-М. Академия, 2001.
13. Народные русские пословице.- Москва, 1985
14. Усмонова Ш. Лингвокультурология. -Тошкент, 2019
15. Xudoyberganova D. Til Tafakkur Madaniyat . -Toshkent, 2020.
16. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. - Тошкент, 2019.
17. Хакимова М. Семасиология. Ўқув қўлланма. -Тошкент, 2008. 85-бет
18. Шведова Н.Ю. Краткая русская грамматика.- Москва, 1986.
19. Шорахмедов Ш. Ўзбек халқ мақоллари,-Тошкент, 1989.
20. Бакиров П. Муқаддас она, аёл ва фарзандлар ҳақида ҳадис ва мақоллар // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. – Хива, 2017. – №3. – Б. 74–79.
21. Бакиров П. Пословицы – энциклопедия народной жизни / П.Бакиров. – Ташкент: Akademnashr, 2018. – 176 с.
22. Бегмурадов И. Узбекско-казахские фольклорные связи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1990. – 21 с.
23. Биктагирова З.А. Концепт "Семья" в паремиологии английского, турецкого и татарского языков: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2007 – 24 с.
24. Буранов Дж. Сравнительная типология английского и тюркских языков: Учеб. пособие для пед. ин-тов. – М.: Высш. шк., 1983. – 267 с
25. Бўриев О. Усмонов М. Ўзбеклар: этник тарихи ва этномаданий жараёнлар. – Самарқанд, 2008. – 243 б.

26. Гис Ф., Гис Дж. Брак и семья в Средние века / Пер. с англ. Е.А.Мельниковой. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2002. – 384 с.

27. Имомзода М.М. Национальная специфика языковой объективации концепта «семья» в лексико-фразеологической и паремиологической системах таджикского и китайского языков: Дис. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2017. – 192 с.

28. Рахмат А. Концепт семья в русской паремике. Лингвокультурологический аспект: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2013. – 24 с.

29. Рузиева С.А. «Оила» тушунчаси ва унинг инглиз ва ўзбек тиллари маданиятида акс этиши: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. – 52 б.

30. Терпак М.А. Английский лингвокультурный концепт "семья" и способы отражения его коннотативного содержания в языке: на материале семантического поля "Родственные отношения": Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самара, 2006. – 26 с.

31. Холмурадова Л.Э. Семейные ценности англичан, отраженные в английской фразеологической картине мира // Вестник Челябинского государственного университета. – 2012. №5 (259). Филология. Искусствоведение. Вып. 63. – С. 161–163.

32. [www.filology.ru](http://www.filology.ru)

33. [www.ru.wikipedia](http://www.ru.wikipedia)